

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
НИЗОМИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ
МАГИСТРАТУРА БЎЛИМИ

Кўлёзма хуқуқида

Ижтимоий –гуманитар фанларни ўқитиш методикаси
(маънавият асослари)

Бобоева Моҳим Шукуровна

“ТАБИАТ ВА ЖАМИЯТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА
МАЪНАВИЯТ ОМИЛИ”

мавзусида

Магистр даражасини олиш учун тайёрлаган

ДИССЕРТАЦИЯ

Илмий раҳбар: Т.Ф.Д. Проф. И.Холиков

“ ” 2020 йил


ИМЗО

Каферда мудири : Ю.Ф.Н.Доц. Н.К.Жамалов

“ ” 2020 йил

ИМЗО

Магистратура бўлими бошлиғи: Р.Ш.Бердиқулов



AN-88

ТОШКЕНТ 2020

1



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK

Boboeva Mohim Shukurovna

TABIAT VA JAMIYAT UYG'UNLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIYAT OMILI

5A 111 601- **Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi**
(ma’naviyat asoslari)

Magistr darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Magistatura bo‘limi boshlig‘i
_____ R.Sh.Berdiqulov
“_____” _____ 2020 yil

“**Himoyaga tavsiya etaman**”
“Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari”
kafedrasi mudiri _____
“_____” _____ yu.f.n.dos.N.K.Jamolov
Ilmiy rahbar:
_____ T.f.d.,prof.I.Xoliqov

Toshkent- 2020

MUNDARIJA

Kirish:

I-bob. TABIAT VA JAMIYAT UYG‘UNLIGINI TADQIQ ETISHNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....

- 1.1. Tabiat va jamiyat uyg‘unligining mazmun-mohiyati.....
- 1.2. “Avesto”da tabiat va inson uyg‘unligi g‘oyalari.....
- 1.3. Tarixiy-nazariy manbalarda tabiat va jamiyat uyg‘unligi talqini.....

II-bob. TABIAT VA JAMIYAT MUTANOSIBLIGINI TAMINLASHDA MA’NAVIYAT OMILI: MAVJUD IMKONIYATLAR, ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR.....

1. Mamlakatimizda mustaqillikkacha bo‘lgan ekologik vaziyat, uning ayanchli oqibatlari.....
2. Mustaqillik: tabiat va jamiyat mutanosibligini saqlashga yangicha munosabat (hukumatimizning ekologiyani, suvni, o‘rmon boyliklarini saqlash borasidagi siyosati).....
3. Tabiat va jamiyat uyg‘unligini taminlash mas’ulitini yosh avlod ongiga va qalbiga singdirish omillari.....

III-bob. MAVZUGA OID TAJRIBA SINOV ISHLARI TAHLILI.....

1. Mavzuga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi.....
2. Tabiat va jamiyat uyg‘unligini taminlashda ma’naviyat omili mavzusi oid tajriba-sinov ishlari natijalari.....

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ANNOTATSIYA

Tadqiqotning asosiy maqsadi, tabiat va jamiyat o‘rtasida uyg‘unlikning ilmiy pedagogik muammosini o‘rganish, axborot va integratsiya asrida tabiat va jamiyat uyg‘unligining zaruriyatini izohlash, olam va odam, inson va tabiat munosabatlarining, qadim tarixiy manbalarda jamiyat va tabiat mutanosibligi masalalarining tarixiy va nazariy – huquqiy asoslarini yoritishdan iborat. Tadqiqotda yosh avlod qalbi va ongiga ona tabiatga muhabbat, ertangi kunga daxldorlik, o‘lchov - meyor asosida tabiat ne’matlaridan foydalanishni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar, ularni bartaraf etish bo‘yicha vazifalar atroflicha yoritilgan.

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasining asoslanishi va uning dolzarbliji:

Ma'lumki har bir narsaning o'z tarixi, kelib chiqishi sabablari hamda oqibatlari bor. Tarixga bir nazar solar ekanmiz bobolarimiz o'zi yashayotgan muhitni, tabiatni va uning ne'matlarini asrab-avaylashgan, bundan kelajak avlodning ham haqqi bor, deb tushunishgan. Ajdodlarimiz o'tmishi tabiat va uning hodisalari bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqealarga boy, deb aytish mumkin. Biz ajdodlarimizning tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini, shakllangan qadriyatlarimizning o'tmish ildizlarini ilmiy yondoshgan holda tarixiy nuqtai nazardan o'rgansak va ularni keng targ'ib etishni yo'lga qo'ysak nafaqat yurtimiz, balki dunyo yoshlariga ham nimadir bera olamiz.

Olib borilgan ilmiy tahlil, tabiat va inson hayotining o'zaro uyg'unligi, inson tabiatning ajralmas bir qismi ekanligi, insonning o'zi tabiatning ob'ektiv qonunlariga bo'ysunib yashashi lozimligini yana bir bor ko'rsatdi. Nazarimda, tabiat hodisalariga qarshi kurash va uning oldini olish uchun insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlar o'zini bir qator ibratli xususiyatlari bilan ajralib turadi¹.

Inson tabiatning bir bo'lagi. U tabiatdan ajralgan holda bir soat ham umr ko'ra olmaydi. U tarixiy evolyusiyasining boshidan toki bugungi kungacha har doim tabiat qonuniyatlariga amal qilib ko'nikib yashab kelgan. Lekin yaqin o'tmishda uning qonuniyatlarini buzish, o'zini tabiatdan ustun qo'yish, uning injiqliklarini bartaraf qilaman degan maqsad bilan olib borilgan puxta o'ylanmagan rejalar natijasida bugungi kunda dunyoning har turli mintaqasida turli tabiiy ofatlar kelib chiqmoqda. Buning natijasida yana eng ko'p zarar ko'rgan odam, inson farzandlari bo'lib qolmoqda.

Bugun biron-bir xalq, davlat yoki davlat idorasining rahbaridan tortib, oddiy kishigacha inson hayoti tabiat bilan uzviy bog'liq, mas'ulligini sezib yashashni davr har qachongidan ham ko'proq talab etmoqda².

¹ И.Холиков, А.Норбоев, М.Собирова, З. Жабборова. Фавкулодда вазиятлардан муҳофазаланишнинг давлатлараро аҳамият касб этиши ва унинг таълим муассасаларида ўқитилиши. –Тошкент, 2016. -Б. 18.

² И.Холиков, А.Норбоев, М.Собирова, З. Жабборова. Фавкулодда вазиятлардан муҳофазаланишнинг давлатлараро аҳамият касб этиши ва унинг таълим муассасаларида ўқитилиши. –Тошкент, 2016. -Б. 43.

Inson paydo bo‘libdiki, u hamisha turli ko‘rinishdagi tabiat hodisalari bilan yonma – yon yashab kelmoqda. Tabiat ato etgan narsalar bilan tirikchilik qilgan inson, uni o‘zlashtirishga, kerak bo‘lsa undan tortib olishgacha bordi. Hatto uni o‘z izmiga bo‘ysundirishga ham urina boshladi.

Ayniqsa, o‘tgan asrda yuz bergan misli ko‘rilmagan rivojlanish, tabiatga nisbatan bepisandlarcha yondashishga, ikki lager o‘rtasidagi siyosiy kurash esa tabiatdan kim o‘zarga foydalanishga va uni o‘z holiga tashlab qo‘yishga olib keldi. Dunyo siyosatidagi turli mafkuraviy jarayonlar bunga yordam berdi.

Tabiatni muhofaza etish – insoniyatning baxt-saodati, ertangi kuni, kelgusi avlod taqdiri uchun g‘amxo‘rlik qilish demakdir. Bu, dastavval, bizlarga ilhom berayotgan va egnimizni but, qornimizni to‘q qilayotgan Yerga, ona-zaminga ko‘rsatiladigan cheksiz hurmat va ehtiromdir. Bu – yuksak madaniyatllilik, ma’naviyatlilik belgisidir. Tabiat moddiy boyliklarining birinchi manbai sifatida ham, sihat- salomatlik, shod – hurramlik, manaviy – ruhiy barkamollikning asosi sifatida ham o‘zining g‘oyat zo‘r ahamiyatini xech qachon yoqotmaydi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning: “Ona zaminimiz – boyligimizning, mustaqilligimizning va go‘zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir”¹- degan so‘zlarida juda katta ilmiy falsafiy mazmun bor.

Tabiat o‘zining saxovatini, noz – nematlarini insondan ayamaydi. Bunday qaraganda, tabiat, ona – zamin inson uchun go‘yoki bir muqaddas beshik, bamisolli ona quchog‘idir. Yer jamiki boyliklarning, noz – nematlarning manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham, odamzot uni benihoya ulug‘lab, ezozlab, “Ona zamin” deb tariflaydi.

Tabiatni sevish,suv,havo va tuproqni ezozlash, ularni pok va bus – butun saqlashga davat etish, o‘zi o‘sib ulg‘aygan zaminni, atrof – muhitni yuksak e’tiqodla ardoqlash har bir insonning burchidir. “Er,havo, suv va olov (Quyosh)

¹ Ш.Мирзиёев “Буюк келажакни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” Т.: 2017 й

Markaziy Osiyoda qadimdan ezozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo‘lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan”²²

Tabiatni e’zozlash, atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi qarashlar va g‘oyalar Turonu Turkistonda – qadimiy maskanimizda kuni-kecha paydo bo‘lgan emas. Uning bir necha ming yillik tarixi bor.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma’naviy obida alohida o‘rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo‘ri mahsuli bo‘lmish bu noyob yodgorlikning zamon to‘fonlaridan, qanchadan-qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma’no mujassam. Bunday o‘lmas osori atiqalar bu ko‘hna o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganlidan guvohlik beradi.

“Avesto” falsafasi – tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviy – ruxiy va axloqiy mezonlar orqali uyg‘unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan, uning taraqqiyot omillarini o‘rganishga, hayot mazmunini anglashga chorlaguvchi falsafa”³ deb yozadi.

Ma’lumki, bugungi kunda dunyo mafkuraviy manzarasi keskin o‘zgargan, ma’naviy tahdidlar kuchaygan, yoshlar ongi va qalbi g‘oyaviy kurashning ob’ektiga aylangan bir pallada “Avesto” kabi ma’naviy merosimizga, qadriyatimizga yana bir karra qarash, undagi egu fikrlar va g‘oyalarni ma’naviyat sahnasiga olib chiqish muhim o‘rin egallaydi. Chunki, tarixi buyuk, yaratuvchilik va bunyodkorlik hamisha hamrohi bo‘lib kelgan, insoniylik fazilatlari ustuvor bo‘lgan xalqni yengish qiyin.

Yerning, suvning, quyosh nuri va havoning, umuman tabiat olamining ulug‘lanishi, muqaddas sanalganligini tasodifiy hodisa deb bo‘lmaydi. Dunyoga

²² 3.Фофуров “Табиатни муҳофаза қилишнинг маънавий ва хукуқий асослари”. Т. Иқтисод – Молия. 2007 й. 3 бет.

3 “Авесто” тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси, -Тошкент, “Шарқ”, 2001 й.

kelgan inson ko‘z ochiboq yorug‘ jahonni ko‘radi, tiriklik manbalari bo‘lgan suvdan bahramand bo‘ladi, tabiatning issiq va so‘lim bag‘rida o‘sib ulg‘ayadi, parvarish topadi, hayot kechiradi.

Shulardan kelib chiqqan holda tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini quyidagi omillar bilan asoslash mumkin :

- Yer suv bilan barhayot bo‘lganidek odamzot tabiat bilan tirik. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Tabiatga mehr odamning go‘dakligidan boshlanib, qalbiga singga boshlaydi. Bu jarayon umrbod davom etadi. Tabiatga mehri kuchli bo‘lgan odamning el – ulusga, millati va xalqiga, Vataniga mehr – muhabbat yuksak bo‘ladi. Qalbida mehr – shavqat, rahmdillik singari yuksak ma’naviy – ahloqiy fazilatlar ustuvorlik qiladigan odamlar tabiatdagi har bir narsa va hodisaga, tirik va notirik narsalarga oqilona munosabatda bo‘ladi, mehnati, aql – idroki va tafakkurini ezgulikka, savob ishlarga bag‘ishlaydi. Ajdodlaridan, ota – bobolaridan risoladagidek yo‘l – yo‘riq, ta’lim – tarbiya olgan kishilarda tabiatga mehr – muhabbat tamomila boshqacha bo‘ladi. Tabiatga mehri yoshligidanoq kuchli bo‘lgan odam ona zaminga o‘zgacha ko‘z bilan qaraydi.

- Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘tgan asrning boshidayoq “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamon ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, degan haqqoniy fikrlari bilan Turkiston ahlining ongu, shuurini uyg‘otishga da’vat etgani beziz emas, albatta. Bu so‘zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlamoqda. Chindan ham, agarki hozirgi vaqtida dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni churqur o‘zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilin maqtanib, ularga mahliyo bo‘lib yashaydigan bo‘lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o‘z hissamizni qo‘shmasak, zamon bilan hamqadam bo‘lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o‘rin egallashimiz qiyin bo‘ladi. Shuning uchun ham, bu masalaga yondashuvda hadisi sharifda aytilgan “Bu dunyoni deb u dunyoni oxiratni deb bu dunyoni unutmang” degan mazmundagi so‘zlarni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur, deb hisoblayman. Bizning ma’naviy hayotimiz ana shu ikki asos, ikki tayanch

nuqtaning ustida mustahkam turishi lozim. Bordiyu ana shu asoslardan birortasi bo‘shashgudek bo‘lsa, yana o‘zgalarga tobe va qaram bo‘lishimiz hech gap emas. Bugungi dunyoning pastu balandini tushunadigan har qanday aqli raso odam buni yaxshi anglaydi, albatta.

- tabiat degani bu Olloh degani. Tabiatga uning qonuniyatlariga, uning me’zonlariga qarshi chiqish uni buzishga urinish bir kun kelib ayanchli oqibatlarga olib keladi. Lekin eng achinarlisi bunda asosiy aybdor inson bo‘lgani kabi, asosiy jabrlanuvchi ham odam va uning farzandlari bo‘ladi. Biz o‘zimiz xoxlaganimizdan, ehtiyojimizdan ortiqcha ishlatayotgan har bir ne’matimiz bu kelgusi avlod farzandlarimiz haqqi ekanligini bir daqiqa bo‘lsada unutmasligimiz lozim. Chunki Olloh dunyoni ma’lum bir aniqlik va o‘lchov bilan yaratgan. Biz esa bu o‘lchov va muvozanatni buzishga haqqimiz yo‘q.

Tadqiqot ob’ekti: yosh avlodda tabiat va jamiyat uyg‘unligini ta’minlashda ma’naviyat omilini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: yosh avlodda tabiat va jamiyat uyg‘unligini ta’minlashda ma’naviyat omilini singdirishni usul, vosita va mexanizmlari.

Tadqiqotning maqsadi: yosh avlodda tabiat va jamiyat uyg‘unligini ta’minlashda ma’naviyat omilini singdirish va rivojlantirishning pedagogik shart – sharoitlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari: Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi :

- tabiat va jamiyat uyg‘unligining mazmun mohiyatini nazariy ochib berish;
- “Avesto” da tabiat va jamiyat uyg‘unligi haqidagi g‘oyalari o‘rganish va ularni ilmiy tahlil qilish;
- tarixiy – nazariy manbalarda xususan islom dinida tabiat va jamiyat uyg‘unligi g‘oyalarni talqini va ularni bugungi kun va kelajakdagi ahamiyatini tahlil qilish;
- respublikamizdagи mustaqillikkacha bo‘lgan ekologik vaziyat va uning ayanchli oqibatlarini yoritib berish;

- mustaqillik: tabiat va jamiyat mutanosibligini saqlashga yangicha munosabat hukumatimizning ekologiyani, suvni, o‘rmon boyliklarini saqlash borasidagi siyosatini o‘chib berish;
- tabiat va jamiyat uyg‘unligini taminlash mas’ulitini yosh avlod ongiga va qalbiga singdirish omillarini o‘rganib chiqish va tahlil etish;
- mavzuga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish;
- tabiat va jamiyat uyg‘unligini taminlashda ma’naviyat omili mavzusiga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va natijalari o‘rganib ilmiy xulosalash;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: magistrlik darajasida ilmiy tadqiqot ishining aynan tabiat va jamiyat uyg‘unligini ta’minalashda ma’naviyat omilining o‘rni va ahamiyatiga qaratilgan ilmiy – nazariy, uslubiy, amaliy ishlanmalar bilan boyitilganligi – tadqiqot ishini yangiligini tashkil qiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari: tabiat va jamiyat o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minalashda ma’naviyat omilini o‘rnini va ahamiyatini yosh avlodga singdirish va rivojlantirish.

Tadqiqotning ilmiy farazlari: tadqiqot ishidan kutilayotgan natijalar shuki, ushbu magisrlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldaggi PQ-3160 sonli “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059 – son qarorlaridan kelib chiqqan holda yosh avlodga tabiat va jamiyat uyg‘unligini ta’minalashda ma’naviyat omilini o‘rnini yoritishga qaratilgan ilmiy – tadqiqot ishlari doirasiga kiradi. Uyg‘unlikni ta’minalashda ma’naviyat omilini samaradorligini ta’minalash uchun, agar:

- yosh avlodda tabiatga mehr muhabbat, uning ne’matlaridan oqilona foydalanish malakalari shakllantirilsa;
- yosh avlodga uyg‘unlik masalasini singdirishda ma’naviyat omilini o‘rnini yaqqol ko‘rsatuvchi farqli jihatlar aniqlanib, ular amaliyotga mantiqiy izchillikda joriy qilib borilsa;

- tabiat va jamiyat uyg‘unligini ta’minlashda ma’naviyat omilini o‘rniga oid xulosalar ilmiy asoslansa va hayotga tadbiq etilsa ushubu tadqiqot ishi albatta ijobjiy natijalarga olib keladi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharxi (tahlili) : tabiat va jamiyat o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlash muammolari mamlakatimiz olimlari va yirik ulamolari, jumladan, Z.G‘ofurov, E.Xoliqov,A.Ibragimov,P.G‘ulomov, O.Fayzullaev, T. Mirzaev, J.Xolmo‘minov, Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq, Shayx Abdulaziz Mansur, Sh.Chorieva, T.Mahmudov, A.Maxkam, H.Homidiy, X.Salimov³larning ishlarida yoritib berilgan.

Ushbu tadqiqot ishlarida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik, uning zaruriyati, tabiatga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish sabablari va oqibatlari, tabiiy muhit va uni asrash muammolari, muqaddas kitoblarda tabiat va inson uyg‘unligi g‘oyalarining ifodalanishi, hamda bugungi kun va o‘tmishda uning o‘z tasdig‘ini topganligi haqidagi fikrlar ilmiy asoslar va misollar yordamida tushuntirip o‘tilgan.

Jumladan, yirik olim A.Ibragimovning ta’kidlashicha, dunyodagi har bir narsa: suv,tuproq,havo,nabotot ham Olloh toolo tomonidan muayyan o‘lchov bilan o‘zaro bir – biriga bog‘liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanat bir oz buziladigan bo‘lsa, insoniyat uchun qator – qator muammolar kelib chiqishi va natijada tabiat muhofazasi halokatga etib borishi mumkin.Bundan tashqari, Z.G‘ofurov “Tabiat o‘zgarip ifloslanib borar ekan bugun bir eshikdan kirsa, ertasiga ikkinchi eshikni buzip kiradi. Shu boisdan ajdodlar tajribasidan foydalanib etiborliroq bo‘lsak, bizdan keyingilarga ham go‘zal zamin, sof havo va tiniq suvlar qolishi turgan gap. Buning uchun hamkorlikdagi harakat, do‘ppini olib qo‘yib, manfaaatlar mushtarakligini anglagan holda bosh qotirishimiz lozim” – deb ta’kidlaydi. Shayx

³А.Ибрагимов “Рухий маҳзан озиғи”, - Т; 2009 й, З.Фофуров “Табиатни муҳофаза қилишнинг маънавий ва хуқуқий асослари” –Т; 2007 й, Э.Холиков, Б.Сиддиқов “Қалбан улгайиш даври” – Т; 2011 й, Шайх Абдулазиз Мансур “Куръони Карим” таржима ва шархлар. – Т; 2012 й, Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содик “Тафсири Ҳилол”, Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содик “Олам ва одам, Дин ва Илм” – Т; 2019 й, “Авесто” тарихий – адабий ёдгорлик. Асқар Маҳқам таржимаси. – Т; 2001 й ,Т.Махмудов “Авесто” ҳақида. – Т; 2000 й, П.Ғуломов “Инсон ва табиат” – Т; 2009 й, Ҳ.Ҳомидий “Авесто файзлари”, -Т, 1992 й, О.Файзулаев, Г.Хошимова “Инсон ва табиат” – Т; 1976 й, Т.Мирзаев, З.Фофуров “Табиатни эъзозлаш умумбашарий муаммо” – Т; 2001 й, Бозоров “Экология хуқуки” – Т; 2018 й, Сув хуқуки// Холмўминовнинг умумий таҳрири остида –Т; 2018 й, Ж.Холмўминов “Экологик таҳдидларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этишнинг хуқукий муаммоларининг илмий назарий таҳлили.”

Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq, Shayx Abdulaziz Mansur, A.Mahkam, T.Mahmudov va H.Homidiylar Zardushtiylik va Islom dini nuqtai nazaridan dinga tabiat va inson munosabatlari, tabiatning insonga munosabati va insonning tabiatga munosabati muvofiqligini diniy suralar, oyatlar, fargardlar misolida juda chiroyli tarzda keltirib berishgan.

Shuningdek yirik jahon olimlari Patrik Glin, Edvin Xabbl, Artura Eddingtonlar dunyoning va insonning yaratilishi, moddiy olamda Olloh mavjudligining belgilar haqida to‘xtalib, Moddiy olamda Olloh mavjudligining belgisi bu tabiat. Ona farzandini dunyoga keltirayotib u uchun, uchun yashashi uchun qanday sharoit va qulayliklarni yaratsa, Olloh ham insonni yaratishdan oldin u uchun jannatni va u yo‘ldan ozza Aqlini yig‘ib olishi uchun do‘zaxni yaratdi. Bu dunyo jannatdan va do‘zaxdan bir namuna, bo‘lak sifatida tashkil qilingan, - deb keltirishadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki tabiat va jamiyat uyg‘unligi mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan muayyan ma’noda tadqiq qilingan. Biroq, aynan tabiat va jamiyat uyg‘unligini ta’minlashda ma’naviyat omiliga, ta’lim jarayonida tabiat va jamiyat uyg‘unligini yosh avlodga singdirish va rivojlantirish muammolariga deyarli e’tibor qaratilmagan, bu esa mazkur muammoni tadqiq etish zaruriyatini taqazo etadi.

Tadqiqotda qo‘llangan metodlar: mantiqiylilik, tizimlilik, formallashtirish, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tahliliy xulosa metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan umumiy fikrlar, xulosalar mavzuga doir keyingi tadqiqotlar uchun muayyan manba bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: tadqiqotda keltirilgan xulosa va tavsiyalar ota – onalar, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari, umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, ekologiya va ma’naviyat sohasi mutaxasislari uchun uslubiy tavsiyalar, mustaqil qiziquvchilar va o‘quvchilar uchun bukletlar, to‘garak materiallari, referatlar tayyorlashda foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning tuzulishi va tarkibi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, har bi bob yuzasidan xulosalar, umumiyl xulosa va tavsiyalar, foydalanimanilgan adabiyotlardan iborat.

I-bob. TABIAT VA JAMIYAT UYG‘UNLIGINI TADQIQ ETISHNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1.Tabiat va jamiyat uyg‘unligining mazmun-mohiyati

Asrlar davomida texnika inqilobi va sanoatning nihoyatda rivojlanishi natijasida insonning tabiatga bo‘lgan ta’siri ancha kuchaydi. Yer yuzida iqlimning keskin o‘zgarishi, xavo haroratining ko‘tarilishi, tabiatdagi xar - xil o‘simplik va hayvonlarning populyatsiyasi sekinlik bilan yo‘q bo‘lib ketishi, toza ichimlik suvining kamayishi va ifloslanishi, ozon qatlaming yemirilishi kabi xodisalar yuz bermokda. Xususan O‘zbekistonda Orol dengizining qurishi, suv tankisligi, mavjud suvlarning sho‘rlanish jarayoni yuz bermokda. Hozirgi vaqtga kelib bu ekologik muammolar global muammolar darajasiga ko‘tarilgan va endilikda ularning iskanjasidan qutilib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning xaqiqatidir. Bu muammolar ekologik madaniyatni yuksaltirish va tabiatga bo‘lgan ongli munosabatlarni shakllantirish orqali xal qilsa bo‘ladi. Xalqaro ekspertlarniig xulosalariga ko‘ra, global iqlim o‘zgarishi natijasida yakin 5-10 yilda Markaziy Osiyoda suv tanqisligi keskinlashadi. Ayniksa, Orol dengizini suv bilan (xozircha arzimas bulsa xam) ta’minlaydigan Sirdaryo va Amudaryo boshlanishidagi muzliklarning intensiv erishi bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Ya’ni rasmiy ma’lumotlarga asosan keyingi 50 yil davomida ularning suv manbasi bo‘lgan muzliklar 20 dan 40 foizgacha qisqargan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich xozir yiliga bir foizni tashkil etmokda⁴.

Jaxon statistik axborot markazlari bergan ma’lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to xozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko‘mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80%, keying 25 yilga to‘g‘ri kelar ekan. Ana shunday holatni xom - ashyoning boshqa turlari to‘g‘risida xam gapirish mumkin. Taxlillarga qaraganda, 90 yillarda ishlab chiqarilgan xom - ashyo miqdori

⁴ “Фавкулодда вазиятлар: табият ва жамият уйхунлиги тарихидан (мутаносиблик ва мувофиқлик муаммолари) мавзусидаги Олий ўқув юртлари аро анжуман материаллари”, Т, 2014 й,3 бет

60 - 70 yillardagiga qaraganda 1,5 – 2 barobar ko‘paygan⁵.

Bularning barchasi Yer yuzida tabiat bilan inson o‘rtasidagi muvozanatning buzilganligi, insonning ertangi kunni o‘ylamasdan qilgan harakatlarining natijasidir. Zero muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimning “Qamar” surasi 49 oyatida Olloh toolo bunday deydi: “Albatta,biz barcha narsani o‘lchov bilan hal qildik”. “Furqon” surasida “Olloh hamma narsani yaratdi va o‘lchovini ham mukammal qildi”. Boshqacha qilib aytganda,dunyodagi har bir narsa: suv,tuproq,havo,nabotot ham Olloh toolo tomonidan muayyan o‘lchov bilan o‘zaro bir – biriga bog‘liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanat bir oz buziladigan bo‘lsa, insoniyat uchun qator – qator muammolar kelib chiqishi va natijada tabiat muhofazasi halokatga etib borishi mumkin⁶

Yer yuzida vujudga kelgan bunday xolat, bir tomondan, insoniyatni xomashyo resurlari bilan ta’minalash imkoniyatlari yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan esa xosiddor yerlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, shuningdek boshka xom - ashyo zaxiralarining kamayib ketishi kabi boshka bir kator muammolarni keltirib chikaradi. Xalkimiz tabiatning eng asosiy xayot baxsh omillaridan suv xavzalarini toza tutishga katta axamiyat bergenlar, ifloslangan suvni kasallik tarqatishdagi rolini juda yaxshi bilganlar. Hatto suvgaga tupurish, yuvindilarni, chiqindilarni tashlashni gunox deb bilganlar. Ekologik madaniyat, tarbiya, ekologik tafakkur, ekologik odob, axlok jamiyat tarakkiyotining asosiy negizlaridan xisoblanadi. Ekologik ong insoniyatning ijtimoiy - tarixiy amaliyoti jarayonlarida atrof – muxitni muhofaza qilishni zaruriy shartlaridan biri bo‘lgan.

Muhofaza qilishga qaratilgan ongli munosabat, ekologik ong tabiiy muhitni xar qanday buzilish holatidan asrab kolish imkonini beradigan insonga mansub jarayondir, aks xolda uning teskarisini ko‘rish mumkin. Ekologik madaniyat umuman insoniy madaniyatning moddiy va manaviy muxit mahsuli sifatida aks etgan tarkibiy qismida ham kelishi mumkin. Ekologik madaniyat va ma’naviyatni oshirishda xalkaro “Ekosan ” tashkiloti, 2002 yilda yangi tashkil kilingan

⁵ “Фавқулодда вазиятлар: табиат ва жамият уйхунлиги тарихидан (мутаносиблик ва мувофиклик муаммолари) мавзусидаги Олий ўқув юртлари аро анжуман материаллари”, Т, 2014 й,7 бет

⁶ А.Ибрагимов. Рухий маҳзан озики. Т., Янги аср авлоди,2009,161-162 бет.

“Ekologik xarakatlar” nodavlat tashkilotlari imkoniyati darajasida ekologik tarbiyani aholi o‘rtasida rivojlantirish maqsadida katta xarakatga bel bog‘ladi.

Bugungi kun o‘z-o‘zini, o‘z uyini asrash instinctini kuchaytirish yo‘lini tutmokda. Shy bilan birga insoniyat xayoti davomiyligini ta’minlash muammosini xar galgidam xam keskin va dolzarb qilib ko‘tarmokda. Insoniyat xayotiga tahdid uning butun daxolik qudrati, tafakkur kengliklari, fan-texnikaning ko‘p, mo‘jizaviy qudrati rivojlangan sari tobora ko‘prok namoyon bo‘lmokda. Boshqacha qilib aytganda, inson oldida kishilik jamiyati tabiiy-tarixiy taraqqiyoti orqali global muammolarni ko‘ndalang qo‘ymokda. Barcha xalklar, millatlar, davlatlar kanday tuzum, rejim va ijtimoiy tizimda yashayotgan bo‘lmasin, xar bir insonning individ sifatidagi ijtimoiy mohiyati tobora chuqurlashib bormoqda va ayni ana shu ijtimoiy moxiyat ijtimoiy tarakkiyotni, yuksak madaniy-ma’rifiy barkamollikni, aniqrogi tabiat va jamiyat uyg‘unligini anglashni taqozo etmokda.

Inson paydo bo‘libdiki, u xamisha turli ko‘rinishdagi tabiat xodisalari bilan yonma-yon yashab kelmokda. Tabiat ato etgan narsalar bilan tirikchilik qilgan inson, uni o‘zlashtirishga, kerak bo‘lsa undan tortib olishgacha yetib bordi. Xatto uni o‘z izmiga buysundirishta xam urina boshladи⁷.

Ayniksa, o‘tgan asrda yuz bergen misli ko‘rilmagan rivojlanish, tabiatga nisbatan bepisandlarcha yondoshishga, ikki lager o‘rtasidagi siyosiy kurash esa tabiatdan kim o‘zarga foydalanishga va uni o‘z holiga tashlab qo‘yishga olib keldi. Dunyo siyosatidagi turli mafkuraviy jarayonlar bunga yordam berdi.

Dunyoda yuz berayotgan turli tusdagi favkulodda vaziyatlar soni va ular keltirib chikarayotgan iktisodiy zararlarning ortib borayotganiga asosan insonning uzi sababchi bulayotgani xammaga malum. Birok, inson ortib borayotgan extiyoji va uni kondirish yo‘lidan bormokda. Bu esa asosan tabiat va uning ne’matlarini ayovsiz o‘zlashtira borishi evaziga yuz bermoqda. Yer osti va usti boyliklarini tinimsiz uzlatirish xuddi shu extiyojni kondirishga yunaltirilganligi sir zmas.

Bugungi kunda inson tomonidan o‘ylamasdan qilinayotgan ko‘plab ishlar

⁷ “Фавкулодда вазиятлар: табиат ва жамият уйхунлиги тарихидан (мутаносиблик ва мувофиқлик муаммолари) мавзусидаги Олий ўқув юртлари аро анжуман материаллари”, Т, 2014 й,3 бет

ayrim xalklar xayotini xavf ostiga qoldirayotgani ham ma'lum. Bizga ayonki, Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan O'zbekistonga suv toshqini, sel, kor ko'chkisi, yer urilishlari, yer silkinishlari kabi tabiiy, texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar xavfi mavjud. Bu kabi favqulodda vaziyatlarda betalofat chiqishni hech kim kafolatlagan emas.

Bugun dunyo tabiatining nixoyatda o'zgarib ketayotganligi kishilik olamini xavf ostiga olib kelmokda. Bular o'z navbatida sayyoramizda iqlimning o'zgarishi, o'rmonlarning kesilishi, xayvon va o'simliklarning yo'qolishi va boshka ekologik muammolar ko'rinishida paydo bo'lmokda. Ekologiya haqida gap ketganda Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida aytilgan fikrlarga e'tibor bermok lozim. Unda "Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir... Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz axolisi juda katta ekologik xavfga duch kelib koldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish, o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barovardir"⁸, - degan edi.

Bugungi kunda dunyo xamda mintaka mamlakatlarini tashvishga solayotgan global muammolar ortib, ular insoniyat xayotiga o'ziga xos taxdid paydo qilmoqda. Bunday xavflar jumlasiga kuyidagilarni kiritish mumkin. Bular:

Cho'llashish va kurg'okchilikni kuchayib borishi bilan bog'lik xavflar. BMT ma'lumotlariga qaraganda sayyoramizning 30% kismi cho'llanish xavfi ostida. Bu esa qishloq aholisiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Axolisi dexqonchilik bilan shug'ullanayotgan 110 ta eng kambag'al davlatlardagi 1,2 milliard kishining xayotiga xavf solmokda. Cho'llanishning kelib chikishiga tabiiy sabablardan bo'lgan - iklimning issik kelishi bilan bog'lik bo'lsa, asosiy sababi esa inson faoliyati, ya'ni yerlarni sug'orishda suvdan noto'g'ri foydalanish, qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, haddan tashkari mol boqish, o'rmonlarning

⁸ И.Каримов "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида : хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёти кифолатлари" - Т, Ўзбекистон, 1997 йил 15 бет

kesilishi, “yovvoyi” turizm va boshka omillarning mahsuli hisoblanadi.

Bular esa 2025 yilga kelib, foydalanishga yarokli xaydaladigan yerlar maydonining 1990 yilga nisbatan katta miqdorda: Afrikada — 2/3, Osiyoda 1/3, Janubiy Amerikada -1/5 ga qisqarishi olib kelishi mumkin.

Yerning global isishi va uning okibatida suv toshqinlari xavfini ortib borishi. O‘tgan asrning 50-60 yillarida Atlantika okeanida Antarktidan uzilib tushgan ulkan muz bo‘laklari suzib yurganini kuzatish mumkin bulgan. Ularning ayrimlarini kattaligi buyiga 350 km. eniga 90. km. bo‘lgan. Xozirgi kunda esa bunday muz bo‘laklari tez erib ketmokda. Umuman, quruqlikning 11 foizini tashkil kilgan 16 mln. km² muzlik jadal suratda erib bormokda⁹.

O‘zbekiston tabiatni muxofaza kilish davlat kumitasi tomonidan tayyorlangan Milliy ma’ruzada mamlakatimiz xududuida ikdimning global va mintakaviy uzgarishining okibati 2030 yilalrga borib, shimoliy xududlarda urtacha yillik xarorat 2-3 darajaga va respublikaning janubiy kismida 1 darajaga usishi bilan kuzatiladi, deyiladi. Darxakikat, Sayyoramizdagি ikdimning keyingi 25-30 yil ichida uzgarib borayotgani mintakamizdagи abadiy muzliklarga xam uz ta’sirini utkazmovda. Masalan, bu davrgacha bir nechta muzlik katlamlari erib ulgurgan bulsa, Abramov, Fedchenko, Oshanin kabi ulkan muz koplamalarining xajmi kiskarib bormokda.

Yer silkinishi xavfini kuchayib borishi va uning oqibatlari. Bugungi kunda tektonik plitalar xarakatining kuchayishi, Yer qobigiga ta’sir etuvchi tashki va ichki omillarning faollashuvi kuchli xamda daxshatlizilzilalarning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Buning juda katta talofatlar keltirib chikarishi sir emas. Yaponiyadan uncha uzok bo‘limgan suv ostida yuz bergen Yer silkinishini keltirib chiqargan oqibatini, yurtimizning Rishton tumanidagi zilzilani yoki dunyoning u yoki bu burchaklarida yuz berayotgan turdagи tabiiy ofat va ularning oqibatlarini bilib, ko‘rib turibmiz. Xolbuki mintaqamiz mamlakatlari xam seysmik faol (zonada joylishishi bunday xavf

⁹ “Фавқулодда вазиятлар: табият ва жамият уйхунлиги тарихидан (мутаносиблик ва мувофиклик муммалари) мавзусидаги Олий ўқув юртлари аро анжуман материаллари”, Т, 2014 й,3 бет

ehtimoli mavjudligidan darak berib turadi.

Ekologik muhitni yaxshilash masalasi ilk bor o‘tgan asrning boshlarida, ya’ni 1913 yilda Shvesariyaning Bern shahrida Xalkaro mikyosda muhokama kilingan bo‘lsa, o‘tgan yuz yil davomida bu masala, dunyo davlatlari va jamoatchiligi oldida hamon dolzarb, yechimini kutayotgan masala sifatida qolib kelmokda. Sayyoramizda ekologik madaniyatni shakllantirish eng muhim vazifa sifatida ko‘tarilayotgan bir paytda, tabiat ustidan xukmronlik qilishga, uning boyliklarini intensiv o‘zlashtirishga bo‘lgan urinish salbiy oqibatlarga olib kelayotgani sir emas.

Bugun Markaziy Osiyo respublikalari “Orol fojiasi” bilan bog‘lik o‘ta keskin ekologik xavfga duch keldi. Birok, uning oqibatlaridan to‘la xulosa qila olmayotgan davlatlar esa, unga bee’tibor faoliyat yurigizayotgani ma’lum.

XX asrning ikkinchi yarmi, ayniksa, uning oxirlariga kelib yuz berayotgan turli tusdagi favkulodda vaziyatlar dunyo xalklarini tobora tashvishga sola boshladi.

Natijada ikkinchi jachon urushidan so‘ng tashkil etilgan eng nufuzli xalkaro tashkilot Birlashgan millatlar tashkiloti faoliyatiga nazar tashlansa, unda tinchlik va barqarorlikni saqlash, insoniyat taraqqiyotini ta’minlash eng muhim masala sifatida ko‘rib kelinayotgani va bu borada muayyai yutuqlar ham qo‘lga kiritilayotgani ma’lum.

BMT faoliyati boshlangan daslabki un yillikda ekologik muammolar kun tartibida kariyb ko‘zga tashlanmagan edi. Ammo atrof muhitning holati global darajada yomonlashuvining davom etayotgani, xalkaro hamjamiyatni 70- yillardan boshlab tarakkiyot sayyoramiz ekologiyasiga, kishilar farovonligiga kanday ta’sir etayotgani yanada ko‘prok tashvishga sola boshladi va BMT atrof - muxitning axvoli xakida g‘amxo‘rlik qiladigan xamda “barqaror taraqqiyot” kabi yangi konsepsiyaning bosh tarafdoi bo‘lgan yetakchi muassasaga aylandi.

Iqtisodiy taraqqiyot bilan atrof-muhitning tanazzul o‘rtasidagi aloka ilk bor xalqaro kun tartibiga 1972 yilda Stokgolmda bo‘lib o‘tgan BMTning insonni o‘rab turgan muhit bo‘yicha konferensiyasida ko‘yildi. Konferesiyadan so‘ng

hukumatlar global ekologik muammolarni yechish buyicha yetakchi organ va artof-muhitni muhofaza kilish va yaxshilash borasida xarqaro targ‘ibotchi bo‘lib qolayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof muhit bo‘yicha dasturini (YuNEP) ishlab chikdilar.¹ Birok, hamon atrof-muxitga nisbatan munosabat o‘zgargani yo‘q. Ishlab chikarish bilan bog‘lik bo‘lgan antropotexnogen ta’sir ortib bormokda.

Faylasuf olim S. Mamashokirov “Insoniyatning kechani-kecha, kunduzni - demay xal qilishi kerak bo‘lgan muammolari ruyhatida ekoliya muammosi birinchi qatorlarda turishi lozim.” deb yozganida to‘la xaqli edi. Xolbuki, mamlakatimiz birinchi Prezidenti o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asaridi EKOLOGIK muxitning yomonlashuvi insoniyatni genofondiga ta’sir qilishi va uning yo‘qolishiga olib keladi, deb ko‘rsatgan edi.

O‘tgan asrning oxirlari, ya’ni 80-yillarida jaxon mamlakatlarini tashvishga soladigan yana bir muammo paydo bo‘ldi. A’zo davlatlar o‘rtasida «ekoliya sohasida bir necha katta xavf-xatarlar, jumladan, ozon qatlamini muhofaza qilishga erishish maqsadida muxim maslaxatlar va muzokaralar boshlandi. Demosferaning muayyan qatlamini tashkil etuvchi va Quyoshning ultrabinafsha nurlaridan himoya vositasini o‘tayotgan bu qatlamning yemirilishi kishilik olamigagina emas, balki Yerning yuza qatlamida kuchli tashvishlar olib kelmokda, flora va faunaga salbiy ta’sir etmoqda. Kishilar orasida turli kasalliklarning, ayniksa teri raki kasalliklarining ko‘payishiga sabab bo‘lmokda.

Bugun dunyoga tashvish solayotgan yana bir muammo - atmosferaning kuchli ifloslanishi va uning yomg‘ir xamda qor bilan kayta tushishidan iborat. Boshkacharok aytganda, kislotal i yomg‘ir xavfi. Kislotali yomg‘ir tushunchasi ilk bor ist’emolga 1872 yilda angliyalik muxandis Robert Smit tomonidan kiritilgan bulib, ishlab chikarish, ayniksa kimyoviy ishlab chikarish bilan bog‘lik gazlarning atmosfera tarkibida ortib ketishi bilan izohlanmoqda. Bugun esa u o‘zining kuchli salbiy ta’siri bilan kishini dahshatga soladi. Masalan, o‘tgan asrning 70 yillarida Skandinaviya mamlakatlarida baliyugarning yo‘q bo‘lib ketishi, qorlarning

oltingugurt rangida yog‘ishi, - Germaniyada shaxar va ishlab chikarish markazlaridan uzoqda bo‘lgan o‘rmonlarida daraxtlar bargining sarg‘ayishi holatlari kuzatildi. Bu esa tirik organizmga juda katta zarar keltirayotgani malum. Ma’lumotlarga qaraganda 1996 yilda Rossiyada 4 mln. t. oltingugurt va I, 25 mln. tonna azot nitrati yog‘ilgan.

Bugun insoniyatni tashvishga solayotgan yana bir muammo - atmosferani transport vositalari tomonidan ifloslanishidir. Xolbuki, transport vositalarining kundan-kun kupayib borayotgani, xavoda umuman olganda inson uchun zarur bo‘lgan kislorod tarkibida turli xil gazlarning ko‘payib borishiga olib kelmokda. Xozirgi kunda dunyo bo‘ylab transport vositalari 2 mld, t.dan ortik neft mahsulotlarini yoqadi. Xolbuki, bunda foydalanish koeffitsienti 23 % ni, qoldik kismi esa 77 % ni tashkil etadi. Ayniksa, yirik shaxarlarda, ya’ni transport vositalari ko‘p bo‘lgan shaharlarda turli xil kasalliklar miqdorining 30%’ ular bilan bog‘likligi aniklangan.

Bugungi kunda kishilik olamini tashvishga solayotgan muxim muammolardan biri - uni kuchli elektromagnit doirasiga tushib qolishdir. Chunki, Yerning tabiiy elektromagnit doirasidan tashqari, foydalanayotgan mobil telefonlarimiz, televizor va radiolarimiz, kompyuter, elektrochoynaklar ishlatalishimiz va boshkalar ko‘shimcha elektromagnit maydonlarini hosil qiladi. Ayni shu magnit maydonlarining tirik organizmga ta’siri ortib borishi turli kasalliklarning kupayishita, kuchsiz mavjudotlarning yo‘k bo‘lib ketishiga olib keladi. Kishining xarakteriga ta’sir etadi. qon aylanish tizimini normal xolatdan chiqaradi, rak kasalliklarini ortishiga olib keladi, xotirani yukotadi¹⁰ va b.

Yuqoridagi kabi muammolarni sanab, uning safini yanada kengaytirish mumkin edi. Birok, undan istisno tutib, ularni keltirib chiqaruvchi omil inson, uni o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirishga urinish, u bilan bog‘lik bo‘lgan ishlab chiqarishga zo‘r berish ekanligini aytib o‘tish joiz. Xolbuki, inson bir marta nafas

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси илмий – тадқиқот ва тиббиёт хужжатлари марказий давлат архиви Ф333, 139 бет

¹¹ Тилаб Махмудов “Авесто” ҳакида. Т., “Шарқ”, 2000, 40-42 бет.

olish uchun bor bisotinn berishga, bir marta tuyib ovkatlanishi uchun bor boyliklarini tikishga, bir kultum suv uchun xar narsaga tayyor ekanligini xamon anglab ololmayotgani, uni xar on ifloslantirish bilan ovora bo‘layotgani kishini larzaga soladi, xolos.

O‘tgan asrning oxirlarida, anikrogi 1989 yil 22 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 44 - sessiyasida muxim masalalardan biri ko‘rildi. Bu esa tabiiy ofatlar va ularning insoniyat xayotiga solayotgan xavfi edi. Shu sabab, 1990 Yil 1 yanvardan 2000 yilgacha bo‘lgan davrni “Xavfli tabiiy ofatlarning oldini olish va zararini kamaytirish xalkaro o‘n yilligi” deb, e’lon qilindi. Bu masala xalkaro jamoatchilik va mamlakatlar e’tiborini yanada oshirdi. Sessiyada Jenevada Ofatlar yuz berganda xalkaro yordam ko‘rsatishni tashkil etish uchun BMT kotibiyati tashkil etildi.¹

Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri respublikamiz axolisining ekologik madaniyatini va ma’naviyatini oshirish masalasidir. Xususan, jamiyat ijtimoiy tarakkiyotida inson va tabiat munosabatlari keskinlashib, biosfera ekologik muvozanatni saklash eng dolzarb umumbashariy muammoga aylandi. “Bundam sharoitda inson tomonidan biosferaga ko‘rsatilayotgan ta’sirini tartibga solish, ijtimoiy tarakkiyot bilan kulay tabiiy muxitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo‘lib qolmokda”.

Xozirda nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlatlarning fukarolari xayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan: ijtimoiy - tabiiy sharoit yaratish, atrof — muhitni muhofaza qilish, sog‘lom avlodni tarbiyalash, ekologik sog‘lom vaziyatni shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Tabiatning ifloslanishi, uning boyliklaridan foydalanishda ro‘y berayotgan shafqatsizlik faktlariga ko‘pincha xo‘jalik va moddiy ishlab chiqarish extiyojlarining o‘sishi emas, balki kishilarning ekologik konunlarning bilmasligi, savodsizligi xamda madaniyatsizligi sabab bulmokda.

1.2. “Avesto”da tabiat va inson uyg‘unligi g‘oyalari

Insoniyat tarixida o‘ziga xos qadimiy va har tomonlama mukammal bo‘lgan diniy, falsafiy, ilmiy,badiiy hamda huquqiy manba bo‘lgan “Avesto” kitobi qadimiyligi bilan hamda barcha sohani qamrab olgani bilan kishini lol qoldiradi.

Ushbu kitobda aks ettirilgan eng buyuk g‘oya- insoniyatning bardavomligini taminlash uchun suv,havo,zamin hamda olovni toza, sof tutish bo‘lgan. Bugun bu masala, ya’ni “Avesto” dan uch ming yil keyin insoniyatni tashvishga solmoqda. “Avesto” ajdodlarimizning tabiatga, yerusuvga, Quyosh va havoga bo‘lgan ilohiy munosabatini,ularning muqaddas tushunchalarini mukammal yoritib bergani bilan qimmatlidir.

“Avesto” shunday bir manaviy xazinalar koniki, unda inson haq-huquqlari va qadr-qimmati, ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy, talim – tarbiya,oila-ni-kox masalalari,tibbiyot va atrof-muhitni asrashga doir qonun-qoidalar, davlatning siyosiy boshqaruv va qonunchilik tizimi masalalari ham ehtibordan chetda qolgan emas.

Faylasuf olim Tilab Mahmudovning “Avesto” haqidagi maqolasida o‘rinli tahkidlaganidek, “Avesto” faqat odamning emas,balki bir hovuch tuproq,bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. “Avesto” yerning, daryolaru bog‘lar,tog‘lar-u buloqlar,ko‘lu sahrolar,ot-u tuyalar uyuri, molu o‘tlar, o‘simlik giyohlar, shahar va manzilgohlarni bunyod etish tarixiga doir asar¹¹.

“Aveto”da er, tuproq,daryolar,ko‘llar,bog‘lar,tog‘laru buloqlar, sahrolar, o‘simliklar,giyohlar madh etilgan. Ona zaminni ulug‘lash, suvni hayot manbai deb qadrlash,quyosh,olov va havoni yezozlash bular “Avesto”dagi markaziy masalalardan bo‘lib hisoblanadi. Bu to‘rt javohirni ezozlanishi, ilohiy lashtirilishida juda katta hikmat,hayotiy haqiqat bor.¹²

“Avesto” talimotiga ko‘ra, tabiat bilan jamiyat, tabiat bilan insoniyat olami o‘zaro aloqador. Inson tabiatdan tashqarida, u bilan doimiy aloqa va

¹¹Тилаб Маҳмудов “Авесто” ҳақида. Т., “Шарқ”,2000,40-42 бет.

¹²Ҳ.Хомидий “Авесто файзлари”. Т.: Шарқ.

munosabatlarsiz xech qachon yashay olmaydi. Tabiat bilan jamiyat,shuningdek,insoniyat va tabiat aloqadorligi,o‘zaro ta’siri va aks tasiri o‘tkinchi hodisa emas. Bu - abadiy jarayon. Insoniyat mavjud ekan,demak,uning tabiat bilan aloqadorligi,tabiat tufayli tirikligi ham muqarrardir.

Inson tomonidan tabiatning,uning eng muhim tarkibiy qismi – Yerning bu qadar ulug‘lanishi,muqaddas sanalishining sabablari mohiyati,ilmiy falsafiy ma’nosi “Avesto”da to‘la yoritilgan. Inson o‘z tirikchiligi manbai – Yerda mehnat qilib, aql idroki va tafakkuri yordamida undan xazina undiradi,rizq – nasibasini yaratadi.

“Avesto”da tabiat,er,turli madanlar,o‘simlik va hayvonot dunyosi insoniyat uchun moddiy nematlar asosi sifatida ahamiyatini yoqotmasligiga alohida etibor berilgan.

“Avesto”da yerni yigit qizni sevgandek sevish,ezozlash,mo‘l hosil beruvchi zaminga aylantirishga davat etiladi. Ahura Mazda ko‘rsatmasicha,erga sara va kuchli urug‘ sepmoq dunyodagi eng zarur qonundir. “Yosh kelin eriga go‘dak hadya etganidek, yer ham peshona teri va qo‘l mehnati bilan uni parvarish qilgan kishilarga mo‘l ko‘l hosil beradi Haydalmagan va ekilmagan yer ersiz va farzandsiz bo‘lgan johil qiz kabi baxtsizdir. Qiz yaxshi erni orzu qilganidek, yer ham yaxshi qo‘shchiga ilhaq”¹³.

Ekilmagan va omoj tegmagan zamin insonga meva bermaydi. “Avesto”dagi bu fikrlar etiborga molik: “Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog‘at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand ko‘rish va yaxshi yostiqdoshga intiqdir.

- Ey Spiytmon Zardusht!

Kimda – kim chap qo‘l va o‘ng qo‘l bilan, o‘ng va chap qo‘li bilan shudgor qilsa, zamin unga forovonlik baxsh etadi. U go‘zal va pokiza qizga o‘xshaydi. Bu qiz er xonadoniga kirib borib, o‘z to‘shagida halol yostiqdoshiga farzandlar tug‘ib bergenidek, zamin ham mo‘l ko‘l mevalarni in’om etadi”.

¹³ “Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Махкам таржимаси,Т., “Шарк”,2001й

Insonni yerga mehr berib mehnat qilishga,noobod joylarni obod qilib,mo‘l-ko‘l hosil beradigan joylarga aylantirishga davat etuvchi g‘oyalar “Avesto”da juda ko‘p uchraydi. Kimda – kim chorvaning ko‘payishiga, yaylovlarning gullab – yashnashiga sababchi bo‘lsa, Xudoning inoyatiga musharraf bo‘ladi deyiladi. Kunlarning birida Zardusht Ahura Mazdadan: “Er yuzidagi eng yaxshi joy qaerda?”- deb so‘radi. Shunda Ahura Mazda: “Inson qayerda o‘ziga uy tiklab,oilasi – xotini va farzandlariga o‘rin ajratsa, xonadonida noz – nematlar muxayyo bo‘lib, oila a’zolari,itlari to‘q yashasa,uyida olov alangalanib tursa,o‘sha manzil, o‘sha go‘sha ulug‘dir, muhtashamdir” – deb javob beradi.

Ekin yerlarini ko‘paytirish,erni asrab – avaylash, muqaddas hisoblab parvarishlash,zardushtiylik dinining asosini tashkil etadi.

“ – Ey,olamni yaratgan Zot!

Ey,haqiqat!

Zamini hammadan ko‘ra baxtliroq bo‘lgan dunyodagi birinchi joy qayer?

Ahura Mazda javob beradi: - Ey,Spiytmon Zardusht! Bunday joy qo‘lida pokiza o‘tin,barsam,hovan va sog‘ilgan sut tutgan,o‘z amal e’tiqodiga dilida ishonchi sobit,o‘ktam ovoz,keng yaylovlar ishqil bilan masrur va bu yaylollarni qo‘shiqqa solgan bir Ashavan oyoq bosgan zamindir”.¹⁴

“ – Ey,olamni yaratgan Zot!

-Ey,haqiqat!

Zamini hammadan ko‘ra ko‘proq baxtliroq bo‘lgan dunyodagi ikkinchi joy qayer?

Axura Mazda javob beradi:

Bunday joy bir Ashavan uy tiklagan makondir. O‘sha uyda mubad ro‘zg‘or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi,farzandlar va suruvsalar yashaydi bu uyda. Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi. Ashavanlik afzun bo‘ladi.Tevalar xo‘roki forovon, yaxshi itlarning rizqi serob. Uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi. Tiriklikning go‘zal har bir hodisasi yaxshilikka qovushadi. Bunday joy dunyodagi ikkinchi baxtiyor zamindir”.¹⁵

¹⁴ Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Махкам таржимаси,Т., “Шарқ”,2001й

¹⁵ Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Махкам таржимаси,Т., “Шарқ”,2001й

"Avesto"da hikoya qilinishicha, kimki yerga g'alla – bug'doy eksa, u haqiqatni ekkan bo'ladi, ezbilikka yo'l ochadi. Yerga bug'doy urug'ini sepib,mo'l hosil yetishtirgan kishining mehnati yuksak darajada qadrlidir.

Kimda – kim bug'doy eksa, u Oshani(haqiqatni) ekadi. U Mazda dinini yana va ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano,narzu niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan quvlatlantirgandek quvvatli qiladi".¹⁶

Ko'proq bug'doy va mevali daraxtlar ekilgan,odamlar qo'riq yerlarga suv chiqargan, suvli yerlarni shudgor qilgan,qo'ylar suruvi va tevalar uyuri eng ko'p parvarish qilinadigan sernasl qo'ylar va tevalar yashaydigan zamin ajdodlarimiz nazdida,ayniqsa,eng yaxshi joy hisoblangan.

Bundan tashqari, "Avesto"da dexqonchilik bilan shug'ullanish o'n ming marta toat – ibodat qilishdan a'lodir,deyiladi. Don ekib,kishilarga rizq nasiba yaratgan odam taqvodorlik urug'ini sepgan,iymonini oziqlantirip turgan kishidir. Olam go'zalligi dexqondan, dexqonchilikdan. Kimda – kim yerga urug' qadapti,demak,u odamiylikka iymon keltiripti.

"Avesto"da bu haqda quyidagi ajoyib fikrlar bitilgan:

“Qachonki egatlarda urug' etilsa, devlar o'rinalidan turadilar. Qachonki
bug'doy gurkirab ko'karsa,devlar dahshatdan titray boshlaydilar.
Qachonki bug'doy un bo'lsa,devlar nola chekadilar.
Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa,devlar nobud bo'ladilar.
Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa,u xonadonga devlar bosh suqa olmaydi.
Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa,go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi”.¹⁷

Tabiatning go'zallahuvi inson mehnatiga,aql – idroki va tafakkuriga ko'p jihatdan bog'liqligi ota – bobolarimizning hikmatlarida takror va takror tilga olingan. Mehnat qilib,boylik yaratib,o'zi va oila a'zolarining forovonligini ta'minlagan,raiyatning to'q, Vatanning obod bo'lishiga hissa qo'shgan kishilar,

¹⁶ Тилаб Махмудов "Авесто" ҳакида. Т., "Шарқ",2000,40-42 бет.

¹⁷ Тилаб Махмудов "Авесто" ҳакида. Т., "Шарқ",2000,45 бет.

taqvodorlik urug‘ini ekkan,ezgu ishlarni amalga oshirganlar, Ahura Mazda uchun eng sevimli,pokdomon ummat sanaladi.

"Avesto" da o‘ng va chap qo‘li bilan yerga ishlov bermaydigan,mehnat qilmaydigan kishilar qattiq ogohlantirilgan. Ana shunday kimsalarga Zaminning javobi quyidagicha bayon etilgan:

“ O,sen odam, menga topinmaydigan, mehnat qilmaydigan odam. Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga tazim qilib abadul – abad bosh egib yurajaksak! Haqiqatdan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o‘tadilar, bu noz ne’matlarning barchasi mehnat qilayotgan,to‘q va forovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi, abadul abad shunday bo‘lajak!”.¹⁸

“Avesto”da atrof – muhitni muhofaza qilish, hayvonlarni boqish, sug‘orish,parvarishlash,o‘simliklarni nobud qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik insonning burchi ekanligi haqida turli ko‘plab qoidalar, yo‘l – yo‘riqlar mavjud. Qoida buzuvchilarni jazolash,hatto o‘limga mahkum etish haqida ham ochiq – oydin aytilgan. Belgilab qo‘yilganidek kimki qattiq suyakni yoki benihoya qaynoq xo‘rakni gala yoki xonaki itga bersa,agar o‘sha suyak it tishlari yoki tomog‘iga suqulib qolsa, qaynoq xo‘rak uni tili yoki tomog‘ini kuydirip,oqibatda it nobud bo‘lsa,bunday kishining gunohi o‘limdir. Kimki bo‘g‘oz itni urib yoxud quvib,qichqirip,oyoq – qo‘llari bilan unga tahdid solib qo‘rqitsa,agar o‘sha bo‘g‘oz it biror chuqurga,chohga,jarlikka,daryo yoki anhorga yiqilib shikast topsa va oqibat o‘lsa bunday gunohkorming jazosi o‘limdir.

Qadimi Sharqda, Turon zaminda “Avesto” g‘oyalari tasirida ona zaminni – Yerni muqaddas deb bilish,tabiatni ezozlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka oid yuzaga kelgan dostonlar, ertaklar,asotirlar,naqllar,rivoyatlar,afsonalar,maqollar,matallar,hikmatlar va boshqalar son – sanoqsizdir.

Yerni sevib ardoqlamaydigan,uning qadriga yetib, chiroyiga chiroy qo‘shishga astoydil harakat qilmaydigan inson zoti dunyoda topilmasa kerak.

¹⁸ Ҳамиджон Ҳомидий “Авесто файзлари” Т.:

Mislsiz boylik hisoblangan yerni ezozlaganning, uni to‘ydirganning umri nurafshon,rizqi mo‘l, ikki dunyosi obod bo‘lashi haqidagi “Avesto” talimoti asosida Sharqda qanchadan – qancha halq maqollari, ertaklari, dostonlari va qo‘shiqlari dunyoga kelgan. O‘zbek xalq ijodiyotining barcha janrlarida ona zamin ulug‘langan. Tariximizda yerni qadriga yetishga davat etuvchi xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari juda ko‘p: “Er– don, dexqon – xazinabon”, “Er boylikning – onasi,mehnat uning – otasi”, “El yer bilan obod, yer yer bilan obod”, “Erli bo‘lma guncha, molli bo‘lmaysan”, “Er to‘ydirar – o‘t kuydirar”, “Er olgan – er, yer sotgan – qora yer”, “Erni tepma – joni bor, urip turgan qoni bor”¹⁹.

Zarjdushtiylik ta’limoti bo‘yicha, suv va havoni iflos qilish, suvga nopok narsalarni tashlash qatiyan man etilgan. Anxor va ariq bo‘ylarida mol boqish, otlarni bog‘lashga ruxsat berilmagan. Suvga tupurish, sugurgida suvga qarab axlat supurish, toza qilib yuvilmagan idishlarda ariqlardan suv olish, nopok holda suvga qarash ajdodlarimiz e’tiqodi bo‘yicha odob – ahloqqa xilof tarzda baxolangan. Ular suvni hurmat qilishgan. “Avesto”da itlar, hayvonlar o‘ligi uyog‘da tursin, odamlar murdasini ham erga ko‘mishmagan, suvga oqizilmagan. Suv ifloslansa hamma narsa – tuproq ham, havo ham, undan bahramand bo‘lgan o‘simpliklar, giyohlar ham, hayvonlaru parrandalar ham nopok bo‘ladi. Nopok emishni istemol qilgan, nosog‘lom tuproqqa qadam bosgan inson jismonan baquvvat, ruhat tetik bo‘la olmaydi.

Murda tushib nopok bo‘lgan suvni qanday qilib poklash to‘g‘risida “Avesto”da bayon etilgan fikrlar, berilgan yo‘l – yo‘riqlar o‘z davri uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

So‘z yuritilayotgan asarda harom suvdan istifoda etish mumkin emas, deb ochiq – oydin yozilgan.

Zardushtiylik e’tiqodiga ko‘ra olov haqiqatni yolg‘ondan ayiruvchi eng ishonchli vositadir. Shuningdek, olov Ahura Mazdaning o‘g‘li deya etirof etilgan.

¹⁹ Ш.Шомаксудов, Ш.Шорахмедов “Хикматнома”. Т., ўзбек совет энциклопедияси бош редаксияси, 1990, 106 бет.

“Avesto”ning sakkizinchи fargard uchinchi bo‘limi 14-15 bandlalarida bu g‘oyalar o‘z ifodasini topgan:

Zardushtiylik dini kishilardan olovga har qanday iflos narsa yaqinlashtirmaslikni, unga ehtiromla munosabatda bo‘lishni buyurgan. Olovga toza, quruq o‘tin tashlash tavsiya etilgan. Ammo ahlatlarni yoqish taqiqlangan. Chang chiqaradigan, yomon hid tarqatadigan narsalar alohida ajratilgan joylarda yoqib yuborilgan. Zardushtiylik dini murdani olovda kuydirishni qatiyan taqiqlagan. Chunki kuydirilgan murdadan chiqqan sassiq hid yerni, atrof – muhitni,suvni, o‘t – o‘lanlarni zaharlaydi, odamlarni har xil yuqumli kasalliklarga mubtalo qiladi²⁰.

“Avesto”da ilgari surilgan g‘oyalar insoniyatni bardavom yashab qolishiga qaratilgan deb aytish mumkin. Bugun inson Yer yuzining 50% dan ko‘prog‘ hududini o‘zlashtirdi. Yerlaning bu tariqa o‘zlashtirilishi ko‘plab o‘simglik va hayvonot turlarining yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lgani sir emas. Insonning o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirishi kim o‘zar musobaqasi tarzida amalga oshirib kelinmoqda. Natijada yirik sanoat qurulishlari nafaqat Yerosti yoki usti boyliklaridan nooqilona foydalanishga, bir mamlakat ikkinchi mamlakat manfaatlarini ehtiborga olmaslikka ham sabab bo‘lmoqda. Sanoat ishlab chiqarishning bu tariqa o‘sishi havo,suv,tuproqni kuchli ifloslanish pallasiga olib kirib,insonlar orasida turli kasalliklarni ko‘payib ketishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Tabiat o‘zgarip ifloslanib borar ekan bugun bir eshikdan kirsa, ertasiga ikkinchi eshikni buzip kiradi. Shu boisdan ajdodlar tajribasidan foydalanib etiborliroq bo‘lsak, bizdan keyingilarga ham go‘zal zamin, sof havo va tiniq suvlar qolishi turgan gap. Buning uchun hamkorlikdagi harakat, do‘ppini olib qo‘yib, manfaaatlar mushtarakligini anglagan holda bosh qotirishimiz lozim.

Asrlar qaridan yorqin yulduz kabi nur sochib turuvchi “Avesto” ga nazar tashlagan har qanday kishi undan manaviy ozuqa oladi. O‘ziga masuliyat, faxr, g‘urur hissini tuyadi, shukrona aytadi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov “Yuksak mahnaviyat – engilmas kuch” asarida jamiyat taraqqiyotini parvoz qilayotgan qushning bir qanotini ma’naviyatga qiyos qiladi. Haqiqatdan ham jamiyatning taraqqiy etishida

²⁰ X.Хомидий “Авесто файллари”. Т.: Шарқ.

ma’naviy komillik asosiy omil hisoblanadi. Asqar Mahkam tarjima qilgan “Avesto” tarixiy – adabiy yodgorlik kitobida Narzulla Jo‘raev tomonidan so‘z boshida “Avesto” falsafasi u odam va odamiyatni, shaxs va shaxsiyatni, keng ma’nodagi inson va insoniyatni komillikka davat etuvchi, barkamolllikka, yetuklikka chariouvchi ulkan va noyob qadriyatdir²¹.

Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o‘rgatmoqchi bo‘ladi. Bunga ko‘ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo‘lajak, har bir inson o‘lgandan so‘ng o‘zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga, yoki yomon ishlari ko‘p bo‘lsa na xursandlik va na xafalik ko‘rmaydigan arosat joy misvongatuga tushadi. Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, hayot va o‘lim o‘rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi. Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi²².

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, sig‘inishi shart²³. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to‘rt unsur – suv, olov, yer va havo ulug‘lanadi. Zardushtiylik dafn marosimi o‘ziga xos bo‘lib, o‘lganlar bir necha pas, baland «sukut minoralari» – daxmalarga solinadi, u yerda murdalarning go‘shtlarini qushlar yeb, suyaklarini tozalaydi. Go‘shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib minora o‘rtasidagi quduqqa sochib yuboriladi. Bunda poklik bilan nopoklikning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi. Bu kitobda juda ko‘p g‘oya, fikr, tavsiya, o‘gitlar bor bo‘lgani uchun biz faqat real, haqiqiy hayotga

²¹ И.Каримов “Юксак маънавият – енгилмас куч”. Т.: Маънавият. 2008 й.

²² Тилаб Махмудов “Авесто” ҳакида. Т., “Шарқ”,2000,70 бет.

²³ Ҳамиджон Ҳомидий “Авесто файзлари” Т.:

dunyoviy munosabatlarga tegishli hozir ham talabalar uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan masalalar ustida to‘xtaymiz.
shi, ekologik xalokatga uchratmasligi ham qarz, ham farz.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek halqining dehqonchilik an’analari qadimiylar tarixga ega bo‘lib bundan 3000 yil mukaddam O‘rta Osiyo zaminida dehqonchilik gullab-yashnagan va ajdodlarning asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgan. "Avesto"da ta’riflangan va targ‘ib etilgan eng ulug‘ kasb dexqonchilikka oid urf-odat va marosimlar o‘zining xayotiyligi va halqchilligi bilan aloxida dikqatga sazovordir. Ularda ijtimoiy tabaqaviy cheklanish alomatlari yo‘q bo‘lib tabiiy ehtiyojlar zaminida paydo bo‘lgan va umumxalq manfaatlariga xizmat qilgan. Bu urf-odat va marosimlar tabiat bilan o‘zviy bogliq mexnat jarayoni hamda turmushning muhim voqealariga bag‘ishlab nishonlangan va xalqning orzu-umidlarini ifoda etgan²⁴.

Avestoning hozirgi davr kishilari uchun ahamiyati shundaki, unda odamlar doim pokiza yurishga, badanni toza tutishga yomon kirdikorlar qilmaslikka; har qanday yovuz niyat va haqoratli asabbuzar so‘zlarni aytmaslikka, ayollarni, jumladan qizlarni sevishga hamma sohada mo‘tadil (optimal) bo‘lishga da’vat etuvchi qoida davat, o‘gitlar bayon etilgan.

1.3.Tarixiy-nazariy manbalarda tabiat va jamiyat uyg‘unligi talqini

Tabiat uning to‘rt javohiri – yer, suv havo va olov ajdodlar tomonidan qadim – qadimdan e’zozlab kelingan. Tabiat ajdodlarimizning zardushtiylik dinidan boshlab barcha dirlari tomonidan munosib qadrlab kelingan. Buni islom dini timsolida ko‘rsa bo‘ladi.

Islom dini ta’limotida katta o‘rin tutadigan masalalardan biri – tabiatni e’zozlash, tevarak atrofni,suvni,havoni,tuproqni hayvonotu nabobatni asrab avaylashdan iboratdir. Avvalo shuni alohida ta’kidlash kerakki, islom dinida, uning muqaddas kitoblarida Qur’oni Karim va Hadisi Shariflarda inson nihoyatda ulug‘langan²⁵.

²⁴ 3.Фофуров “Табиани муҳофаза қилишнинг маънавий ва ҳуқуқий асослари” Т.: 2007 “Молия – иқисод”

²⁵ А.Ибрагимов. Рухий маҳзан озики. Т., Янги аср авлоди,2009,161-160 бет.

Qur’oni Karimda aytishicha, Alloh toalo o‘zining qudrati bilan olamni aniq bir reja asosida bunyod qildi. U to‘qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi, ko‘kni tun va kun bilan yaraqlatib, uni quyosh va yulduz bilan bezadi, osmonn betinim harakat qilishga bo‘ysundirdi. Yer yuzini yomg‘ir bilan yuvdi, natijada chang va chirk undan tozalandi. Quruqlikni, tog‘larni, dengizlarni, suvda mavjud bo‘lgan jonivorlarni, qurt – qumursqalarni, qir – adirlardagi qushlarni yaratib o‘zining qudratini ko‘rsatdi.

Hamal oyi bahorni boshlab berdi, uning o‘lchovida kecha va kunduz teng bo‘ldi. Bog‘larda barcha jonsiz narsalarga jon bag‘ishladi. Bog‘aro xilma – xil chechaklarni yoyib, chaman go‘zalliklarini jilvalantirdi. Shamol - yel tufayli dov – daraxtlarga qaytadan jon kirdi. Quyoshni kunduzi porlatib, oyni kechaning chirog‘iga aylantirdi. Agar u quruqlikda xar xil g‘aroyibotlarni yoygan bo‘lsa, dengizda esa ular bundan ham ortiqroqdir. U dashtlarda qancha jonivorlarni yaratgan bo‘lsa, suvdagi suzuvchilar bundan yuz barobar ko‘pdir.

Allohnинг olamni yaratishdan murodi Inson bo‘lib, u hamma mavjudod ichida tengi yo‘qdir, ulug‘dir, mukarramdir. Qur’oni : “Biz inson zotini mukarram qilib yaratdik va uni yer yuzida, suvda pok narsalardan rizqlantirdik, yerda, suvda yuradigan qilib, afzal qilib qo‘ydik”²⁶, - degan oyat bor.

Inson Alloh yaratgan mavjudodlarning eng afzalidir. Inson olam gultojidir. Inson, Qur’on ta’limotlariga binoan, Allohnинг yer yuzidagi xalifasi, ya’ni o‘ribbosaridir.

Islom ta’limotida, Alloh taolo insonning qalbiga ilmu hikmatning bir qismini joyladi. Barcha mahluqodlarning eng sharaflisi inson tabiatiga haqiqat sirini pinxon qildi. Shuning uchun ham inson hamma narsani idrok etish, hamma tilsimlarni ochish - kashf etish qobiliyatiga ega. Dunyoda inson bilolmaydagan narsa, maxfiy sir – sinoat yo‘q, boshqa hayvonlar bunday fazilatlardan mahrum. Zero, inson barcha mahluqotlarni sarvaridir.

Insandan o‘zga narsalar jaholatga botib, uning xitobini anglamadi va bu sirni qabul qilmadi. Shu sababli inson boshqa barcha narsalardan mumtoz qilib yaratildi

va “Kuntu kanzan...” siridan xabardor etildi. Uning boshiga to‘g‘ri yo‘ldan borish toji qo‘yildi, sharof merojiga chiqish esa uning qismati bo‘lib qoldi..... Shunday qilib tangri inson jismini bir hovuch tuproqdan chiroyli qilib yaratdi, unga odamiylikning chiroyli shaklini berdi. Ham uni o‘z siridan xabardor qildi, ham xalifalik bilan sarafroz etdi. ”²⁷

Inson Allohnинг Yerdagi xalifasi ekan, demak, unda Yaratganning sifatlari bo‘lishi tabiiy bir holdir. Butun borliqning ko‘rki va sharafi bo‘lgan insonda odamiylikning hamma ajoyib jihatlari mavjud. Inson ulkan izzat – hurmatga loyiqidir. Alisher Navoiy o‘zining “Vaqfiya” asarida, “Butun osmon va osmondagи barcha narsalar, hamma dengizlar va unda mavjud bo‘lgan hamma narsalar inson uchun, uning baxt saodati uchun yaratilgan, bularning jami insonga xizmat qilmog‘i kerak”, deb yozgan edi.

Yuqorida zikr etilgan islomiy ta’limotlardan inson dunyoda eng murakkab oliv mavjudod, tabiatning yuksak mahsuli, hayot yo‘lidir, degan xulosa kelib chiqadi.

Islom diniy ta’limotida qayd etilganidek, Alloh taolo hamma narsani inson uchun, uning hayri, rizq – nasibasi, baxt saodati uchun yaratib qo‘ygan ekan, uning vazifasi, burchi tevarak – atrofni e’zozlash, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabobatni asrab – avaylash, ularning hammasiga mehr – shavqat ko‘rsatishdan iboratdir.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim o‘rin tutgan islom dinida ham tabiat va uning hodisalari ma’naviy – axloqiy qarashlarning tarkibiy qismi ekanligi anglab yetilgan va u avlodlarga diniy qarashlar bilan bog‘lab tushuntirilgan va boyitilgan. Jumladan, islom dinining muqaddas kitobi bo‘lgan “Qur’oni Karim” ning “Qamar” surasi 49 oyatida Olloh toolo bunday deydi: “Albatta,biz barcha narsani o‘lchov bilan hal qildik”. “Furqon” surasida “Olloh hamma narsani yaratdi va o‘lchovini ham mukammal qildi”. Boshqacha qilib aytganda,dunyodagi har bir narsa: suv,tuproq,havo,nabotot ham Olloh toolo tomonidan muayyan o‘lchov bilan o‘zaro bir – biriga bog‘liq ilib yaratilgan. Agar bu muvozanat bir oz buziladigan

²⁷ А.Ибрагимов. Рухий маҳзан озики. Т., Янги аср авлоди,2009,161-162 бет.

bo‘lsa, insoniyat uchun qator – qator muammolar kelib chiqishi va natijada tabiat muhofazasi halokatga etib borishi mumkin²⁸

Islom dinida tabiatni muhofaza qilish zarurligi va muhimligi muammolari bo‘yicha shunday ajoyib g‘oyalar va qarashlar, shariat qoidalari, ahkomlari, talablari, ta’limotlar, falsafiy – ahloqiy qoida va o‘gitlar mavjudki, ularga amaliy faoliyatda asoslanish, suyanish faqat musulmonlargagina emas, musulmon bo‘limganlarga ham, shuningdek, arablarga qagina emas, ajamlilarga ham, sayyoramizdagi barcha mamlakatlar, halqlar va millatlarga, umuminsoniyatga ham bir xilda gavhardek zarur va muhimdir.²⁹

Vatandoshimiz shayx Najmuddin Kubro o‘zining islom olamida mashhur bo‘lgan “Ofaq va anfus” nazariyasida insondagi o‘zgarishlar ulug‘ olam bilan bog‘liqdir, deb ta’kidlagan. “Ofaq va anfus degani – yozadi shayx hazratlari Najmuddin Kubro, olami sag‘ir (inson) va olami kabir(tabiat) orasidagi munosabatlardir. Olami kabirda bo‘lgan har qanday o‘zgarish albatta olami sag‘irga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi”.³⁰

Atrof muhitni muhofaza qilish hozirgi kundagi muhim muammolardan biri bo‘lib qoldi. Bu muammoni insoniyatga keltirilishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz oqibatlarini yadro halokatidan keyingi o‘ringa qo‘yish mumkin.

Bu masala butun jahon jamoatchiligining e’tiborini jalb qilib kelmoqda. Aslida tabiatni asl holicha saqlab qolish, havo sofligini ta’minalash, atrof – muhitni ozoda saqlash har bir davlatning, har bir fuqaroning kundalik vazifasidur. Islom talimotida yer – osmon, falakiyat, atrof – muhitdagi holatlar to‘g‘risida ham qimmatli mahlumotlar mavjud. Tabiatda bor mavjudod o‘zaro bog‘liq, bir – biriga mutanosib, hikmatli yaratilgan. Tabiatga bo‘lgan munosabatda insondagi ma’naviy qarash, ma’naviy kamolot asosiy omil hisoblanadi. Xolbuki, muqaddas dinimiz islomda balo va ofatlari haqida juda ko‘plab oyatlar mavjud. Qur’oni Karimning bir qator suralari: “Rahd” – momaqaldiroq, “Duxon” – tutun, “Ahqof” – qumtepalar, “Zoriyot” – bulutlarni haydab yuruvchi shamollar, “Najm” – yulduz,

²⁸ А.Ибрагимов. Руҳий маҳзан озиқи. Т., Янги аср авлоди,2009,161-162 бет.

²⁹ З.Фоуров “Табиятни мугофаза қилишнинг маънавий ва хуқуқий асослари”, 2007 й 60 бет

³⁰ Холиков Э,Сиддиков Б, Рустамов М “Калбан уйғониш даври”, -Т., EXSTRAMUM PRESS, 2011 йил, 139 бет.

“Qamar” – oy, “Falaq” – tong kabi tabiat hodisalari bilan nomlanadi. Tabiat hodisalarining Olloh tomonidan yaratilgani, tabiiy ofatlarning insonga berilgan jazo ekanligi vahiy qilinadi. Dinimizda farz qilingan o‘n beshta nafl nomozining to‘rttasi (Istisqo,Qusuf,Xusuf,Xavf nomozlari) aynan tabiat hodisalari va ularning insonlarga zarar etkazmasligi uchun o‘qiladi.

Qur’oni Karimda “Eru osmonda qanchadan qancha alomatlar bor, lekin ko‘p odamlar ularga nisbatan beparvolik va g‘aflat bilan o‘tib ketaveradilar”³¹, deyilgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki,hatto Olloho ni tanish va unga to‘la iymon keltirish uchun borliqqa, atrof – muhitga ibrat nazari bilan qarab, tabiat muvozanatini saqlab qolish to‘g‘risida har bir inson qayg‘urishi lozim.

Islom ta’litimotida ibodat, diniy e’tiqod va marosimlardan tashqari, Yer, falakiyat va atrof – muhitdagi holatlar to‘g‘risida ham ko‘p ma’lumotlar uchraydi. Olloh Taboraka va Taolo olamni ajoyib, aniq, o‘zaro bog‘liq, bir – biriga mutanosib, go‘zal va hikmatli qilib yaratgan. Butun mavjudodlarning sir – asrorlarini bilishga, hikmatlari va xususiyatlari to‘g‘risida tafakkur qilishlikka oid targ‘ibotlarni Qur’oni Karimda ko‘plab uchratish mumkin. Masalan,oyati karimaning birida Allohi Taolo falakiyat bilan bir qatorda Yerning naqadar mo‘jizali, maftunkor va sir asrorlar manbai qilib yaratilganligi, inson ularga befarq qaramasdan, aksincha tafakkur va ibrat nazari bilan qarab, ularni oqilona yondoshishi zarurligi ta’kidlangan. Mazkur oyatning ta’sirida aytiladiki, “Eru osmonning yaratilishi to‘g‘risida tafakkur qilishdan maqsad – osmon jismlarining naqadar baland, keng joylashganligi, undagi sokin va sayyora yulduzlar to‘g‘risida, Yerdagi tog‘u toshlar, sahro va dengizlar, o‘simlik, hayvonot, qazilma boyliklar va boshqa tabiat go‘zalliklari to‘g‘risida tafakkur qilishlikdan iboratdir”³².

Qur’oni Karimnin “Moida” surasini uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi oyatlarida harom o‘lgan hayvonlardan tashqari so‘yilgan chorva mollarini iste’mol qilish halol ekanligi haqida shunday deyilgan : “Sizlarga o‘laksa, qon, to‘ng‘iz go‘shti, Ollohdan boshqa birovning yo‘lida so‘yilgan narsa, bo‘g‘ilib o‘lgan, urib

³¹ Шайх Абдулазиз Мансур, Куръони Карим. – Т., Тошкент ислом университети, 2012 йил.

³² Холиков Э, Сиддиков Б, Рустамов М “Калбан уйғониш даври”, -Т., EXSTRAMUM PRESS, 2011 йил, 139 бет.

o‘ldirilgan, baland joydan qulab o‘lgan, (boshqa biron hafvon bilan) suzishib o‘lgan va yirtqich hayvon tishlab o‘ldirgan jonivorlar harom qilindi. Magar (bu jonivorlarni joni chiqmasdan turip) so‘yib yuborishga ulgurib qolgan bo‘lsangiz, haloldir. Yana butlarga atab so‘yilgan hayvonlar (go‘shtini istemol qilish) va (fol) cho‘plaridan qismatingizni so‘rashingiz (ham sizlarga harom qilinadi). Zotan bu ishlaringiz itoatsizlikdir”...³³ Tibbiyotdan ma’lumki agar hayvon harom o‘lib qoladigan bo‘lsa uning tanasida aylanib turgan qon qota boshlaydi va butun tanada go‘shtni yaroqsiz ahvolga keltiradi. Natijada u go‘shtdan istemol qilgan odamlar ham sog‘ligiga katta ziyon keltiradi.

“Ey Muhammad, mo‘minlar. Sizdan o‘zлari uchun nimalar halol qilinganligini so‘raydilar. Ayting : “Sizlar uchun barcha pokiza narsalar va yana sizlarning ta’limingizni olgan jonivorlarning – Olloh sizlarga billdirgan narsalardan bildirib qo‘lga o‘rgatgan jonivorlarning (tutib keltigan ovlari) halol qilindi. Bas, ular sizlar uchun ushlab keltirgan narsalarni yeyaveringlar va (ularni ovga qo‘yib yuborayotganlaringda) Ollohning nomini zikr qilinglar!... ””. “Bugun sizlar uchun barcha pokiza narsalar halol qilindi”³⁴.

Tabiatning muvozanati mana shu o‘lchov bilan saqlanib qolishi mumkin. Agar keragidan ortiq yomg‘ir yog‘dirip yuborsa, suv toshqini paydo bo‘lib, ekinlardan tortib turar joylargacha vayron bo‘lib ketishi, agar butunlay yomg‘ir yog‘dirmay qo‘ysa, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi ro‘y berishi mumkin emas. Axborot vositalari orqali dunyoning goh u, goh bu qismida suv toshqinlari, sel olish yoki suvsizlik hodisalarining guvohi bo‘lib turibmiz. Demak, ajoyib, go‘zal va shu bilan birga nozik qilib yaratilgan tabiatni o‘z aslicha davom ettishi avvalo yaratuvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lsa, uni suiste’mol qilmasdan, muvozanatiga xalal yetkazmay, undan oqilona foydalangan holda yashashlik bizning vazifamiz ekan.

Inson butun faoliyati davomida tabiat bag‘rida yashab, unga tasir etadi va o‘zi uchun zarur barcha nehmatlarni – oziq – ovqat, kiyim kechak, qurulish materiallari, energiya va mineral ashyolarva boshqalarni o‘z mehnat faoliyati

³³Холиков Э, Сиддиков Б, Рустамов М “Қалбан уйғониш даври”, -Т., EXSTRAMUM PRESS, 2011 йил.

³⁴ Холиков Э, Сиддиков Б, Рустамов М “Қалбан уйғониш даври”, -Т., EXSTRAMUM PRESS, 2011 йил.

natijsida tabiatdan oladi va sarflaydi. Masalan, hozir dunyo bo'yicha har xil yoqilg'ilar ishlatilishi tufayli 10,1 milliard tonna kislorod sarflanadi, qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan tuproqning 70%, o'rmonlarning 50%, chuchuk daryo suvlarining 20%, biologik resurslarning 70% i kishilar tomonidan o'zlashtirib foydalanimoqda. Bu va bundan tashqari turli omillarning hammasi insonning tabiatga ko'rsatgan tasirining natijsidir, albatta. Shunday ekan tabiatdan to'g'ri foydalanish, tabiat qonunlari bilan hisoblashish va unga rioya qilish shartdir. Aks holda inson qator salbiy oqibatlarga duch keladi.

Alloh inson zotini tabiatning bir bo'lagi qilib yaratdi. Allohning oyatlarini o'qir ekanmiz unda insonga berilgan ne'matlarning aksariyati tabiat ne'matlari orqali ifodalanganini ko'rshimiz mumkin. Jannat timsoli ham tabiatning go'zalligi orqali ifodalansa, gunohkorlarning joyi do'zax azobi ham undagi qiyonoqlar ham tabiat hodisalari orqali ifodalanganini ko'rshimiz mumkin. Olamning yaratilishida eng avvalo tabiat unsurlari yaratilsada, ularning barchasi tabiat ehtiyoji uchun xizmatda bo'lishi tahkidlanadi. Muqaddas kitobimiz Qurhoni Karimning Yosin surasi oyatlari fikrimizga asos bo'ladi:

"O'lik (qo'riq) er ular uchun qayta tirilishga alomatdir. Biz uni (suv bilan) tiriltirdik va undan (turli) donlarni undirip chiqardik. Bas, ular undan emoqdalar."

Islomda tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar, inson va tabiat muvozanati haqidagi fikrlar va qarashlar nafaqat Qur'oni karim va hadisi shariflarda balki, bevosita shular asosida o'z ilmiy faoliyatini olib borib olim bo'layotgan shayxlar va muftiylarning shu yo'nalishdagi asarlarida ham bir qator takrorlanmas va beqiyos mazmun hamda salmoqqa ega bo'lgan fikrlarni topishimiz mumkin. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning 2006 yilda chop etilgan "Imon" nomli asarining "Islomda tabiat muhofazasi" bobida, islomdagi atrof – muhitga munosabatga izchillik bilan keng ehtibor beriladi va yoritiladi. Muallifning tahkidlashicha: "Tabiatni muhofaza qilish muammosi butun olamdagи yuz minglab musulmonlarni ham Islom ulamolarini ham tashvishga solmoqda va ular bu muammolarni hal qilishda Qurhonning oyatlariga va Islom jamoatiga murojaat qilmoqdalar. Har bir musulmonga muhlumki, yaratgan olamni ajoyib aniqlik ila va

o‘zaro bog‘liq holda hamda ulardagi maxluqotlarning xususiyatlari, sifatlari,tarkiblari va odatlarini nihoyatda go‘zal qilib yaratgan. Har bir maxluq o‘zining betakror tabiatiga ega. Hamma narsalar ularning o‘ziga xos zamon va makonda hamda tartibli holatda hal qilingan.”

Biz “sof tabiat” deya tarjima qilgan ma’no arab tilida “fitrat” deyiladi. “Fitrat” so‘zi esa Alloh taolo odamlarni yaratgandagi sof tabiat, Alloh taoloning sof dini ma’nolarini anglatadi. “Fitrat sunnatlari” deganda esa tabiatni buzilmagan inson zoti shaxsiy ozodalik doirasida qilish lozim deb biladigan va Alloh taolo yuborgan haqiqiy, sof dinlarda barcha rasullarga,nabiylarga va ularning ummatlariga amr qilingan ishlar anglanadi.³⁵

Islomda insonning vujudi,kiyimi va unga xos narsalar pokligi bilan birga, uning atrofidagi barcha narsalar ham pok bo‘lishiga katta ahamiyat berilgan. Turar joy, ko‘cha – ko‘y, maydonlar, ta’lim muassasalari, masjidlar, naqliyot vositalari, dam olish joylari, hamma – hammasi pok bo‘lishi talab etiladi.

Abu Molik Ash’ariy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadiki : “Nabiy sollollohu alayhi vasallam: “Poklik iymonning yarmidir”, dedilar”. Muslim, Nasoiy va Termiziy rivoyat qilganlar.³⁶

Poklik iymonning yarmi, deyilishi bejiz emas. Bu hadis iymonsiz ibodat aslo qabul qilinmasligi va barcha savobi behuda ketishi e’tiboridan kelib chiqib aytilgan va poklik iymonning yarmiga tenglashtirilgan.

Islomda iymonning ahamiyati va qadr – qimmati qanchalik yuqori ekanini yaxshi bilamiz. Poklik iymonning yarmiga tenglashirilganidan ham Islom dini ozodalik, poklik va tozalikka qanchalar e’tibor bergenini bilib olsa bo‘laveradi.

Omir ibn Sa’ddan, u otasidan rivoyat qiladi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “ Alloh hushholdir – hushhollikni suyadi, ozodadir – ozodalikni suyadi, karamlidir – karamni suyadi, sahiydir – sahiylikni suyadi. Bas, hovlilaringizni ozoda tuting...” dedilar”.

³⁵ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф “Олам ва Одам Дин ва Илм” Т.: 2019 й146 бет..

³⁶ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф “Олам ва Одам Дин ва Илм” Т.: 2019 й147 бет..

Payg‘ambar sollollohu alayhi vasallamning “Alloh hushholdir – hushhollikni suyadi”, deganlari “ey ummatim, sizlar ham hushhol bo‘linglar”, deganlaridir. Shuningdek, Alloh taolo “ozodadir – ozodalikni suyadi”. Binobarin, musulmon kishi doimo ozoda bo‘lmog‘i darkor.

“Bas, hovlilaringizni ozoda tuting...” Hovli joylarimiz, ko‘cha – ko‘ylarimiz, turar joy va maydonlarimiz, hamma joyimizni ozoda tutishiimiz lozim. Toki ko‘rgan odam havas qilsin. Boshqalar ozoda joyni ko‘rganda , bu joy musulmonlarni joyi ekan deydigan bo‘lsin.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi : “Nabiy sallollohu alayhi vasallam dedilar: “Iymon yetmish nechta yoki oltmishe nechta shu’badan iboratdir. Uning eng afzali “La ilaha illalloh”,deyish va eng kichigi – yo‘llardagi ozor beradigan narsalarni olib tashlash”. Buxoriy, muslim,Abu Dovud, Termiziy va Nasoiy rivoyat qiladilar.³⁷

Alloh taolo “Qasas” surasida marhamat qiladi : “Va Allah senga bergen narsa bilan oxiratni izlagin, bu dunyodagi nasibangni ham unutma. Allah senga yaxshilik qilganidek, sen ham yaxshilik qil” (77 oyat). Islom musulmonlarga turli ziynatlar va manfaat, lazzat ato qiluvchi narsalardan oqilona foydalanishga ruxsat bergen. Allah taolo A’rof surasida shunday marhamat qiladi : “ Ey Odam bolalari! Har bir ibodatda ziynatingizni oling. Yeb – iching va isrof qilmang. Chunki u isrof qiluvchilarni sevmas. “Allah O‘z bandalari uchun chiqargan ziynatlarini va pokiza rizqlarini kim harom qildi ?!” deb ayt. “ Ular dunyo hayotida iymon keltirganlarga, qiyomat kunida esa faqat o‘zlariga xosdir”, deb ayt” (31-32 oyatlar.)

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, deydi shayx “Dunyodagi har bir narsa suv ham havo ham, tog‘ ham, hayvonot ham, nabobat ham, yaratgan tomonidan, o‘lchov bilan va bir - biriga bog‘liq qilib hal qiligan. Agar bu bog‘lanish, bir oz bo‘lsada buzilsa, inson uchun qator muammolar kelib chiqadi, hatto tabiat va insoniyatning halokatlariga borib etadi.” Yana shu narsa ham mahlumki, Allah xalq qilgan bu ajoyib olam insonga bo‘ysunadigan qilib berilgandir. Inson esa yer yuzidagi Allohnинг xalifasi hisoblanadi. Allah taolo insonni ulug‘lab, uni o‘zining

³⁷ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф “Олам ва Одам Дин ва Илм” Т.: 2019 й149 бет..

xalifasi qilish bilan birga, uni sinash va imtixon etishni iroda qilgan. Shuning uchun ham islom dini nuqtai nazarida, inson Allohnинг huzurida o‘zining barcha amallariga javobgardir. Bu javobgarlik Alloh taolo insonga berilgan oliy huquqlar, imtiyozlardan kelib chiqadi. Insonga bu muborak huquq va imtiyozlarni berish bilan birga, Alloh unga vahiy yuborib, mazkur ne’mat va hayratlardan o‘zi uchun va o‘zgalar uchun qanday manfaatlar olishni tahlim bergen. Alloh insonga dunyonи asrashni, uning ne’matlaridan manfaat olishni, ularni halok etmaslikni, yaxshilik yo‘lida ishlatishni va yomonlikka ishlatmaslikni buyurgan. “Ahrof” surasida: “ Va yer yuzida isloh qilinganidan keyin buzg‘unchilik qilmang” deyiladi. Ushbu oyati karimadan bilinadiki, Alloh taolo yer yuzini xalq qilib, unda insonga, yaxshi hayot o‘tkazishiga barcha sharoitlarni yaratib bergen. Suvlар va tog‘lar, hayvonotlar va nabobatlar, moddiy va ma’naviy boyliklarning barchasi mavjud. Inson esa mavjud ne’matlarni qadrlab, asrab – avaylab ularga zarar etkazmasdan, tabiatning muvozanati va jipsligini buzmasdan ulardan foydalanmog‘i lozim.

Hozirgi kunda biz insonning noto‘g‘ri aralashuvi tufayli Alloh yaratgan muvozanatning buzilgani va buning oqibatida tabiatni muhofaza qilish borasida ko‘plab muammolar kelib chiqqaniga guvoh bo‘lib turipmiz. Shuning uchun ham har bir inson, tabiatni Allohtaolo qanday xalq qilgan bo‘lsa, shundayligicha saqlab qolish uchun kurashmog‘i lozim. Insonning bu dunyodagi mas’huliyati haqida ko‘pgina hadisi shariflarda ham vorid bo‘lgan, ulardan birida Payg‘ambarimiz s.a.v.: “Bas, barchangiz mas’hulidsiz va barchangiz o‘z mas’huliyatingizdan so‘ralursiz”, deganlar. Bu qisqa so‘zlarda keng mahno bor bo‘lib, ular insonlarning yuqorida zikr qilingan vazifasini hamdaeryuzida tinchlik va omonlik bo‘lishi uchun Allohnинг oldidagi mas’huliyatini o‘zida mujassamlashtirgandir. Alloh yaratgan narsalarni halok etib, yo‘q qilayotganlarni esa islom “fasodchilar” deb ataydi.

Islom olamida har kuni besh mahal o‘qiladigan namozlardan tashqari o‘n beshta nafl namozlari mavjud bo‘lib, shularan to‘rttasi tabiat hodisalari va ularning insonlarga zarar yetkazmasliklari uchun o‘qilgan. Jumladan, Istisqo namozi – Olloh Taolodan ekinlar, chorvalar uchun yomg‘ir so‘rab o‘qiladigan ikki

rakatli nafl namozi bo‘lib, namozni o‘qish uchun shaxar musulmonlari jam bo‘lib, sahroga chiqadilar. Yosh bolalarni, hayvonlarni va kambag‘allarni ojizlik holatida olib chiqadilar, faqirlarga sadaqa beradilar. Sahroga chiqqanlar tahoratli holda imomga qarab turadilar. Imom haloyiqqa va’z nasihatlar qilib, xaloyiqni gunohlaridan poklanish uchun tavba va isig‘for aytishga chaqiradi. Xalqimiz sevgan ulamo shayx xazratlari Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf aytganlaridek : tabiatni muhofaza qilish muammosi butun olamdagি yuz minglab musulmonlarni ham Islom ulamolari ham tashvishga solmoqda va ular bu muammolarni hal qilishda Qur’onning oyatlariga va Islom jamoatiga murojaat qilmoqdalar.

BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Qur’oni Karimda aytilishicha, Alloh toalo o‘zining qudrati bilan olamni aniq bir reja asosida bunyod qildi. U to‘qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi, ko‘kni tun va kun bilan yaraqlatib, uni quyosh va yulduz bilan bezadi, osmonn betinim harakat qilishga bo‘ysundirdi. Yer yuzini yomg‘ir bilan yuvdi, natijada chang va chirk undan tozalandi. Quruqlikni, tog‘larni, dengizlarni, suvda mavjud bo‘lgan jonivorlarni, qurt – qumursqalarni, qir – adirlardagi qushlarni yaratib o‘zining qudratini ko‘rsatdi. Alloh inson zotini tabiatning bir bo‘lagi qilib yaratdi. Allohnинг oyatlarini o‘qir ekanmiz unda insonga berilgan ne’matlarning aksariyati tabiat ne’matlari orqali ifodalanganini ko‘rshimiz mumkin. Jannat timsoli ham tabiatning go‘zalligi orqali ifodalansa, gunohkorlarning joyi do‘zax azobi ham undagi qiyonoqlar ham tabiat hodisalari orqali ifodalanganini ko‘rshimiz mumkin. Olamning yaratilishida eng avvalo tabiat unsurlari yaratilsada, ularning barchasi tabiat ehtiyoji uchun xizmatda bo‘lishi tahkidlanadi. Hozirgi kunda biz insonning noto‘g‘ri aralashuvi tufayli Alloh yaratgan muvozanatning buzilgani va buning oqibatida tabiatni muhofaza qilish borasida ko‘plab muammolar kelib chiqqaniga guvoh bo‘lib turimpiz. Shuning uchun ham har bir inson, tabiatni Allohtaolo qanday xalq qilgan bo‘lsa, shundayligicha saqlab qolish uchun kurashmog‘i lozim. Insonning bu dunyodagi mas’huliyati haqida ko‘pgina hadisi shariflarda ham vorid bo‘lgan, ulardan birida Payg‘ambarimiz s.a.v.: “Bas, barchangiz mas’uldirsiz va barchangiz o‘z mas’uliyatingizdan so‘ralursiz”, deganlar. Bu qisqa so‘zlarda keng ma’no bor bo‘lib, ular insonlarning yuqorida zikr qilingan vazifasini hamda yer yuzida tinchlik va omonlik bo‘lishi uchun Allohnинг oldidagi mas’uliyatini o‘zida mujassamlashtirgandir. Alloh yaratgan narsalarni halok etib, yo‘q qilayotganlarni esa islom “fasodchilar” deb ataydi. Shunday ekan har kim o‘zini fasodchi bo‘lishdan saqlagan holda kelajak avlodi uchun bugundan harakatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymog‘i lozim.

II-bob. TABIAT VA JAMIYAT MUTANOSIBLIGINI TAMINLASHDA MA’NAVIYAT OMILI: MAVJUD IMKONIYATLAR, ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR

2.1. Mamlakatimizda mustaqillikkacha bo‘lgan ekologik vaziyat, uning ayanchli oqibatlari

Inson va tabiat, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanat, mintaqamizdagi ekologik vaziyat va undan o‘z boshimchalik bilan foydalanish to‘g‘risida, “Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi alohida ehtiborga molikdir. Ochiq etirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski mahmuriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug‘ullanilmagan. Aniqrog‘i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o‘z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa "qalb nidosi" bo‘lib kelgan”³⁸- deb o‘z vaqtida aniq va to‘g‘ri qadamni qo‘ya olgan birinchi Prezidentimiz.

Biroq ularning vijdonga, fuqarolik burchiga, nihoyat, aql-idrokka davatlari to‘ralashib ketgan sovet-partiya amaldorlarining sovuq, hatto aytish mumkinki, surbetlarcha loqaydligiga duch kelavergan. Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralaridan vahshiyarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslangan sotsialistik xo‘jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo‘lish g‘oyasi butunlay yot edi. Aksincha, boyliklardan bunday foydalanish ikki tuzumning iqtisodiy musobaqasida mamlakatning asosiy dastagi, eksport imkoniyatlarining negizi bo‘lib keldi. Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bosh maqsad ekstensiv omillarga qaratilgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda yashirin boyliklardan oqilona foydalanishni tartibga soladigan, tabiatning, atrof muhitning himoya qilinishini

³⁸ И.Каримов “Ўзбекистон XXI – аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.” Т.: 1997 йил 105 бет.

kafolatlaydigan biron-bir meyorlar va qoidalarga rioya qilish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag‘ ajratilardi. Bu mablag‘ tabiatga yetkazilayotgan zararning mingdan bir qismini ham qoplamas edi. O‘rmonlar o‘ylamay-netmay, vahshiyarcha kesib tashlanar edi. Yoqilg‘i va mineral-xom ashyo zaxiralari real ehtiyoj bilan taqqoslanmagan holda juda ko‘p miqdorda qazib olingenidan ko‘pchilik qismi qayta ishlanmagan chiqitlar sifatida uyulib yotar edi.

Bu muammo so‘nggi yillarda yanada keskinlashdi. MDH ga azo bo‘lgan bir qancha mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga betartib suratda o‘tishi, tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralaridan foydalanishda boshqaruvning barham topgani, nazorat qilinmaganligi natijasida ular tashib ketila boshlandi. Vahshiyarcha qazib olindi va arzon narxlarda eksport qilindi. Ayrim "yangi boyvachchalar" deb ataluvchi va korrupsiya domiga ilingan butun-butun guruhlar uchun qo‘sishimcha foyda olish manbaiga aylandi³⁹. Shu bilan birga, ular o‘zlarining ochko‘z manfaatlari yo‘lida hozirgi va kelgusi avlodlarning ekologik xavfsizligini, salomatligi va farovonligini qurbon qilmoqdalar. Benihoya ulkan moddiy boyliklar, insoniyatning noyob yutuqlari vijdonsizlarcha o‘g‘irlab ketilmoqda, yo‘q qilib tashlanmoqda. Bu bilan butun atrof muhitga ham juda katta zarar yetmoqda, iqlim buzilmoqda.

Eng yomoni esa bir necha avlod kishilarining tabiiy hayot va faoliyat sharoitlariga putur etmoqda. Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko‘plar ushbu muammoga beparvolik va mas’huliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lmoqdalar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiyligi muammosiga aylangan. Tabiat va inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi. Bu

³⁹ П.Фуломов “Инсон ва табиат” “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” ДУК, 2009 шй 28 бет

qonuniyatlarni buzish o‘nglab bo‘lmas ekologik falokatlarga olib keladi. Bu xavfni ancha kech, 70-yillarning boshlaridagina anglay boshladik. O‘shanda mazkur masala dunyo miqyosidagi taraqqiyotga bag‘ishlangan dastlabki g‘arb modellarida keskin qilib qo‘yilgan edi. Bu hol bamisoli "bomba portlaganday" tasir etdi. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof muhitga inson faoliyati tufayli etkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi⁴⁰.

Insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarni hisobga olmay, jadal yuritilgan xo‘jalik faoliyati, Rim klubining "XXI asr yo‘li" deb atalmish tadqiqotlaridan birida ko‘rsatib o‘tilganidek, Yer yuzida tuproq nurashi, o‘rmonlardan mahrum bo‘lish, baliqlarning haddan tashqari ko‘p ovlanishi, tuzli yomg‘irlar, atmosfera ifloslanishi, ozon qatlami buzilishi va hokazolarning ro‘y berishiga olib keldi. Mutaxassislarning baholashlaricha, 2000 yilga borib o‘rmonlar egallab turgan maydon qurug‘likning 1/6 qisminigina tashkil etadi, holbuki, 50-yillarda ular 1/4 qismni egallagan edi. Jahan okeanining suvlari halokatli ravishda ifloslanib bormoqda, uning takroriy mahsulдорлиgi keskin pasaymoqda. Jadal surhatlar bilan yuz berayotgan urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning asosiy aglomeratsiyalari eng yirik ifloslantirish manbalariga aylanib qolishiga olib keldi. Tarkibida oltingugurt qo‘sh oksidi va azot oksidi bo‘lgan tuzli yomg‘irlar yog‘ishi ko‘paydi. Buning natijasida butun dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog‘liq turli-tuman kasalliklar soni ortib bormoqda.

Beto‘xtov davom etayotgan qurollanish poygasi, atom, kimyoviy qurollar va ommaviy qirg‘in qurollarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, saqlash va sinash insoniyat yashaydigan muhit uchun juda katta xavfdir.

Ekologiya muammosi Yer yuzining hamma burchaklarida ham dolzarb. Faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida va mintaqalarida turlichadir. Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatning G‘oyat xavfli

⁴⁰ П.Фуломов “Инсон ва табиат” “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси ” ДУК, 2009 шй 28 бет

zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o'n yilliklar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xatar ostida qolganligi natijasida kelib chiqqandir. Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. Inson - tabiatning xo'jayini, degan soxta sotsialistik mafkuraviy davo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ko'plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiaga aylandi⁴¹. Ularni qirilib ketish, genofondning yo'q bo'lib ketishi yoqasiga keltirib qo'ydi. Afsuski, bu jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Bu erda, mutaxassislarning baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimadan iborat?

Birinchidan, Yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf to'xtovsiz ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitida Yer Alloh taoloning bebaho inomidir. U tom manoda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dexqonchilik bilan bog'langan oilalarnigina emas, balki malum bir tarzda qishloq xo'jaligi bilan aloqador barcha tarmoqlar va uning nematlaridan bahramand bo'layotgan respublikaning barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Ayni vaqtda Yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O'zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki Yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Respublikaning 447,4 ming kvadrat kilometrdan ortiq bo'lgan umumiyligi maydonining atigi 10 foizinigina ekin maydonlari tashkil etadi. Ayni chog'da O'zbekiston egallab turgan maydonning ancha qismini Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt kabi cho'l va yarim cho'l erlar tashkil etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanilayotgan yer maydonlariga to'g'ri keladigan demografik

⁴¹ П.Фуломов "Инсон ва табиат" "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" ДУК, 2009 ций 28 бет

yuk hozirning o‘zidayoq o‘ta salmoqli. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistonda aholining zichligi ayniqsa yuqori bo‘lib, 1 kvadrat kilometrga 51,4 kishi to‘g‘ri keladi, holbuki, bu raqam Qozog‘istonda - 6,1, Qирг‘изистонда - 22,7, Turkmanistonda - 9,4 ni tashkil etadi. Respublikamizda har bir odamga 0,17 hektar ekin maydoni to‘g‘ri kelsa, Qozog‘istonda - 1,54, Qирг‘изистонда - 0,26, Ukrainada - 0,59, Rossiyada 0,67 hektar ekin maydoni to‘g‘ri keladi. Barcha aholining yarmidan ko‘prog‘i qishloq joylarda yashayotganligini hisobga olsak, dadil aytish mumkinki, bizning qishloqlarimizda insoniy zaxiralarning nisbiy ortiqligi emas, balki mutlaq ortiqligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bizda aholining o‘sishi nisbatan yuqori bo‘lib, urbanizatsiya va hosildor erlarni shaharlarni rivojlantirishga, uy-joy qurilishiga, yangi korxonalar, muhandislik hamda transport kommunikatsiyalari tarmog‘ini barpo etishga ajratib berish jarayonlari jadal bormoqda. Shuni hisobga olsak, yaqin yillar ichida, hatto XXI asr arafasidayoq yer zaxiralari bilan taminlanish muammosi yanada keskinlashishi mumkin. XX asr oxirida erlarning tabiiy ravishda cho‘lga aylanishi yuqori darajada borayotganligi yetmaganidek, odamlarning munosabati tufayli cho‘lga aylanib borish jarayoni shitob bilan davom etayotganligi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda.

Ayni chog‘da tabiiy muhitning yomonlashuvi bilan birga, tuproq nurashi, sho‘rlanishi, yerusti va yerosti suvlarining sathi pasayishi va boshqa hodisalar ro‘y bermoqda. Ilgari nurashga qarshi chora-tadbirlar yaxshi olib borilmaganligi tufayli shamol va suv tasirida emirilish tuproqning unumdorligiga salbiy tasir ko‘rsatmoqda. Bu chora-tadbirlar juda past suratlarda va sifatsiz olib borilgan. Hatto 80-yillarning oxirida amalda butunlay to‘xtatib qo‘yilgan edi. Respublikada 2 million gektardan ortiq yer maydoni yoki barcha sug‘oriladigan yerlarning qariyb yarmi buzilish xavfi ostida qolgan⁴².

Yerlarning nihoyat darajada sho‘rlanganligi O‘zbekiston uchun ulkan ekologik muammodir. Yerlarni ommaviy suratda o‘zlashtirish, hatto

⁴² И.Каримов “Ўзбекистон XXI – аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.” Т.: 1997 йил 105 бет.

sho‘rlangan va melioratsiyaga yaroqsiz yirik-yirik, yaxlit maydonlarni ishga solish ana shunga olib keldi. So‘nggi 50 yil mobaynida sug‘oriladigan yer maydoni 2,46 million gektardan 4,28 million gektarga etdi. Faqat 1975 - 1985 yillar mobaynida 1 million gektarga yaqin yangi yer maydonlari o‘zlashtirildi. 1990 yilga kelib sug‘oriladigan yer maydoni 1985 yildagiga qaraganda 1,5 baravar ko‘paydi. Ekin maydonlari tarkibida so‘nggi vaqtarga (1990 yilga) qadar paxta deyarli 75 foiz maydonni egallagan edi. Dunyoning birorta ham mamlakatida paxta monopoliyasi bu qadar yuqori darajaga ko‘tarilmagandi. Bu hol Yerning kuchsizlanishiga, tuproq unumdorligi pasayishiga, uning suv-fizikaviy xossalari yomonlashuviga, tuproqning buzilishi va nurashi jarayonlari ortishiga olib keldi.

O‘zbekistonda noorganik mineral o‘g‘itlar, gerbitsidlar va pestitsidlarning qo‘llanishi eng yuqori normalardan ham o‘nlab baravar ortiq edi. Ular tuprojni, daryo, ko‘l, yer osti va ichimlik suvlarini ifloslantirdi. Bundan tashqari, yangi yerlardan foydalanishda zarur texnologiyalarga rioya qilinmadni. Hamma joyda paxta nazoratsiz sug‘orildi. Tuproqning nami ko‘payib ketdi. Bu esa uning qayta sho‘rlanishiga olib keldi. Tuproqning har xil sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan shiddatli tarzda ifloslanishi real tahdid tug‘dirmoqda. Turli kimyoviy vositalar, zargarli moddalar va mineral o‘g‘itlarni, sanoat va qurilish materiallarini saqlash, tashish va ulardan foydalanish qoidalarining qo‘pol ravishda buzilishi Yerning ifloslanishiga olib kelmoqda.

Undan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Foydali qazilmalarni jadal qazib olish, ko‘pincha ularni qayta ishlashning texnologik sxemalari nomukammalligi ko‘p miqdorda ag‘darmalar, kul, shlak va boshqa moddalar to‘planib qolishiga olib kelmoqda. Bular dexqonchilik uchun yaroqli bo‘lgan yerlarni egallabgina qolmay, balki tuproqni, yer usti va yer osti suvlarini, atmosfera havosini ifloslantirish manbalariga ham aylanmoqda. Respublikada zaharli chiqindilardan foydalanish sanoati esa hozircha yaratilgan emas.

O‘zbekiston hududida qattiq maishiy chiqindilar tashlanadigan 230 dan ortiq shahar va qishloq axlatxonalari mavjud. Ularda taxminan 30 million kub

metr axlat to‘planadi. Ular asosan stixiyali ravishda, jo‘g‘rofiy, geologik-gidrogeologik va boshqa shart-sharoitlarni kompleks o‘rganmay turib tashkil etilgan. Ularda qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirish va ko‘mib tashlash ibridoiy usullar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, respublikaning yirik shaharlarida maishiy chiqindilarni ishlatish va zararsizlantirish sohasida murakkab vaziyat vujudga kelgan. Respublikada hali-hanuz maishiy chiqindilarni sanoat usulida qayta ishlash masalasi hal qilinmagan. Yagona Toshkent maishiy chiqindilar tajriba zavodi 1991 yildagina ishlay boshladи⁴³.

Radioaktiv ifloslanish, ayniqsa, katta xavf tug‘dirmoqda. Moylisuv (Qirg‘iziston) daryosining qirg‘oqlari yoqasida 1944 yildan to 1964 yilgacha uran rudasini qayta ishlash chiqindilari ko‘milgan. Hozirgi vaqtida qoldiqlar saqlanadigan 23 ta joy mavjud. Bu erlarda selni to‘sadigan to‘g‘onlarni mahkamlash hamda ko‘chki xavfi bo‘lgan joylardagi qiyaliklarning mustahkamligini taminlash lozim. Navoiy viloyatidagi qoldiqlar saqlanadigan joy ham ekologik jihatdan xavfli ifloslantirish o‘chog‘i hisoblanadi. Bu erdagи radioaktiv qumni shamol uchirishi xavfi bor.

Shu sababli O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilishdagi g‘oyat muhim vazifa erlarning holatini yaxshilashdan, tuproqning ifloslanishini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishdan iborat. Bu o‘rinda gap eng avvalo tabiiy zaxiralardan foydalanishni tubdan yaxshilash haqida bormoqda. **Ikkinchidan**, O‘zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan qaraganda, suv zaxiralarining, shu jumladan yerusti va yerosti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug‘dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyati tasiriga uchramoqda.

Sug‘oriladigan hududlarda suv tabiatning bebahо inomidir. Butun hayot suv bilan bog‘liq. Zotan, suv tamom bo‘lgan joyda hayot ham tugaydi. Shunday bo‘lsada, Markaziy Osiyoda suv zaxiralari juda cheklangan. Yiliga

⁴³ П.Фуломов “Инсон ва табиат” “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” ДУК, 2009 цй 28 бет

78 kub kilometr suv keltiradigan Amudaryo va 36 kub kilometr suv keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbalaridir. Hozirgi vaqtida xalq xo‘jaligida Orol dengizi havzasining barcha suv zaxiralaridan to‘la-to‘kis foydalanilmoqda. Daryolar oqimi asosan Qирғизистон va Тоҷикистон tog‘laridan boshlanadi. Suv zaxiralarining ko‘philik qismidan Markaziy Osiyodagi barcha respublikalarning erlarini sug‘orish uchun foydalaniлади. Shu munosabat bilan mintaqadagi barcha davlatlarning manfaatlari yo‘lida hamda ekologiya talablarini, daryolar deltalarida va Orol dengizida maqbul hayotiy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bu erlarga suvning o‘tishini taminlash zarur. Shu bilan birga Orol dengizi havzasining cheklangan suv zaxiralarini birgalashib, kelishgan holda boshqarish muammosini amaliy hal qilish talab etiladi.

Mintaqaning yana bir muammosi suvni muhofaza qilish va tejash tadbirlari majmuini amalga oshirish zaruriyati bilan bog‘liqdir. Bu tadbirlar suvning isrof bo‘lishini eng kam darajaga keltirish maqsadida sug‘orish tarmog‘ining rejimi va o‘lchamlarini sug‘orish texnikasi bilan mustahkam bog‘lashni o‘z ichiga oladi. Endilikda kollektor-zovur suvlarini tashlab yuborishni tartibga solish, oqava suvlarni daryo va suv omborlariga oqizishni batamom to‘xtatish zarur.

Suv zaxiralarining sifati eng muhim muammolardan biridir. 60-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda yangi erlar keng ko‘lamda o‘zlashtirildi. Sanoat, chorvachilik komplekslari ekstensiv rivojlantirildi. Urbanizatsiya kuchaydi. Kollektor-zovur tizimlari qurildi hamda daryo suvlarini sug‘orish uchun muttasil yuqori hajmlarda olindi. Shu bois havzalardagi suvning sifati tobora yomonlasha bordi. Daryo suvlarining ifloslanishi ekologiya-gigiena va sanitariya-epidemioliyasi vaziyatini, ayniqsa, daryolarning quyi oqimlarida yomonlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, daryo suvlarini tarkibida tuzlarning mavjudligi Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa daryolarning deltalarida tuproqning sho‘rlanishini kuchaytirmoqda. Bu esa qo‘sishimcha melioratsiya ishlarini amalga oshirishda, zovur tizimlarini barpo etish va tuproq sho‘rini yuvishda yaqqol sezilmoqda.

O‘zbekiston va qo‘shti mintaqalar sharoitida aholini sifatli ichimlik suvi bilan taminlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi punktlarini odatdagi vodoprovod suvi bilan taminlash ko‘rsatkichi respublikada faqat keyingi bsh yillikning o‘zida taxminan 1,5 baravar ortdi. Shunga qaramay, ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Ichimlik suv tahminoti manbalarining ifloslanishi respublikada, ayniqsa, Orol bo‘yida kasallikka chalinishning yuqori darajasiga sabab bo‘lmoqda⁴⁴.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi G‘oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo‘lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Lekin bu muammo so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun hududi bo‘ylab sug‘orish tizimlarini jadal suratda qurish ko‘plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko‘lamdagи fofia - Orol halok bo‘lishining sababiga ham aylandi. Yaqin-yaqinlargacha cho‘lu sahrolardan tortib olingan va sug‘orilgan yangi erlar haqida dabdaba bilan so‘zlanardi. Ayni chog‘da ana shu suv Oroldan tortib olinganligi, uni "jonsizlantirib qo‘yilganligi" xayolga kelmasdi. Endilikda Orolbo‘yi ekologik kulfat hududiga aylandi. Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojalardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning tasirida qoldi.

Biz 20-25 yil mobaynida jahondagi eng yirik yopiq suv havzalaridan birining yo‘qolib borishiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Biroq bir avlodning ko‘z o‘ngida butun bir dengiz halok bo‘lgan hol hali ro‘y bergen emas edi. 1911-1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqtada bo‘lib, 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 kub kilometrni, suvning yuzasi 66 ming kvadrat kilometrni va minerallashuv darjasini bir litr suvda 10-11 grammni tashkil etgan edi. Dengiz transport, baliq xo‘jaligi, iqlim sharoiti jihatidan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 kub kilometr suv kelib quyilar edi. 1994 yilga kelib Orol dengizidagi suvning sathi - 32,5 metrga, suv hajmi - 400 kub

⁴⁴ И.Каримов “Ўзбекистон XXI – аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.” Т.: 1997 йил 105 бет.

kilometrdan kamroqqa, suv yuzasining maydoni esa 32,5 ming kvadrat kilometrga tushib qoldi, suvning minerallashuvi ikki baravar ortdi.

Orolning sathi 20 metr pasayishi natijasida u endi yaxlit dengiz emas, balki ikkita qoldiq ko‘lga aylanib qoldi. Uning sohillari 60-80 kilometrga chekindi. Amudaryo bilan Sirdaryoning deltalar jadal sur’atlar bilan buzilib bormoqda. Dengizning suv qochgan tubi 4 million gektardan ortiqroq maydonda ko‘rinib qoldi. Natijada yana bitta "qo‘lbola" qumli-sho‘rxok sahroga ega bo‘ldik. Shamol Orol dengizining qurib qolgan tubidan tuz va chang-to‘zanni yuzlab kilometrga uchirib ketmoqda.

Orolning qurib qolgan tubidagi chang bo‘ronlari 1975 yildayoq kosmik tadqiqotlar natijasida aniqlangan edi. 80-yillarning boshlaridan buyon bunday to‘fonlar bir yilda 90 kun davomida kuzatilmoqda. Chang-to‘zon uzunligi 400 kilometr va eni 40 kilometr maydonga etib bormoqda. Chang bo‘ronlarining tasir doirasi esa 300 kilometrgacha etmoqda. Mutaxassislar bergen ma’lumotlarga qaraganda, bu erda har yili atmosferaga 15-75 million tonna chang ko‘tariladi. Bularning hammasi Orol bo‘yi iqlimining o‘zgarishiga olib keldi. 1983 yildan boshlab Orol baliq ovlashga yaroqsiz bo‘lib qoldi. Sohilning hozirgi chizig‘idan yiroqlarda bo‘lgan baliqchilarining qachonlardir qudratli flotiliyasining zang bosgan qoldiqlarini, vayronaga aylangan baliqchilar posyolkalarini uchratish mumkin. Bo‘zko‘l, Oltinko‘l, Qaratma ko‘rfazlari yo‘qoldi. Akpetki arxipelagi qurug‘lik bilan qo‘silib ketdi. Yaylovlar va o‘tloqlar yo‘qolib bormoqda. O‘udud botqoqqa aylanmoqda. Suvning tobora taqchillashib borayotganligi va sifati yomonlashayotganligi tuproq va o‘simplik qatlaming buzilishiga, o‘simplik va hayvonot dunyosida o‘zgarishlar yuz berishiga, shuningdek, sug‘orma dexqonchilik samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli Orolbo‘yi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi ekologik fofia sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo‘ronlarining paydo bo‘lishi, faqat Orol bo‘yida emas, balki dengizdan ancha naridagi bepoyon hududlarda yerlarning cho‘lga aylanishi, iqlim

va landshaftning o‘zgarishi - bular ana shu fofia oqibatlarining to‘liq bo‘lmagan ro‘yxatidir.

Orol fojiasini 70-yillarning boshlarida, juda kechi bilan 80-yillarning boshlarida, dengizning sathi unchalik pasaymagan bir paytda idora qilish mumkin edi. Hozirgi vaqtida uni boshqarish juda murakkab bo‘lib qoldi. Keyinchalik esa bu jarayon yana ham mushkullashadi yoki umuman boshqarib bo‘lmaydigan holga keladi. Orol bo‘yida dengizning qurib borishi munosabati bilan xalqaro, keng ko‘lamli ahamiyatga molik bo‘lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi.

Orol dengizining qurib borishi va mintaqaning cho‘lga aylanishi bilan bog‘liq ekologik fofia bu havzada yashayotgan barcha xalqlarning dardu alamidir. Suv zaxiralari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar majmuasi keng ko‘lamli va murakkab ko‘p tarmoqli yondashuvni, mintaqadagi davlatlar bilan xalqaro hamjamiyat o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishni talab qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining 1993 yil mart oyida Qizilo‘rdada bo‘lib o‘tgan uchrashuvi ana shu muammolarni hal qilish yo‘lidagi turtki bo‘ldi. Bu uchrashuvda Orol dengizi tangligini hal etish yuzasidan birqalikda harakat qilish to‘g‘risida Bitim imzolandi. Orol dengizi muammolari bo‘yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi - Ijroiya Qo‘mitasi, shuningdek, Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi⁴⁵.

Markaziy Osiyo respublikalari davlat boshliqlarining 1994 yil yanvarida Nukus shahrida bo‘lib o‘tgan ikkinchi uchrashuvida Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin uch - besh yilga mo‘ljallangan, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq harakatlar dasturi tasdiqlandi. 1994 yil mart oyida Toshhovuzda bo‘lgan uchinchi uchrashuvda Davlatlararo Kengashning ushbu dasturning bajarilishi haqidagi hisoboti tinglandi. 1997 yil fevralda Markaziy Osiyodagi besh davlat boshliqlarining BMT, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida Almatida

⁴⁵ И.Каримов “Ўзбекистон XXI – аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.”Т.: 1997 йил 105 бет.

bo‘lib o‘tgan uchrashuvida Orol muammosini hal etish bo‘yicha tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi - Orolni qutqarish Xalqaro fondining ancha ishchan tarkibi va uning negizida harakatchan Ijroiya qo‘mitasi tuzildi⁴⁶.

Orol muammosining butun keskinligini, uni saqlab qolish yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar ko‘rish zarurligini tushungan holda, Markaziy Osiyo respublikalarining hukumatlari, mutaxassislari va mintaqaning ilmiy jamoatchiligi, xalqaro tashkilotlari 1995 yil 20 sentyabrda Nukus shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammolari bo‘yicha Deklaratsiyasini qabul qildilar. Deklaratsiya barqaror rivojlanish qoidalariga qathiy amal qilishni nazarda tutadi va ehtiborni quyidagi g‘oyat muhim muammolarni hal qilishga qaratadi:

- qishloq va o‘rmon xo‘jaligining yanada muvozanatli va ilmiy asoslangan tizimiga o‘tish;
- suv zaxiralaridan foydalanishning tejamli usullarini ishlab chiqish, sug‘orishda va atrof muhitni muhofaza qilishda takomillashgan texnologiyalarni qo‘llash vositasida irrigatsiyaning samaradorligini oshirish;
- mintaqaning tabiiy zaxiralarini kompleks boshqarish tizimini takomillashtirish.

Pirovard natijada Orol tangligini barqaror rivojlanish, bu mintaqada yashayotgan odamlarning turmush darajasi pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, keljakda yosh avlod uchun munosib turmushni tahminlash tamoyillari asosida hal qilish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya va dasturni ishlab chiqish hamda ro‘yogha chiqarish zarur.

To‘rtinchidan, havo bo‘shlig‘ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahliddir. Mutaxassislarning ma’lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 million tonnaga yaqin zararli moddalar qo‘shilmoqda. Shularning yarmi uglerod oksidiga to‘g‘ri

⁴⁶ И.Каримов “Ўзбекистон XXI – аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари.” Т.: 1997 йил 105 бет.

keladi, 15 foizini uglevodorod chiqindilari, 14 foizini oltingugurt qo'sh oksidi, 9 foizini azot oksidi, 8 foizini qattiq moddalar tashkil etadi va 4 foizga yaqini o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi. Atmosferada uglerod yig'indisining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko'lamdag'i issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda Yerhavosining o'rtacha harorati ortib ketadi.

Arid mintaqasida joylashgan O'zbekiston Respublikasida tez-tez chang bo'ronlarini qo'zg'atib turuvchi, atmosferani chang-to'zonga chulg'aguvchi Qoraqum va Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbalar mavjud. So'nggi o'n yilliklar mobaynida Orol dengizining qurib borishi tufayli chang va tuz ko'chadigan yana bir tabiiy manba paydo bo'ldi.

80-yillarning boshlarida qo'shni Tojikistonda alyumin zavodi ishga tushirilishi munosabati bilan O'zbekistonning Surxondaryo viloyatiga qarashli ko'plab tumanlarida ekologik jihatdan tang ahvol vujudga keldi. Zavod atmosferaga ko'p miqdorda ftorli vodorod, uglerod oksidi, oltingugurt gazi, azot oksidlarini chiqarib tashlamoqda. Vodiyning yuqori qismida, Tojikistonning O'zbekiston bilan chegarasida joylashgan zavodning chiqindilari tog'dan vodiy tomonga esadigan shamol bilan undan uzoqlarga, asosan respublikanieng chgaradosh tumanlari - Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy tumanlari hududiga tarqalmoqda.

Ekologiyaga solinayotgan xavf O'zbekiston uchun, umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish masalalariga juda katta etibor bermoqda. Atrof muhitni muhofaza qilishni taminlashga qaratilgan qonun hujjalari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish borasidagi milliy tadbirlari boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik qilish ishi bilan qo'shib olib borilmoqda. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab xilma-xil xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi.

O‘zbekiston MDHdavlat boshliqlarining 1992 yil 8 fevralda imzolangan Bitimiga muvofiq tuzilgan MDH mamlakatlari Davlatlararo Ekologiya Kengashining to‘la huquqli azosidir. MDH mamlakatlarining ana shu ekologiya Kengashi doirasidagi hamkorligi azo davlatlarning atrof muhitni muhofaza qilish sohasida kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan say-harakatlar qilish maqsadini ko‘zlaydi.

Hozirgi paytda respublikada istiqbolga, ya’ni atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish bo‘yicha 2005 yilgacha mo‘ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda respublikada ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish, yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalari kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo‘llari belgilangan.

Tarixdan malumki, O‘rta Osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari- daryo va anhorlar bo‘yida yashab kelganlar. Atrofi cho‘l va sahrolar bilan o‘ralgan, iqlimi g‘oyat murakkab bo‘lgan mintaqaga sharoitining o‘zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir – biriga moslashib, yaqin elkadosh bo‘lib, bir –birining og‘irini engil qilib yashashini taqozo qilib keladi.

Chindan ham, bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo‘lib yashashga imkoniy yo‘q, tabiatning o‘zi, hayotning o‘zi ularni shu ruhda tarbiyalagan. Turmush va tafakkur tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan mana shunday azaliy tushunchalar mintaqamizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar, mutafakkir zotlarning qoldirgan beباho merosida ham o‘zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, AlisherNavoiy bobomiz bo‘ladimi, Rudakiy,Abay,Mahtumquli yoki To‘qtag‘ul kabi ulug‘ zotlar bo‘ladimi ularning barchasi o‘z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig‘idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr oqibatli, do‘s- birodar bo‘lib yashashga dahvat etgani bejiz emas, albatta.

Ota – bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepayon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday ezgu qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham,

tahbir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni butun O‘rtal Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga davat etmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, tarixiy voqelikka mana shunday qarash, jamuljam bo‘lib yashash tuyg‘usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog‘i, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo‘lsak, bu milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadigan, bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir xususiyatki, uni sezmaslik, anglamaslik, ko‘rmaslik umuman mumkin emas.⁴⁷

Odamzot koinotning gultoji, Allohning bandasi sifatida ilk paydo bo‘lgan davrdan, to hozirga qadar tabiatga tasir qilib, unga o‘z tasirini o‘tkazib, bu tasirni bora – bora kuchaytirib, alal oqibatda tabiatni batamom o‘zgartirib yubordi. Keyingi ming yilliklar davomida insoniyat tabiatga faol aralashishi oqibatida Yer shari zasi,iqlimi, o‘simgi, hayvonot dunyosining tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketganligi bunga misolbo‘la oladi. “Dunyo tarixida ilk dafha inson faoliyati hayotining eng zarur sarchashmalarining buzulishi va emirilishiga sabab bo‘lmoqda. Inson ehtiyoji va texnologik taraqqiyoti doimiy ravishda o‘sib borayotgan inson faoliyatining qaqshatqich zarbasi bo‘lib, bizning biosferamizga o‘zining salbiy tasirini ko‘rsatmoqda”⁴⁸.

Tabiatda barcha tabiiy komponent va komplekslar bir – biri bilan o‘zaro muvozanatda bo‘ladi. Har bir tabiiy chegaralangan hududda tabiiy relef, yerosti va yerusti suvlari, iqlim, tuproq, o‘simgi va hayvonot dunyosi o‘zaro aloqada, bog‘liqlikda bo‘ladi va rivojlanadi. Chunki tabiat mintaqalarining u yoki bu joylarida har bir relef turi va shakliga (ularga mos ravishda mahlum tog‘ jinslari to‘g‘ri kelgan holda) mahlum iqlim turi va sharoiti, yerosti va yerusti suvlari rejimi, tuproq, o‘simgi va hayvonot dunyosining aniq turlari mos keladi. Boshqacha aytganda, barcha komponentlar har hududda bir – biri bilan o‘ziga mos moslashuv va aloqadorlik vujudga keltirgan va shu zaylda bir necha yuz ming

⁴⁷ И.Каримов “Юксак маънавият – енгилмас куч”. Т. Маънавият. 2008 й.9-10 бетлар.

⁴⁸ Ф.Маёр. Келажак хотираси. Т.Ўзбекистон.1996, 135-136 бетлар.

yillardan beri tarqqiy etib kelmoqda. Binobarin, tabiat komponentlari orasida tabiiy muvozanat mavjudligi sababli har bir joy yoki hudud mahlum yo‘nalishda rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadi.

Tabiatda odatda ikki gurux komponentlar, ya’ni jonli va jonsiz tabiat orasida muvozanat ustuvor ahamiyatga ega. Tirik organizm atrofdagi notirik muhit bilan aloqada bo‘lmasa, u hayot kechira olmaydi. O‘z navbatida jonsiz tabiat hamu mavjud bo‘lmasa meyorida rivojana olmaydi, chunki ular orasida yaqindan barqaror aloqa va tasir mavjudki, bu hodisa Yeryuzida tirik hayot jarayonining davom etishi uchun o‘ta zarurdir. Binobarin, ular orasida mustahkam aloqa va tasir mavjud, bu hodisa o‘ziga xos muvozanatda rivojlanadi. Muhimi, bu tabiiy hodisa buzilmasligi zarur, aks holda muhitda nomahlum hodisalar tarkib topadi va bu noxush jarayonlarning rivojlanishiga olib keladi. Buzilgan ekologik muvozanat yana avvalgi holga qaytadan tez fursatda kela olmaydi, buzilgan muvozanat uzoq muddatda turli bosqichlarni bosib o‘tadi, lekin shunda ham ilgarigi tabiiy holga qayta olmaydi.⁴⁹ Bu jarayonda yangi elementlar ishtirok etayotganligi tufayli avvalgisidan ancha farq qiladi.

Inson buzillgan ekologik muvovo‘anatni qaytadan tiklash maqsadida turli tadbirlarni qo‘llashi mumkin, biroq sunhiy ravishda tiklangan ekologik muvozanat sifat jihatidan avvalgisidan tubdan farq qiladi. Amudaryo deltasining cho‘llashishiga berilayotgan qismini ilgarigi tabiiy holga keltirish mumkin emas, chunki bunga katta hajmda daryo suvi zarur, bundan tashqari insonga shuncha maydonda botqoq va ko‘llarga hojat yo‘q, suv tanqisligi vaziyatida bekorga bug‘lanish va zaminga singishga sarf bo‘ladigan suvning sug‘orma dehkonchilik ixtiyoriga berilishi maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqqan holda, deltada maxsus loyixa asosida ekologik muvozanatni qayta tiklash lozim. Bunda meyordagi suv sarfi asosida yangi struktura negizida ekologik muvozanat tiklanadi va u ilgarigisidan suvning optimal sarflanishi bilan tubdan farq qiladi. Yangi muvozanat inson tomonidan boshqarilganligi tufayli maqsadga muvofiqligi bilan farq qiladi.

⁴⁹ Экология хабарномаси. 2011 №1, 13 бет.

Yuqoridagilardan mahlum bo‘ladiki, O‘zbekiston ning katta qismida ekologik muvozanat umuman olganda ancha nozik, joylarda qaltis darajada. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida hududning barqarorlik xususiyatlariga ehtibor berish birinchi darajali vazifadan iborat. Ekologik muvozanatni muntazam saqlab qolish uchun hududga mos keladigan tadbirlar majmuasini to‘xtovsiz qo‘llab borishga to‘g‘ri keladi.

Ekologik oqibatlar tabiatdan foydalanish xarakteriga qarab mazmunan, miqyos jihatidan va boshqa o‘lchamlari bo‘yicha turlicha bo‘lishi mumkin. Bunda birinchi guruhidagi oqibatlardan biri(bazan ikki) antropogen. Jarayon tasirida yuzaga kelishi mumkin(masalan, tuproqning yuvilishi yoki defaliyatsiyaga berilishi va boshqalar). Murakkab oqibatlar ko‘p sonli jarayonlar tasirida ro‘y beradi. Shuningdek, bu jarayonda boshqa hodisalar ham qatnashishi inkor etilmaydi. Sodda guruhdagi oqibatlar vaqt va makonda rivojlanib, murakkab guruhga o‘tish mumkin. Sug‘orma erlar daryo deltasi, konus yoyilmasi, ikkinchi va uchinchi terrassalar joylashgan bo‘lsa meliorativ holatiga nazoratni susayishi natijasida sho‘rlanishga duchor bo‘lishi aniq, yillar o‘tishi bilan bu hodisa avj olib, miqyos jihatidan hamda sifat bo‘yicha kuchayib ketadi (masalan Qoraqolpog‘istonda bu hodisa asrning 60-70 yillarida, ayniqsa, kuchli bo‘lgan, Mirzacho‘l va Jizzax cho‘llarida esa 1990 yillarda keskin rivojlandi va boshqalar) oqibatda tuproq sho‘rlanishi tufayli ekinlarning hosildorligi keskin pasayib ketdi joylarda erlar muomaladan chiqa boshladi.

2.2. Mustaqillik: tabiat va jamiyat mutanosibligini saqlashga yangicha munosabat (xukumatimizni ekologiyani saqlash, suvni saqlash, o‘rmon boyliklarini saqlash borasidagi siyosati)

Tabiatda hamma narsa o‘zaro bog‘langan. Insoniyat jamiyatini uni o‘rab olgan tabiat behisob modda (tabiat komponentlari hamda elementlari) va hodisalarning majmuidan iboratdir. Ular o‘zaro sambarchas bog‘langan va o‘zaro bir – birlariga tasir etib turadi. Jonsiz tabiatdagi har bir jism bir – biri bilan va jonli tabiat, ya’ni o‘simlik hamda hayvonot dunyosi bilan ham o‘zaro bog‘langan va o‘zaro tasir ko‘rsatib turadi. Tabiatning barcha komponentlari va ularning elementlari o‘zaro

bog‘lanish bilan birga muayyan muvozanatda turadi. Muvozanatning buzulishi bilan tabiatning o‘zgarishiga olib keladi.

Suvni ifloslanishdan saqlash bilan baliq muhofaza qilinadi. Tog‘dagi o‘rmonlarni saqlash bilan sel kamaytiriladi, eroziyani susaytiradi, soylarni sersuv qiladi, buloqlar ko‘payadi.

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasida sabab – oqibat aloqalarini aniqlash tabiatni muhofaza qilishning eng muhim va eng qiyin nazariy va amaliy masalasidir. Qishloq xo‘jaligi, transport,sanoat,energetika,qurilish ham tabiatga katta, ko‘pincha salbiy tasir etadi. Bularning salbiy tasirini kamaytirish uchun tabiiy muhit yaxshi o‘rganilib, hududning geoekologik sig‘imini aniqlash va bunyod etiladigan obektlarning tasirini hisoblab chiqarilishi, tabiat muhofazasi chora – tadbirdari amalga oshirilishi zarur bo‘ladi.

Sanoat rivojlanishi natijasida bugungi kunda havomiz ifloslanmoqda. Havoning ifloslanishi odam, hayvonot organizmiga, o‘simliklar va mikroiqlimga xilma – xil tasir ko‘rsatadi. Tutun,qurum, havodagi kul quyosh nurini to‘sadi, uning tarkibini o‘zgartiradi, bulutni ko‘paytiradi, tumanli kunlar ko‘p bo‘ladi. Muhofaza tadbirdari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan katta shahar va sanoat markazlari ustida tutun va changlardan “qalpoq” hosil bo‘ladi⁵⁰. Ultrabinifsha nurining ancha qismi havoda tutilib qolib, rahit, vitamin etishmovchiligi kasalliklari kelib chiqadi. Havoni ifloslanishdan saqlash uchun sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda havoni tozalash va uni muhofaza qilish bilan shug‘ullaniladi. Atmosfera havosining tozaligini saqlash, ozon qatlamini muhofaza qilish, havoga chiqadigan chiqindilar tasirida iqlim o‘zgarishining oldini olish masalasi bo‘yicha xalqaro anjumanlar o‘tkaziladi, qarorlar qabul qilinadi. Masalan, 1985 – yilgi Vena konferensiyasida ozon qatlamini saqlash rejali tuzildi, 1987 – yilgi Montreal qarorida ozon qatlamini emiruvchi moddalarni chiqarishga qarshi, 1992 – yilgi BMT ning Ramkali konvensiyasida iqlim o‘zgarishiga qarshi ishlar olib borish uchun muhim qarorlar qabul qilindi⁵¹.

⁵⁰ О.Файзуллаев, Г.Хошимова “Инсон ва табиат” Т.: Ўзбекисон 15 бет 1976 й

⁵¹ П.Фуломов “Инсон ва табиат” “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси ” ДУК, 2009 цй 28 бет

O‘zbekistonda 1996 – yil 27 – dekabrda “Atmosfera havosini muhofaza qilish” to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Qonunning asosiy maqsadi atmosfera havosining tabiat kompleksining muhim komponenti sifatida muhofaza qilishdir. Qonunning vazifasi havo tarkibin saqlash, turli xil kimyoviy, biologik, fizik va boshqa tasirlarning oldini olish, davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning bu sohadagi faoliyatini tartibga solishdir.

Odam bir kecha – kunduzda tashqi muhitdan 20 m^3 xavo oladi. Uning o‘pkasi minutiga 16 – 20 martagacha havo yutib, havo chiqaradi. Ma’lumki, odamning o‘pkasi orqali bir minutda o‘rta hisobda 12 litr havo o‘tib turadi. Bir kecha kunduzda esa 17 ming 290 litr havo o‘tadi. Bu esa 23 kilogramni tashkil etadi. Demak, odam havoni ovqatga nisbatan 4 – 5 baravar ko‘p is’temol qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Havo bo‘shlig‘ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir”,⁵² - deb bejizga aytmagan.

Mutaxasislarning ma’lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 mln. tonnaga yaqin zararli moddalar qo‘shilmoqda. Shularning yarmi uglerod oksidiga to‘g‘ri keladi, 15%ni uglevodorod chiqindilari, 14%ni oltingugurt qo‘sh oksidi, 9%ni azot oksidi, 8%ini qattiq moddalar tashkil etadi va 4 %ga yaqini o‘ziga xos o‘tkir zaharli moddalarga to‘g‘ri keladi.

Atmosfera haqida to‘xtalib o‘tganda, atmosfera – bu yer sharining bir qancha gazlardan iborat havo qatlami, biosferadagi havo mavjudligini ta’minlovchi asosiy manbalardan biri bo‘lib, u barcha jonzotlarni zararli kosmik nurlardan himoya qilib turadi, sayyora yuzasidagi mo‘tadil haroratni saqlaydi. Umuman olganda, atmosera havosi –er sharini o‘rab olgan bir necha xil gazlardan iborat bo‘lgan havo qatlami, tirik mavjudod hamda boshqa tabiat boyliklarining mutanosibligini ta’minlovchi manba.

⁵² И.Каримов “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. – Т, Ўзбекистон, 1997 йил, 129 - бет

Atmosfera havosini muhofaza qilish va talab darajasida saqlash uchun aniq ko‘zlangan va maqsadli vazifalarni bajarish lozim. Ana shu vazifalar O‘zbekiston Respublikasi “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘hrisida” gi Qonunning 3 – moddasida quyidagicha belgilangan:

- atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash;
- atmosfera havosiga zararli kimyoviy,fizikaviy,biologik va boshqa xil ta’sir ko‘rsatilishining oldini olish hamda buni kamaytirish;
- davlat organlari,korxonalar,muassasalar,tashkilotlar,jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish va boshqalar⁵³.
- Shu ma’noda tirik mavjudodning yashash hayot manbai bo‘lgan havoni (atmosfera) muhofaza qilish, uni sof holda saqlash har bir insonning insoniylik burchidir. Xulosa uchun quyidagi ma’lumotlarni keltiramiz. Agar bir gektar maydonda boshoqli don poyasi yoqilsa, 500 gram azot oksidi, 379 gram uglevodrot, 3 kilogram kul, 20 klogram is gazi va uglerod oksidi (SO) atmosferaga ko‘tariladi. Ammo bundan havo qanchalik bulg‘anishini ko‘pincha tasavvur ham qilmaymiz: 1 tonna hazon yoqilganda havoga 30 kilogram uglerod oksidi ko‘tariladi. Bitum yoqilganda hosil bo‘lgan qurum inson organizmida sil va saraton kasalliklarini keltirib chiqaradi.
- O‘zbekiston Respublikasi Ekolgiya va atrof – muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan chora – tadbirlar alohida o‘rinlidir. Respublikamizda tabiat, atrof – muhit,atmosfera ifloslanishining oldini olishda, ayniqsa, yoqilg‘i energetika majmuasida istiqbolli, qayta tiklanuchi energiya manbalaridan foydalanish zamon talabi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qo‘llanishi, ekolgik tozaligi nuqtai nazaridan judayam istiqbollidir. Yurtimizda bu borada yetarli darajada tajriba to‘plangan. Markaziy Osiyo birlashgan energiya tizimi quvvatining 50 % mamlakatimizga to‘g‘ri keladi.

⁵³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. 1997 й, №2, 52 - модда

- Hisob kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, sanoatning yuqori darajada jadal rivojlanib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimizning elektr energiyasiga bo‘lgan talabi 2030 – yilda joriy yilga nisbatan 2 baravar oshadi va 105 miliarddan ziyod kilovat soatni tashkil etadi.⁵⁴ Etiborli tomoni shundaki,O‘zbekistonning quyosh energetikasi borasidagi salohiyati va mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish istiqbollari haqida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov gapirib, “O‘zbekistonda havo bir yilda 320 kundan ziyod ochiq bo‘lib, mamlakatimiz yil davomida quyoshli kunlarning qo‘pligi bo‘yicha dunyoning aksariyat mintaqalariga nisbatan ustunlikka ega”.
- O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan 2008 – yil 13 – martda o‘tkazilagan “Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o‘simlik va hayvonot olamiga ta’siri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro chora - tadbirlari”⁵⁵, 2014 – yil may oyida “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish”⁵⁶ mavzusidagi xalqaro konferensiyanining o‘tkazilishi ham alohida ahamiyatga egadir.
- Bundan tashqari, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 – yil 27 – maydagi 142 – son qarori asosida 2013 – 2017 – yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof – muhitni muhofaza qilish bo‘yicha xarakatlar dastur⁵⁷larining tasdiqlanishi ham muhim ahamiyat kasb etib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni ekologik muhofaza qilishga e’tibor qaratildi.
- Ta’kidlash joizki, atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi azon qatlami buzulishiga xam olib keladi. Ushbu muammoga halqaro doirada e’tibor beriladi. 1980 – yilda mavjud bo‘lgan ozon darajasi taxminan 2050 – yilga kelib yana tiklanishi mumkinligi Montreal protokolining ko‘zga ko‘ringan

⁵⁴ И.Каримов “Осиё қуёш энергияси форумининг олтинчи йиғилишидаги нутки”. Қуёш энергияси – келажак энергияси. // Халқ сўзи. 2013 й, 25 ноябр.

⁵⁵ Халқ сўзи, 2008 йил, 13 - март

⁵⁶ Халқ сўзи, 2014 йил 16 май

⁵⁷ Ўзбекистон Республикаси Конун хужжатлари тўплами, 2013, №22,282 - модда

muvaffaqiyatlaridan biri hisoblanadi. 1993 – yil 18 – mayda O‘zbekiston Respublikasi Vena konferensiyasi va Montreal Protokolida o‘zining ishtiroki bo‘yicha huuq va majburiyatlarini tasdiqladi va mazkur hujjatlarga qo‘shilishdan kelib chiquvchi majburiyatlarni o‘z bo‘yniga oldi.

- Yer yuzasining 71 % suv bmlan qoplangan. Quruqlikning ham 3 % maydoni daryo va ko‘llardan iborat. 16 mln km² ortiq hudud – Antraktida va Grenlandiya muz bilan qoplangan. Agar erdagи butun suv sayyoramiz yuziga bir xil qalinlikda taqsimlansa, qalinligi 4 km bo‘lgan suv qatlami hosib bo‘ladi. Havoda ham har doim suv bor. Suv yeryuzasini qobiq hosil qilib o‘rab olgan. Yerning suv qobig‘i gidrosfera dbe yuritiladi va uning boyliklariga daryo, ko‘l, suv omborlari, kanal, yerosti, tuproq, botqoqlik, dengiz, okeandagi, atmosferadagi suvlar, quruqlikdagi qor va muzliklar kiradi.
- Suvning ifloslanishi deganda uning tarkibi va xususiyatlarining uy – ro‘zg‘or va sanoat chiqindilarining, qishloq xo‘jaligida ishlataladigan mineral o‘g‘itlar, gerbitsid, psetitsid, defoliantlar, kemalardan suvga tushadigan yoqilg‘i, surtish moddalari, yog‘och moylar, suvda oqqan yog‘och va boshqa predmetlarning chirishidan chiqqan moddalarning tasirida o‘zgarishi tushuniladi

Suv o‘z – o‘zini tozalash xususiyatiga ham ega. U quyosh nuri va aralashishi natijasida tozalanadi. Bakteriyalar o‘ladi, ifloslar cho‘kadi. Suv 24 soatda 50% bakteriyadan tozalanadi, 96 soatda ifloslovchi moddalarning 0.5 % qoladi. Tozalanish qishda juda sekin ro‘y beradi. Suv o‘z – o‘zidan tozalanishi uchun unga toza suv qo‘shish kerak. Agar suv juda ifloslanib ketib, o‘z – o‘zidan tozalanmasa , maxsus tozalash lozim bo‘ladi. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik mamlakatlarda suv havzalarining ifloslanishi juda kuchayib bormoqda. Ayniqsa, daryolar suvlari ifloslanmoqda⁵⁸.

Sifatli suv talab qiluvchi sohalarda tozalangan suvni foydalanishga yaroqli qilish uchun unga 7 hissadan 14 hissagacha toza suv qo‘shish kerak bo‘ladi. Shunda ham undan ayrim sohalarda foydalanish mumkin emas.

⁵⁸ П.Фуломов “Инсон ва табиат” “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси ” ДУК, 2009 ш 28 бет

Suv fondi yerlari ham yer fondi tarkibidagi mustaqil toifa yerdan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 77 – moddasiga ko‘ra suv havzalari (daryo, ko‘l,suv ombori va shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari elallab turgan, shuningdek suv havzalarining va boshqa suv ob’ektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan miqdordagi suv xo‘jaligi yehtiyojlari uchun korxona,muassasa va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar suv fondi yerlari jumlasiga kiradi. Mamlakatimizda suv fondi yerlari 831,4 ming ga yoki umumiyligi yer fondaning 1,87 % ini tashkil etadi. Suv fondi yerlari bilan bog‘liq munosabatlar yer qonunchiligi bilan bir qatorda suvga oid qonunchilik bilan ham tartibga solinadi. Suv fondi yerlarining asosiy qismini suv bilan qoplangan yerlar tashkil etadi. Suv bilan qoplangan yerlar deganda, yil davomida doimo yoki yilning ko‘p qismida suv tagida bo‘lgan yerlar tushuniladi. Qisqa vaqt davomida, ya’ni, sug‘orishda, yomg‘ir vaqtida, daryo toshgan vaqtda suv bilan qoplangan yerlar bu toifaga kirmaydi. Suv bilan qoplanmagan yerkarta yana vaqtinchalik sug‘orish kanallari, sho‘ri yuviladigan maydonlar, basseynlarni ham kiritilishi mumkin. chunki ulardagagi suv inson Tomonidan ma’lum maqsad uchun vaqtinchalik sun’iy tashkil qilingan.

Yerdan foydalanishda insonning nafaqat ma’naviy dunyoqarashi, uning yerga, yer boyliklariga bo‘lgan hurmat, tejamkorlik, qadrlash, meros qoldirish, balki uning ushbu insoniy xislatlarni unutganda yerning tarafini olish uchun, uning huquqlarini himoya qilish uchun, aynan insonlar tomonidan ishlab chiqilgan yerdan foydalanish huquqi vujudga keladi. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga binoan yerdan foydalanish huquqi quyidagi asoslarda vujudga keladi :

- doimiy foydalanish huquqi asosida;
- meros qilib qoldirilgan umrbod egalik qilish huquqi asosida;
- ijaraga olish huquqi asosida;
- xususiy mulk huquqi asosida;
- Ichimlik suvining odam organizmi uchun ahamiyatini sharqning ko‘pgina olimlari ta’kidlab insonning va tabiatning hayotidagi va rivojidagi o‘rni haqida qimmatli fikrlarni aytib o‘tishgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” kitobining

birinchi jildida “Suvning sifati” haqida to‘xtalip ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar keltirgan. Suvning inson hayoti uchun zarur elementlardan biri ekani, suvning xususiyatlarini yaxshilaydigan bir necha usullarni bayon qilgan va suvni toza saqlash, uni qaynatib ichish kerak ekanligini odamlarga va shogirtlariga doimo uqtirip kelgan.⁵⁹

- Ta’kidlash joizki, bugungi kunda respublikamizning asosiy suv ta’mnoti, shu jumladan ekanlarni sug‘orish 55 ga yaqin suv omborlari hisobidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston suv resurslari milliy boyligini 500 ta tabiiy ko‘l hamda 1448 ta buloq tashkil etadi.⁶⁰ Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev alohida ta’kidlaganidek, “qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish bo‘yicha ustuvor vazifa avvalo,er va suv resurslaridan oqilona foydalanish demakdir” – degan fikrlari hamda Respublika Prezidentining 2017 - 2021- yillarda ichimlik suvi ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida” gi qarori⁶¹ juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib bugungi kunda mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni ekologik muhofaza qilishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.
- Amaldagi 1993 – yil 6- mayda qabul qilingan “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning XXIV bobi “Suvni va suv ob’ektlarini muhofaza qilish ”deb nomlanib,⁶² 97-102- moddalarni o‘z ichiga olgan.
- Jumladan, qonunning 97 moddasida “Hamma suvlar (suv ob’ektlari) aholi sog‘ligiga zarar yetkazishi, shuningdek baliq zaxiralarining kamayishi, suv ta’mnoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalaring pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyatining kamayishi, suvning gidrogeologik va gidrogeologik rejimining buzulishi natijasida

⁵⁹ Бозоров “Экология хукуқи” Т, ТДЮИ, 2018 й, 171бет

⁶⁰ Ўзбекистон Республикасида атроф – муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисида Миллий марзуза // Ўзбекистон Республикаси Табиятни муҳофаза килиш қўмитаси. – Т, Чинор ЭНК, 2013, 258 -бет

⁶¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Тадбиркорлар ва ишбилиармонлар ҳаракати – Ўзбекистон либерал демократик партиясининг 8 сезидаги маърузаси. Демократик ислоҳотларни изчил давом этириш, ҳалқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб хаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // Халқ сўзи. 2016 й, 2- ноябр, №216(6651)

⁶² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. -1993 й, №5, - 221 модда

kelib chiqadigan boshqa ko‘ngilsiz hodisalargi olib kelishi holatlaridan muhofaza qilinishi kerak”⁶³, - deb ko‘rsatilgan.

- Yer barcha tabiiy resurslar ichida o‘ziga xos alohida huquqiy maqomga ega. U qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositasi, aholining muqim yashash joyi, yuridik shaxslar uchun operatsion bazis, davlat ma’muriy chegaralari doirasidagi hudud bo‘lganligi bois mustaqil davlat sifatida mavjud bo‘lishning asosiy va muhim shartlaridan biridir. Shu bois ham, mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan demokratik huquqiy davlat tuzish jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan aholining turmush darajasini oshirish singari ustuvor vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda yer boyliklaridan oqilona foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Er revpublika barcha aholisining forovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi,. Ayni vaqtda yer ulkan boylik bo‘libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir”⁶⁴.
- Ta’kidlash joizki, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida qishloq xo‘jagini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish nazarda tutilgan bo‘lib, unda tarkibiy o‘zgartirishlarni, chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlanirish, mamlakat oziq – ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agro texnologiyalarni joriy qilish kabi muhim vazifalar belgilangan.⁶⁵ Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Respublikadagi qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va fuqarolarda tabiiy resurslarga nisbatan hurmat va majburiyat hissini kuchaytirishdan iborat. Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza

⁶³ Бозоров “Экология хукуки”, -Т, ТДЮИ, 2018 – йил, 174 – бет

⁶⁴ И.Каримов “Ўзбекистон буюк келажак сари”, -Т: Ўзбекистон, 1999, 509-Б

⁶⁵ Ўзбекисто Республикаси Президентининг 2017 – йил 7- февралдаги №ПҚ -4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегия тўғрисида”ти Фармони. Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 –й, 6-сон, 70-модда.

qilish har xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shunday usullardan eng muhimlaridan biri – yer boyliklarini huquqiy muhofaza qilishdir, ya’ni yerni qonunlar yordamida buzilib tashlanishidan, ifloslanishidan, zaharlanishdan, ishdan chiqishdan himoya etishdir.

- Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish har xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shunday usullardan eng muhimlaridan biri – yer boyliklarini huquqiy muhofaza qilishdir, ya’ni yerni qonunlar yordamida buzilib tashlanishdan, ifloslanishdan, zaharlanishdan, ishdan chiqishdan himoya etishdir. Demak, yer resurslarini muhofaza qilishda huquqning roli beqiyos ahamiyatga ega. Ammo shu bilan bir qatorda biz Yer resurslariga munosabatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat, shuning asosida tashkil topgan shaxsiy ma’naviyat, o‘zini tabiatning bir bo‘lagiman, mening xar bir qilgan yaxshi va yomon ishlarim tabiat uchun bir zarar yoki foyda pozitsiyasidan kelib chiqqan holda yondashgan har bir inson o‘ylaymanki o‘zining ertangi kuniga muhim bir qadamni tashlagan.
- O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi Yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qilib, mamlakatimiz bo‘yicha korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolar foydalanishidagi jami yerlar 44410,3 ming gektarni tashkil etadi. Respublika bo‘yicha sug‘oriladigan yerlar 4314,0 ming gektarni yoki yoki umumiy maydonning 9,7 foizini tashkil qiladi. mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi korxonalarini va tashkilotlarini soni fermer xo‘jaliklari bilan birlgilikda olganda 80134 ta bo‘lib, ularga biriktirilib berilgan yerlarning umumiy maydoni 20469,1 ming gektarni, shu jumladan qishloq xo‘jalik yer turlari maydoni esa 15611,5 ming gektarni, shundan 3715,3 ming gektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi.⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga ko‘ra (8 - modda) mamlakatimizda yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga binoan quyidagi toifalarga bo‘linadi:
- Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar;

⁶⁶Ўзбекистон Республикаси Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси. Ўзбекистон Республикаси ер ресурсларининг ҳолати тўғрисида” миллий хисобот – Т, 2015, 5-9 Б

- Aholi punklarining (shaxarlar, posyolkalar va qishloq aholi punklarining) yerlari;
- Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;
- Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar va tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar;
- O‘rmon fondi yerlari;
- Suv fondi yerlari;
- Zaxira yerlari⁶⁷.

Mamlakatimiz yer boyligi – 44 mln 890 ming getktarga teng. Buning 5 mln getktari sug‘oriladigan erlar. 1960-1980 yillar davomida sho‘rlangan va meliorativ holati yomon erlarning ko‘plab o‘zlashtirilishi hisobiga sho‘rlangan erlar maydoni 2 mln getktarga etdi. Shamol eroziyasi ro‘y beradigan erlar maydoni 2.1 mln gettar, suv eroziyasi bo‘ladigan erlar 0.7 mln getktarga teng. Cho‘l va chalacho‘llarda esa suv etishmaydi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan erlarni muhofaza qilish juda zarur.

Insoniyat tarixinining qadimgi ming yilliklari davomida o‘rmonlar jamiyat taraqqiyotiga to‘sinqlik qilib keldi. Kishilar ekinzor va yaylovlarni o‘rmonlardan juda qiyinchilik bilan tozalab, o‘zlashitirib olganlar. O‘rmonlar kundakov qilinib, yondrilib, yerochilar edi.

Odamlar xo‘jaligi hamda hunarining o‘sishi bilan o‘rmonlar “bitmas - tiganmas” yoqilg‘i va qurilish materiali koniga aylandi. O‘rmonlar xech bir ayamasdan qirqilardi. Fan taraqqiy etgan, texnika rivojlangan sari o‘rmonlar yanada ko‘proq kesiladigan bo‘ldi. Keyingi o‘n ming yil davomida o‘rmonlarning 2/3 qismi kesib yo‘q qilindi. Oxirgi 2 ming yil ichida 0.5 mlrd gettar erda o‘rmon o‘rnida cho‘llar paydo bo‘ldi. A.Gumboldt “Insonda avval o‘rmon bo‘lgan, odam o‘zi bilan cho‘l keltiradi”, deb yozgan edi. Yeryuzidagi cho‘llarning ko‘pchiligi o‘simliklarning kesib yuborilishi oqibatida vujudga kelgan. XX asr davomida Amerikada 540 ming gettardan ortiq o‘rmon kesilgan. O‘rmonlar, Evropa, G‘arbiy

⁶⁷ Ўзбекистон Республикасида атроф – мухит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисида Миллий марзу // Ўзбекистон Республикаси Табиятни муҳофаза килиш қўмитаси. – Т, Чинор ЭНК, 2013, 258 -бет

Osiyo, Shimoliy Amerika, Xitoyda ham ko‘plab kesib yuborilgan. Mustamlakalarda o‘rmonlar, ayniqsa, nest – nobud qilib, kesib tashlangan. Masalan, Madagaskarda mutamlakachilik davrida o‘rmonlarning 9/10 qismi qirilgan. O‘tgan asr boshida Kubaning yarmidan ortiq maydoni o‘rmon edi, xozir esa o‘rmonlar mamlakat maydonining atigi 8 % tashkil etadi. O‘zbekistonda 4100 dan ortiq o‘simlik turi bor. 577 turi dorivor, 103 tur bo‘yoqli, 560 tur efir moyli o‘simliklardir. O‘simliklarning 10-12 foizi muhofazaga muhtoj.

Respublika o‘rmon xo‘jaliklarida har yili 50-60 ming m³ yog‘och, shundan 2 ming m³ dan ortiqroq binokorlik yog‘ochi, 300 tonnadan ortiq o‘simlik urug‘i, 36 turdan ortiq dorovor va yovvoyi oziq – ovqat o‘simliklari, 700 tonnadan ziyod xomashyo tayyorlanadi⁶⁸.

O‘simlik dunyosi va o‘rmonlar insonlar uchun muhim ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajarishi bilan tavsifланади. Xususan o‘simlik dunyosi va o‘rmon boyliklari insonlarni hayotiy zaruriyat bo‘lgan kislород bilan ta’minlovchi asosiy manba ekanligi, shuningdek iqtisodiyot va xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng qo‘llanilishi ularni ekologik tizimning o‘ziga xos ekolgik xususiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismi sifatida alohida huquqiy muhofaza qilishni taqazo etadi. Hozirda dunyoda uchraydigan 600000 turdan ortiq yovvoyi o‘simlik turlaridan O‘zbekistonda 4500 turi uchraydi, ularning 9%i endemik, ya’ni faqat muayyan geografik hududga mos bo‘lgan turlari hisobланади. Bir nechta normativ – huquqiy hujjatlar o‘simlik dunyosi va o‘rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy asoslari o‘lib xizmat qilmoqda. O‘simlik dunyosi va o‘rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanish konstitutsiyaviy normalar bilan bir qatorda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “O‘rmon to‘g‘risida” gi qonunlar va boshqa mas’ul idora va muassasalarning normativ - huquqiy xujjatlari bilan tartibga solinadi.

⁶⁸ П.Фуломов “Инсон ва табиат” “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” ДУК, 2009 ций 28 бет

O'simlik dunyosining bir nechta turlari bo'lib, o'z xususiyati va huquqiy tomondan muhofaza qilinishiga ko'ra ob'ektlarga bo'linadi. O'simlik dunyosi ob'ektlariga yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar, yovvoyi holda yashovchi o'simliklarning yashash faoliyati mahsulotlari, botanika kolleksiyalari kiradi.

2.3. Tabiat va jamiyat uyg'unligini ta'minlash mas'uliyatini yosh avlod ongiga va qalbiga singdirish omillari

Adolat va iymonni bir – biridan farqi bormi, deb so'raptilar bir kishidan. Javob beripti, u zot "Adolat iymondandir. Iymonli kishi adolatli bo'lg'ay. Adolat harakatda, iymon esa qalbda zohirdir. Kishining kuchliligi ham, aqlning ustunligi ham bir – birini to'ldirip turuvchi shu ikki xislatga bog'liq."

Undan so'rabdilar:

- Inson tarozini nega yaratgan?
- "insofni o'lhash uchun".
- "insof nima?" ey zot, debdilar.
- "u iymonning mevasidir".
- "adolat va insofning ne farqi bor?"
- "adolat va insof bir olmaning ikki palasidir. Bir pallali olma bo'lмаганидек insofsiz adolat, adolatsiz insof bo'lмаг'ay."
- "unda tarozi nima?",
- "insof va adolatni o'lchovchi asbob."
- Unda tarozini tushuntirip bering!

- Tingla, debdi u zot va so'zlab beripti: - dunyo katta – kichik tarozilardan iborat. Qayerdadir tarozi posongisi to'g'ri qo'yilsa, o'sha yerda o'sish, rivojlanish, hayotdan xursandchilik hukmron bo'ladi. Odamlar o'z turmushidan baxtiyor bo'lib yashaydilar. Qayerdadir posongining bir tomoni og'irroq qilib qo'yilsa, u yerda norozilik, ma'naviy qashshoqlik va tanazzul yuz beradi o'tmishga bir qiyob boqsang qanchadan – qancha tarozilar posongisi to'g'ri qo'yilmaganligi oqibatida, ma'naviy tanazzul, iqtisodiy bo'hron, jamiyatlarning inqirozga yuz bergeniga shohid bo'lasan⁶⁹.

⁶⁹ Норбоеv А. Жумабоев Ф. "Мувозанат ёки тарози", Т.:

Bugun esa inson o‘zini yaratgan tabiatga, “Ona zamin” deb, muqaddas bilgan va opichlab turgan Yerga nisbatan tarozi posongisini to‘g‘ri qo‘ya olmayapti. Olganiga yarasha bergani, bergeniga yarasha, uni aziz tutgani yo‘q.

Bozorda o‘tirgan sotuvchi tarozidan foydasiga adashar ekan, uning qimmati bor. Dexqon suvdan oqilona va odilona foydalanmas ekan, uning to‘lovi bir kun kelib eshik qoqadi. Olim ilmining qimmati nimalarga qodir ekanligini o‘lchab ko‘rmas ekan, u bir kun kelib o‘z ishidan nadomat chekishi mumkin. Inson tabiatga etiborsizlarcha munosabatda bo‘lar ekan, u bir kun kelib tabiat uni o‘ziga tiz cho‘ktirip, tazim qildiradi. Biroq, unda kech bo‘lishi mumkin. Balki, unda tarozi ham, o‘lchovning o‘zi ham kerak bo‘lmash.

Qadimda odam o‘zini anglagach, olamning tarkibiy qismi ekanligini anglaydi. Dastlab, uning hayotini ta’minlovchi tirikchilik vositalarining ahamiyatini tushunib yetdi va ularni e’zozlash, avaylab – asrash tuyg‘usi shakllana boshladi.

Shu tufayli, olam asosida yotuvchi to‘rt narsa: havo, suv, tuproq va olovni muqaddaslashtirishdi hamda olam to‘g‘risidagi sodda qarashlar paydo bo‘ldi. Ayrimlar odamning tirikchiliginu ta’minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan nematlar deb bildi. Bunday qarashdan olam odam uchun yaratilgan degan qarash kelib chiqadi. Aslida qanday? Bu falsafiy muammodir. Olamda odam yashashi uchun qulay sharoit bo‘lmasachi? Odamlar qahraton muzliklar hukmronlik qiladigan doimiy muzliklar bag‘rida ham, har doim issiqlik taftidan qovjirab yotuvchi issiqlik o‘lkalarida ham yashashadi. Har bir joyda odam o‘ziga qulay sharoit yaratib olishga intiladi⁷⁰.

Odam hayvonlardek tabiatdagi bor narsadan oziqlanish bilangina, chegaralanib qolmasdan, ularni o‘ziga moslashtirishga, sovuq bo‘lsa – isitishga, xom bo‘lsa – pishirishga, issiq bo‘lsa – sovutishga intiladi. Bu esa odamning olamga moslashishga intilishi oqibatidir. Yani, olamni odam o‘ziga, o‘z ehtiyojlariga moslashtirishga intilib kelgan. Shu tarzda odam ham, olam ham takomillashib, Yer yuzi o‘ta “xonakilashtirilgan” olamga aylangan⁷¹.

⁷⁰ Норбоев А. Жумабоев Ф. “Мувозанат ёки тарози”, Т.:

⁷¹ Норбоев Н. Ўтанов Х “Онага қиёс замин”, Т.:

Bir paytlar inson o‘ziga inom etilgan nematlardan foydalanib faqirona umr kechirgan bo‘lsa, bugun tabiatdan undirip olishga harakat qila boshladi.

Holbuki, insondagi mehr ham tabiatdan, uning go‘zalligidan olingan. Bu masalada xech kim bilan bahs qilmoqchi emasmiz. Javobga kelganda, “Ha, xuddi shunday”, deb javob bermoqchimiz. Axir insonning o‘zi tabiatning bir qismi, boshqacharoq aytganda uning xosilasi. Bunga esa etiroz bildirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Shu o‘rinda faylasuf olim S.Mamashokirovning “Vahimami yoki haqiqat” kitobidan ushbu parchani keltirish lozim, deb bildik. Unda: “Farzandlarni ota – onalari va boshqa insonlarga mehrli, muruvvatli qilib tarbiyalashning eng qulay, eng arzon va eng samarali usuli, vositasi ularda go‘dakligidan boshlab tabiatga mehrni uyg‘otishdir” deyiladi. Mehr nimadan, yana o‘sha mehnatdan, tabiatdan.

1957 yilda Xitoyda chumchuqlar ko‘paydi. Donidan qo‘rqqan xitoyliklar ularni qirip yuborishdi. Oradan yillar o‘tib g‘alla hosili mo‘l – ko‘l bo‘ldi. Hamma xursand. Tabiatning bu ofatini yo‘qotishganidan. Oradan yana bir yil o‘tdi, endi chigirkalar hosilni yeb bitirishdi. Natijada Xitoyda ocharchilik boshlanib 30 million aholi qirilib ketdi. Keyin esa chigirkalarni yeb bitirishi uchun boshqa mamlakatlardan chumchuq sotib bolishga majbur bo‘lishdi. Xo‘s, endi aytinchchi, tarozining pallasi to‘g‘ri qo‘yilganda, ertangi kun o‘ylab, xulosa qilinganda, bunday hol yuz berarmidi? Gohida, tabiat o‘zgarip yirik va boy davlatlarga qurg‘oqchilik kelsa, cho‘ntagi hamin qadar bo‘lgan davlatlar ham qo‘rqa boshlaydi. Chunki, bu mamlakatlarga olib kirilishi mumkin bo‘lgan davlatlar nasibasini boy davlatlar sotib olib qo‘ya qoladi. Shunda ham tarozi, shunda ham o‘lchov.

Malumotlarga ko‘ra, milodiy 1000 yilda Yershorda 310 mln kishi istiqomat qilgan. Mazkur ko‘rsatkichning 1 mlrd ga etishi uchun 820 yil kerak bo‘lgan. 1820 yildan keyin dunyo aholisi 1927 yilda kamida 2 mlrdga, 1960 yilda 3 mlrdga, 1947 yilda 4 mlrdga, 1987 yilda 5 mlrdga, 1999 yilda 6 mlrdga va 2011 yilda 7 mlrd kishiga etdi. Ko‘rinib turipdiki, so‘nggi 30-40 yil ichida dunyo aholisi har 12-13 yilda 1 mlrd kishiga ko‘paygan.

Evroosiyo dunyoda aholisining soni bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Mazkur materikda 4,51 mld kishi yoki sayyoramizdagi jami aholining 71 foizi istiqomat qiladi. Afrika bilan qo‘sib hisoblaganda (5,71 mld) ikkala materikda dunyo aholisining 85% yashaydi.

Yershorda yashaydigan aholining uchdan bir qismidan ortig‘ini yoki 36,5 foizi Osiyodagi ikki davlat – Xitoy va Hindiston hissasiga to‘g‘ri keladi. 2011 yilning birinchi yarmida Xitoydagi aholi soni 1,35 mld kishi Hindistonda 1,21 mld kishini tashkil etdi.⁷²

O‘zbekiston aholisining soniga ko‘ra dunyodagi BMTga ahzo bo‘lgan 194 davlat o‘rtasida 44 o‘rinni egallaydi. 2015 yilning 1 yanvarida O‘zbekiston aholisi 31,5 million kishidan ortadi, bu yerda O‘rta Osiyo aholisining yarmidan ko‘prog‘i yashaydi.⁷³ 1800yilda dunyo aholisining 4 foizi, 1900 yilda 14 foizi, 2000 yilda 47 foizi shaharlarda yashagan. 2008 yilga kelib , dunyodagi shahar aholisining soni qishloq aholisining soniga tenglashdi. Ta’kidlash joizki, dunyo aholisining teng yarmini tashkil qiluvchi shaxar aholisi quruqlikning, bor – yo‘g‘i 3 foizini egollovchi aholi punklarida istiqomat qilsa, xuddi shu miqdordagi shahar aholisi quruqlikning 12 foizini egallagan xududlarda yashaydi. BMTning bashoratlariga ko‘ra, 2050 yilga borib, dunyo aholisining 70 foizi shaxarlarda yashashi mumkin⁷⁴.

Ma’lumki,tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarning o‘z qonuniyatları bor. Ularga rioya qilmaslik pirovard natijada ekologik muvozanatning buzulishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday bo‘lyapti ham. Ilm – fanning jadal rivojlanishi, yerusti va osti tabiiy boyliklaridan xo‘jasizlarcha foydalanish natijasida bugungi kunga kelib atrof – muhitdagi tenglik izdan chiqdi. Natijada xorijdagi bazi hududlarda beba ho nematlar – tuproq, suv, havo ifloslanib, yaroqsiz holga kela boshladi. Shu sababli so‘nggi yillarda turli xalqaro anjumanlar, konferensiyalarda bio xilma – xillik, unga tashqi muhitning tasiri haqida bong urilmoqda. Shundan kelib chiqib, odamzot o‘z qilmishlarining jabrini tortyapti desak, aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

⁷² Гадоев К, Бердиева С “Сайёрамиз мўжизалари”, Т; Ўзбекистон, 2012 179 бет.

⁷³ Халқ сўзи. 2014 йил 6 декабрь.

⁷⁴ З.Фуломов “Инсон ва табият муносабатларининг маънавий хуқукий асослари” Т.: 2007 й

Takidlash joiz yer yuzida hayot bio xilma – xillik, ya’ni rang – baranglik bilan go‘zaldir. U sayyoramizdagi hayotning xilma – xilligini hayvonlar, o‘simliklar, mikroorganizmlar, ularning genlari va ekotizmlari anglatadi. Ushbu ibora tizimida muayyan organizm to‘g‘risida mahlumot emas,balki biologik dunyoning barcha qismlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat o‘z aksini topgan. Taxminlarga ko‘ra, tabiatda hayot kechiruvchi barcha organizmlarning soni 30-70 million atrofida ekan. Xususan, olimlar tomonidan hayvonlarning 2 millionga yaqin, o‘simliklarning 500ming, zamburug‘larning 100mingdan va sodda hayvonlarning 40 mingdan ortiq turlari aniqlangan. Lekin bu raqamlar muttasil ravishda o‘zgarip borayotir. Chunki har yili o‘nlab turdagি hayvonlar har xil sabablar bilan yo‘q bo‘lib bormoqda. Aniqroq qilib aytsak, Yeryuzida hozirga kelib o‘simliklarning 60 mingga yaqini, hayvonlarning etti mingdan ortiq turi yo‘q bo‘lib ketish arafasida.⁷⁵

⁷⁵ “Халқ сўзи” газетаси, 2011 йил, 14 феврал сони.

IKKINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA

Ma’lumki har bir narsaning o‘z tarixi, kelib chiqishi sabablari hamda oqibatlari bor. Tarixga bir nazar solar ekanmiz bobolarimiz o‘zi yashayotganr muhitni, tabiatni va uning ne’matlarini asrab-avaylashgan, bundan kelajak avlodning ham haqqi bor, deb tushunishgan. Ajdodlarimiz o‘tmishi tabiat va uni hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy voqealarga boy, deb aytish mumkin. Biz ajdodlarimizning tabiatga, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini, shakllangan qadriyatlarimizning o‘tmish ildizlarini ilmiy yondoshgan holda tarixiy nuqtai nazardan o‘rgansak va ularni keng targ‘ib etishni yo‘lga qo‘ysak nafaqat yurtimiz, balki dunyo yoshlariga ham nimadir bera olamiz.

Olib borilgan ilmiy tahlil, tabiat va inson hayotining o‘zaro uyg‘unligi, inson tabiatning ajralmas bir qismi ekanligi, insonning o‘zi tabiatning ob’ektiv qonunlariga bo‘ysunib yashashni lozimligini yana bir bor ko‘rsatdi. Nazarimda, tabiat hodisalariga qarshi kurash va uning oldini olish uchun insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlar o‘zini quyidagi xusuiyatlari bilan ajralib turadi.

O‘tmish ajdodlarimizning ertangi kunni o‘ylamasdan olib borgan nooqilona harakati, o‘zibo‘larchilik asosida, kim o‘zarga tabiatdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida biz bugungi kunda turli turdagи tabiiy ofatlar qurbaniga aylanyapmiz. Agar o‘z vaqtida biz ham hayotiy pozitsiyamizni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib harakat qilmasak, bugungi qilayotgan ishlarimizni aql tarozisida o‘lchab uzoqni ko‘zlab amlaga oshirmasak, o‘ylanmanki, avlodlarimiz taqdirli bizning taqdirimizdan ham ayanchliroq bo‘ladi.

III-bob. MAVZUGA OID TAJRIBA SINOV ISHLARI TAHLILI

3.1. Mavzuga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil

etish metodikasi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida —Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmularini yaratish va o‘quv —tajriba jarayonini didaktik jihatdan ta’minalash, ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog‘langan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. Ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan istiqbolli dasturlarning yaratilishi va amalda tatbiq etilishi natijasida o‘quv jarayoni ko‘proq talaba shaxsiga yo‘naltirilmoqda. Bu esa, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy g‘oyalarga sodiq va yuksak kasb mahoratiga ega bo‘lgan fuqaroni shakllantirish sohasidagi pedagogik intilishlarning asosini tashkil etadi.

Buning uchun o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini takomillashtirish va kafolatlangan natijaga erishishni ta’minalash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Sog‘lom bola yili davlat dasturi to‘g‘risidagi Qarorida mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarda —...ta’lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash, ko‘zda tutilganligi dolzarb vazifalardan biridir⁷⁶. Ta’lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o‘qituvchi, ham ta’lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo‘ygan maqsad, tanlangan metod, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liqdir.

Pedagogik texnologiya ta’lim jarayoniga yangicha, o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo‘lgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Ta’limning barcha

⁷⁶ М.Тўхлиев “Касб хунар коллежларида “инсониятнинг глобал муаммолари” мавзусини янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш ” – Г ; 2016 й

bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talablar o‘quvchi talabalarning dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ilmiy fikrlashga va o‘quv faniga qiziqishini kuchaytirish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar mobaynida ularning faolligini oshirishga qaratilgan. O‘quv jarayonining sifati ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida o‘qitishning metod va usullari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular bilimlarni ongli va chuqr o‘zlashtirilishiga, talabalarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jahon pedagogik tajribasi pedagogik texnologiyalarning talabalarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashida faollikni oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda. Yangi pedagogik texnologiya ta’limning ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan shakl, usul va vositalarining tizimidir. Uning imkoniyatlari ko‘p bo‘lib, texnik vositalardan, laboratoriya jihozlari, amaliy mashg‘ulot xonalari, psixologik vositalardan (ishchanlik o‘yinlari va ijtimoiy-psixologik treninglar), pedagogik vositalardan (pedagogiknovatorlarning yangi o‘quv tizimi), darsning noan’anaviy shakllari, reyting tizimi va boshqalardan foydalanish orqali amalda joriy qilish mumkin.

Ma’naviyat o‘zi keng qamovli tushuncha bo‘ganligi sababli, ma’naviyat darslarida foydalaniladigan metod va usullar o‘quvchi talabalarning amaliy faoliyatida bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llash, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma’naviy va estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, solishtirish, ijodiy qobiliyat va boshqalarni rivojlantiradi. Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda ma’naviyat omilini yo‘lga qo‘yishda biz jamiyatning aynan bir bo‘g‘ini yoki bo‘lagi bilan ishlay olmaymiz. Biz jamiyatda tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlarni chiroyli tarzda, xech bir bo‘g‘in va a’zo zarar ko‘rmaydigan shaklda tashkil qilishimiz uchun ekologik ong va tafakkurni va shu orqali ma’naviy ong va tafakkurni shakllantirishimiz kerak bo‘ladi. Bu ishni avvalo biz jamiyatning turli bo‘g‘inlari bilan ishlash orqali amalga oshiramiz. Bularga :

1. Mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish organlari
2. Ta’lim muassasalari

3. Oiladagi ekologik etika
4. Xalqaro ekologik ta’lim va etika

Aholining tabiat va jamiyatga ma’naviyali munosabatda bo‘lishda o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni. Xalkimizning o‘ziga xos madaniy va asriy qadriyatlaridan biri hisoblanadigan mahalla ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy hamda atrof-muhit muhofazasi va ekologiya muammolarini hal etishda katta salohiyatga ega. O‘zbekistonda o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining roli va salohiyati kundan-kunga mustahkamlanib, har tomonlama rivojlanib borayotganligi atrof-muhit muhofazasi, inson salomatligini muhofaza qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish kabi ekologik muammolarning chora - tadbirlarini belgilash va hal etilishida o‘z aksini topmoqda. Ayniqsa, keyingi yillar ichida mahallalar obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, sanitariya va gigiena muammolari, atrof-muhit va yashash joylarining ozodalagini saqlash, ko‘cha va dam olish maskanlarini, ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarni obod qilish kabi jamoaviy harakatning asosiy tashkilotchisi sifatida O‘zbekiston Ekologik partiyasi qo‘sildi⁷⁷. Ko‘pchilik ijtimoiy-iqtisodiy va ayniqsa ekologik muammolar mahalliy darajadagi faoliyat tufayli kelib chiqishi va ular aniq bir joy: viloyat, tuman, shahar uchun xos ekanligi yaxshi ma’lum. Umummilliyl manfaatlardan, hududning o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini teran va har tomonlama anglab olishdan kelib chiqib, faqat mahalliy darajada jamoatchilik, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ho‘jalik yurituvchi sub’ektlar, ayrim hollarda din vakillari bilan doimiy maslahatlashuvlar o‘tkazib amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va barqaror rivojlanishga o‘tish zarurligi buyicha umumiyl kelishuvga va ular qo‘llab-quvvatlanishiga erishish mumkin. Bu o‘z navbatida millatni jipslashtirishda yaxshi shart - sharoitlar yaratadi va jamiyat oldida turgan murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Bugungi kunda aholida, ayniqsa, yoshlarda ekologik ong, ekologik bilim va madaniyatni yuksaltirish ekologlarning oldida turgan muhim vazifa sifatida qaralardi. Lekin masalaga suqurroq yondoshadigan bo‘lsak, tevarak

⁷⁷ Ш.К.Чориева “Экологик таълим – тарбияда ахборот воситаларининг ўрни” – Т; 2018 й

– atrof ekologiyasi, umuman Yer sayyorasi ekologiyasi uning ertangi 100 – 200 yil keyingi taqdiri, avlodlarimizga qoldiradigan merosimizni yaxshiroq, insoniylik nuqtai – nazaridan tahlil qilsak, bu masala nafaqat ekolog olimlarning balki butun insoniyatning insoniy burchi avlodlar oldidagi muqaddas vazifasi ekanligini tushunamiz. Bu vazifani amalda bajarish, ya’ni atrof-muhit va inson salomatligini muhofaza qilish, tabiiy resurslardan (suv, gaz va b.) oqilona foydalanish, bir so‘z bilan aytganda mamlakatimizda barqaror rivojlanishga erishish uchun, eng avvalo, mahalliy hokimiyatlar oldida quyidagi maqsad va vazifalarni qo‘yish zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, viloyatda o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tashabbusi bilan atrof-muhitning, atmosfera havosining, ichimlik suvi va oqar suv havzalarining, shuningdek tuproqning asosiy ifloslantiruvchisi hisoblangan ishlab chiqarish korxonalari va faoliyat turlarini ekologik nazoratdan o‘tkazishni tashkil etish maqsadga muvofik. Shuningdek, ekologik nuqtai-nazardan xavfli, aholining yashash sharoitlariga va salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishi va faoliyat turlarini joylashuvi va faoliyatini tartibga soluvchi qarorlar qabul qilishi va tegishli tashkilot va organlarga taqdim etishi;

Ikkinchidan, shaharlarda avtotransport vositalarining texnik holati talablarini oshirish, yirik tonnali va tranzit transportning harakat qilishi borasida taklif va ko‘rsatmalar ishlab chiqish, atmosfera havosi ifloslanishini kamaytirish uchun (shahar orqali tranzitni ta’qiqlash, magistral yullar bo‘yini ko‘kalamzorlashtirish va hokazolar) tashkiliy-texnik chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqishi va amalda bajarilishini ta’minlashi;

Uchinchidan, tumanlarda yerdan oqilona va rejali foydalanishni qo‘llab-kuvvatlash maqsadida mahalliy shart - sharoitlardan kelib chiqib, mahalliy hokimiyatlarning mahsus qarorlarini qabul qilishni yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, mamlakatimizda aholining ekologik ongi va madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida “Obodonlashtirish oyligi”, “Tozalik va ozodalik kuni”, “Eng namunali mahalla”, “Eng so‘lim maskan” kabi tadbirlar o‘tkazish, faoliyat ko‘rsatayotgan partiyalar, tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi

Ekoharakatning Ayollar qanoti, Ekoharakatning Yoshlar qanoti, Xotin-kizlar qo‘mitalari, Sanitariya-epidemiologiya stansiyalari kabi tashkilotlar homiyligida va hamkorligida ommaviy hasharlar, aksiyalar tashkil etish va ularni OAV orqali targ‘ib etish;

Beshinchidan, mahalliy teleradiokompaniyalar orqali tegishli tashkilotlar va organlar bilan hamkorlikda atrof - muhitni ifloslantiruvchi, aholi salomatligiga jiddiy xavf soluvchi manbalar va ularning oqibatlarini aks ettiruvchi ekologik g‘oyalarni targ‘ib etuvchi turkum eshittirishlar va ko‘rsatuvarlar tayyorlash hamda ularni efirga uzatib borishni nazorat qilish;

Oltinchidan, oilalarda, ayniqsa qiz bolalar tarbiyasida tabiatni sevish unga e’tiborli munosabatda bo‘lish, farzandlarni tabiatga nisbatan mehr va shafqatli munosabatda bo‘lishlari uchun ularni tabiat bag‘riga ko‘proq olib chiqish ular bilan ko‘p qavatlari uylarda yashashsa xona gullari parvarishini, agar hovlida turishsa dalada turli o‘simgilik va daraxtlar parvarishini yo‘lga qo‘yish buning uchun o‘zlari shaxsiy namuna bo‘lishlari;

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, aholining ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishda o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish, O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish va sog‘lom ekologik muhitni yaratish borasida jamiyatning muhim bo‘g‘ini hisoblangan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning bunyodkor va yaratuvchanlik g‘oyalarini amaliyotga tadbiq etish maqsadga muvofiqli.

Tabiat va jamiyat o‘rtasida ma’naviyatli munosabatni yo‘lga qo‘yishda ta’lim muassasalarining ayniqsa mакtabning o‘rni beqiyosdir. Men Abdulla Avloniyning: «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir», degan fikrini ko‘p mushohada qilaman. Buyuk ma’rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta’lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni,

tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi, degan edilar birinchi prezentimiz Islom Karimov.

Insoniyat paydo bo'lganidan beri farzand tarbiyasi bilan u yoki bu shaklda shug'ullanib kelgan. Ibtidoiy jamoa davrida bu jarayon ba'zan ongli, ba'zida esa ongsiz ravishda kechgan bo'lishi mumkin. Qanday bo'lishdan qat'iy nazar, tarbiya usullari muttasil davom etaverган. Ular davrlar o'tishi, turmushning murakkablashishi natijasida tobora chuqurroq va keng ma'no kasb eta borgan. Tarbiya berish deganda kimnidir mahsus bir xonaga o'tqazib qo'yib, pand-nasihat berishni emas, balki o'yin vaqtida, uy yumushlari jarayonida, ta'lim va ilm o'rgatish davomida hayot va turmush saboqlarini qiyosiy yo'sinda tushuntirishni, qolaversa, shaxsiy o'rnak ko'rsatishni tushunmoq zarur. Bu omillar bir-biri bilan omuxta holda olib borilishi kerak. Inson asosan ikki yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin: a) birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni o'rganish, shuningdek, donolarning fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish orqali tarbiyalanish; b) mustaqil fikrlash, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan isharidan tegishli xulosalar chiqarib olish, eng qudratlisi - tafakkur vositasida tarbiyalanish mumkin⁷⁸.

Allomalarimiz: "Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim", deya nasihat qiladilar. Bu esa insonning o'z tafakkuri yordamida ta'lim - tarbiya olishi, odob-ahloq me'yorlarini egallashi, o'zi yashayottan jamiyatning insoniylik hulq-atvoriga xos ma'naviy-ahloqiy ko'nikma va malakalarni o'zida mujassamlashtirishini taqozo etadi. Ko'pchilik olimu - fuzalolar tarbiya deganda faqat bolaga tarbiya berishni tushunadilar. Bizningcha, bu ancha tor tushunchadir. Chunki tarbiyaga faqat bolalar emas, kattalar ham muhtojdirlar. Demak, ma'naviyatshunoslik insonni go'dakligidan to umrining oxirigacha hayot va turmush odobiga o'rgatuvchi hamda ushbu jarayonni tahlil hamda tadqiq etuvchi fandir. Tarbiya va ma'naviyatshunoslik haqidagi bu ta'rif zamiriga odamlarning butun umri davomidagi hulq-atvori, odob-ahloqi, bu boradagi milliy an'analarga sadoqati va bularga tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchilarning to'la amal qilishi, milliy qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatga

⁷⁸ X.B.Салимов "Экология" (маъruzalap matni) – H; 2015 й

hurmat, iymon va vijdon singari go‘zal fazilatlar singgan. Agar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi chuqur tahlil qilib ko‘rilsa, unda yuqorida zikr etilgan tarbiya va tarbiyashunoslik haqidagi fikrlar o‘z ifodasini topganini kuzatish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bizning Konstitutsiyamiz milliy tarbiya va tarbiyashunoslik qomusidir. Uning deyarli har bir moddasida tarbiya ma’nolari silsilasi mavj urib turibdi. Garchi konstitutsiyamizda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi so‘zlari aynan ishlatilmasa-da, ularning burch va vazifalari to‘la o‘z aksini topgan. Bu haqda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi: «Tarbiyachi ustoz bo‘lishi uchun, boshqalarning aqlidrokini o‘sirishi, ma’rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirishi uchun, eng avvalo, o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak». Bu yerda tarbiyachining o‘zi hamisha o‘rnak bo‘lishi kerak, degan fikr ilgari surilayaptiki, shu aqida tarbiyaning asosiy tamoyilidir.

Ekologik etika, ekologik madaniyat, ilmiy bilimlar va ijtimoiy amaliyot rivojlanishining hozirgi bosqichida, inson fazilatlarining mezoni hisoblanadi. A. Shveyserning, hozirgi jamiyatda ekologik etikaning maqomi va evolyusiyasiga munosabati haqidagi fikri katta qiziqish o‘yg‘otadi. A. Shveyser «Inson har qanday hayotga yordam berishi va tiriklikka ozor berishdan saqlanishi lozim... Tiriklikka ozor beradigan joyda, men bu ishimning qanchalik zarur ekanligini ochiq-oydin bilishim kerak...»⁷⁹ deb ta’kidlaydi. A. Shveyserni ekologik etika variantlaridan birining asoschisi deb hisoblaydilar. Uning ekologik etikasi «universal» etika deb yuritiladi. Etika va ahloq nuqtai-nazaridan «avlodlar oldidagi burch» tushunchasi ma’lum ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda avlodlar oldidagi burchimizga tegishli muammolar ham tahlil qilingan. Ekologik etikaning qoidalari hozirdayoq quyidagi imperativlarni taklif qilish imkonini beradi: kelajak avlodlar mavjudligiga xavf soladigan har qanday ta’sirlardan voz kechish; inson salomatligi va atrof-muhit holatiga tegishli qarorlarni qabul qilishda, avlodlar oldida javobgarlik mezoni ustuvor bo‘lishi lozim. Hozirgi insonlarning ehtiyojini qondirish maqsadida,

⁷⁹ Ш.К.Чориева “Экологик таълим – тарбияда ахборот воситаларининг ўрни ” – Т; 2018 й

kelgusi avlodlarning manfaatlariga zarar yetkazish maqsadga muvofiq emas. Ekologik madaniyat, biosferaning noosferaga o‘tishida shakllanibgina qolmasdan, u bunday o‘tishning sharti ham hisoblanadi. Inson ma’naviyatining jamiyat hayotidagi, moddi buyumlardagi aksi madaniyat deyiladi. Madaniyatni ekologiyalashtirish insoniyatning taqdirini belgilaydi. Insoniyat global muammolarining yuzaga kelishi, jamiyat hayotini tashkil qilishda yangi umumsayyoraviy tamoyillarning kerakligidan dalolat bermokda. Hozirgi vaqtida, ekologik inqiroz iskanjasidan chiqish uchun yangicha tafakkur, yangi siyosat, yangi madaniyat va yangi inson zarur. Ekologik ta’lim-tarbiyaning ilmiy bilimlarini targ‘ib qilish va ommaviylashtirishni o‘z ichiga olgan, maqsadga yo‘naltirilgan tizim ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy ijtimoiy mexanizmi bo‘lishi lozim.

Xalqaro ekologik etika va ta’lim. Ekologik ta’lim - tarbiya muammosi YuNESKO va BMT ning atrof-muhit bo‘yicha Dasturi tomonidan, tabiat va inson munosabatlarini tartibga solishning asosiy vositalari qatoriga kiritilgan. 1972 yili atrof-muhit bo‘yicha Stokholm konferensiyasi, atrof-muhit sohasidagi ta’limning xalqaro dasturni yaratish bo‘yicha tavsiya qabul qildi. Bunday dastur YuNESKO va YuNEP tomonidan, 1975 yilning boshiga kelib ishlab chiqildi. 1977 yili Tibilisida o‘tkazilgan atrof-muhitni muhofaza qilishga doir hukumatlararo konferensiya, ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil qilish sohasidagi muhim voqeа bo‘ldi. Rio-de-Janeyroda 1992 yili o‘tkazilgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi, Tibilisi konferensiyasi qarorlarini aniqlashtirdi. Unda, aholining savodxonligini oshirish kadrlar tayyorlashga ko‘maklashishga qaror qilingan⁸⁰. Ekologik ta’lim-tarbiya asosidagina amalga oshirilishi mumkin, ammo, ekologik tarbiya mazmuniga ko‘ra, murakkab bo‘lib, u ko‘proq shaxsning emotSIONAL-sezgi dunyosiga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim shaxsni tarbiyalash uchun zarur, lekin yetarli bo‘lmagan vosita hisoblanadi. Tarbiya uchun san’at, badiiy adabiyot va publitsistika alohida ahamiyat kasb etadi. Buni hisobga

⁸⁰ Ш.К.Чориева “Экологик таълим – тарбияда ахборот воситаларининг ўрни” – Т; 2018 й

olgan holda, ekologik tarbiyani, insonda turli vositalar yordamida, tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatni shakllantiradigan, maqsadga yunaltirilgan jarayon sifatida ajratish mumkin. «Ekologik ta’lim» tushunchasi, «atrof-muhit sohasidagi ta’lim» tushunchasining sinonimi hisoblanadi. Ekologik ta’lim deganda, atrof-muhit ga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan va umumiy ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan, o‘qitish jarayoni tushuniladi. Lekin bunda ta’lim tizimi ilmiy tadqiqotlardan kuchli ortda qolishi kerak emas.

An’anaviy biologik ekologiya, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya va global ekologiya kabilar ekologik ta’limning nazariy asosi hisoblanadi. Geoekologiya, muxandislik ekologiyasi, agroekologiya va boshqa bir qator ekologik fanlar esa qo‘s Shimcha manba bo‘lishi mumkin⁸¹. Bundan ekologik ongi shakllantirish uchun mavjud ta’lim tizimi ko‘rinishini o‘zgartirishning o‘ziga yetarli bo‘lmasligi oydinlashadi. Ekologik ta’lim bilan ta’lim tizimini ekologiyalashtirish tushunchalarini farqlash lozim. O‘quv yurtlarini ilgari tamomlagan shaxslarning ekologik savodxonligini, qayta tayyorlash yo‘li bilan oshirish masalasiga ham e’tibor berish lozim. Ushbu jarayonning ko‘p bosqichli bo‘lishi maqsadga muvofiq. Hozirgacha bo‘lgan ekologik ta’lim - tarbiyaning tashkil qilinishi va amalga oshirilishi talabga javob bermaydi. Ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari va g‘oyalari hayotga to‘la tadbiq qilingan emas va o‘z navbatida, aksariyat hollarda ekologik fikr yuritish, kundalik faoliyatida atrof-muhit, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo‘lish pozitsiyasidan ancha uzoqdadir.

Mavjud qadriyatlarda, atrof-muhit holatiga javobgarlik hissidan xohlagancha foydalanish, oqibatini uylamaslik tuyg‘usi ustun turadi. Ekologik ta’lim-tarbiya insonda, ekologik javobgarlik tuyg‘usini shakllantirish masalasiga kompleks yondoshishni talab qiladi. Demak, ekologiya tobora kengayayotgan bilimlar sohasi sifatida, ta’lim tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va o‘rta ta’lim, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish maqsadlarini qayta yo‘naltirishni talab

⁸¹ Ш.К.Чориева “Экологик таълим – тарбияда ахборот воситаларининг ўрни” – Т; 2018 й

qiladi. Barqaror rivojlanish konsepsiysi, har qanday darajadagi ekologik ta’limning ustuvor va asosiy tamoyili bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidlash lozim. Qarorlar qabul qilishga javobgar shaxslar, albatta, ekologik savodxon bo‘lishlari, ularning ekologik bilim darajasi lavozimga saylanish va attestatsiya vaqtida hisobga olinishi zarur. O‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimlarida majburiy ekologik ta’limni joriy qilish va rivojlantirish davr talabi hisoblanadi va bu sohadagi mavjud kamchiliklarni tezlik bilan bartaraf qilish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’lim-tarbiyaning rivojini yangi bosqichga ko‘tarish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Respublikada uzoq yillar davomida vujudga kelgan murakkab ekologik vaziyatni yumshatish, barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tishda, uzlusiz ekologik ta’lim-tarbiya tizimini shakllantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonuni» da, ekologik ta’lim-tarbiya yetarlicha o‘rin berilmagan. Aholini ekologik savodxonligi oshirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar yetarli emas. Joylarda qarorlar qabul qilish jarayonida, aholi ishtirokini faollashtirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozir ekolog- mutaxassislarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Lekin, o‘rta maktab va oliy o‘quv yurtlarida majburiy ekologik ta’limni joriy qilish bo‘yicha muammolar hali ko‘p. Ekologik ta’limtarbiyani amalga oshirish masalasi bo‘yicha, alohida qonun loyihasini ishlab chiqish zamon talabiga javob beradigan vazifa hisoblanadi. Yangi XXI asrda ekologik ta’limtarbiyani yangi bosqichga ko‘tarish barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri bo‘lib qoladi.

Oilada ekologik tarbiyani yulga qo‘yishning usul va vositalari. Har bir insonning hayot haqidagi dastlabki tasavvurlari va dunyoqarashi eng avvalo oilada shakllanadi. Oila hayot so‘qmoqlaridagidagi debocha. Aholi ekologik madaniyatini oshirish avvalo oiladan boshlanadigan ekologik tarbiyaning kuchaytirilishini talab etadi. Farzandlar oila bag‘rida tarbiyalanayotgan ilk davrlardan boshlab ularning ongi va qalbiga atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiatni o‘z onamizdek asrabavaylash va uni ham hurmat qilishimiz lozimligi singdirilmas ekan ekologik madaniyatli va sog‘lom, ma’naviy barkamol inson haqida so‘z ham bo‘lishi

mumkin emas. Oilada ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish uchun nimalar qilinishi lozim, qaysi jihatlarga e’tibor qaratish kerak? Bu kabi savollarga quyidagicha javob berish mumkin: - Farzandning ona qornidaligidan boshlab uni va onasini salbiy illatlar (tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklar va boshqalar) dan muhofaza qilish; - Doimo, ayniksa bola o‘z aqlini taniy boshlagan davrlarda ota-onasi va boshqa oila a’zolari tabiat va atrofmuhitga oqilona munosabatda bo‘lishlari va bu jarayonda bolaga o‘rnak bo‘layotganliklarini aslo unutmasliklari lozim; - Oilada va mahallada, ta’lim muassasi hamkorligida tashkil etiladigan “Ozodalik hashari”, “Daraxt ekish” kabi tadbirdorda faol ishtirok etish va farzandni ham bunga o‘rgatish; - Farzandga bolalik chog‘laridanoq tabiat va atrofmuhitni asrab-avaylash va uning yaxshilanishi uchun kurashishga chorlovchi ertaklar, masallar, hikoya va she’rlar o‘kib berish, “qissadan hissa” chiqarishga o‘rgatish; - Farzandlarni tozalikka o‘rgatish; - Hovli-uylarda bog‘ (bog‘dagi daraxtlarga qushlar uchun yog‘och uychalar yasab, ilib qo‘yish va h.k), zooburchaklar, ko‘p qavatli uylarda yashil burchak tashkil etish, xonaki gullar va o‘simpliklar o‘stirishni yo‘lga qo‘yish; - Uyni jihozlash va ta’mirlashda imkon kadar tabiatga oshnolik hissini uyg‘otuvchi vositalardan foydalanish. Masalan, devorlarga tabiat manzarasi aks ettirilgan portretlarni ilish va h.k. - Tarbiya umrbod davom etadigan jarayondir. Jumladan, farzandlar katta bo‘lib, voyaga yetganda ham ekologik tarbiya poyoniga yetib qolmaydi. Shu sababli farzandlar uchun alohida uy-joylar qurishda ham oilaning maishiy chiqindilaridan halos bo‘lish yullari, suvdan, tabiiy gazdan oqilona foydalanish usullari va shu kabi jihatlarga alohida e’tibor berilishi va farzandlarni ham shu ruhda tarbiyalash zarur. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l kovushtirib o‘tirish o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir”. Shuning uchun ham bu masala avvalo, insonlarning ilk kamolot maskani, ma’naviyat beshigi bo‘lmish oilalarning zimmasiga yanada yuksak vazifalar yuklaydi. Endilikda yosh-avlodni atrof-muhitga nisbatan odobli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish butun insoniyatning eng zarur ishiga aylandi. Ammo bu boradagi amaliy

qadam oila bag‘rida ulg‘ayayotgan avlodning, shaxsan har bir insonning qalbidan boshlanishi lozim. Oilada olib borilajak tarbiya shunday bo‘lsinki, farzandlar tabiatni himoya qilishni ham qonuniy burch ekanligidan ko‘ra haqiqiy farzandlik, ota-onalik, insoniylik muxabbati hamda sadoqati sifatida bilsinlar. Zero, “tabiiy boyliklar otabobolarimizdan me’ros qolmagan, balki kelajak avlodlarimizdan qarzga olingan”dir.

3.2.Tabiat va jamiyat uyg‘unligini taminlashda ma’naviyat omili mavzusi oid tajriba-sinov ishlari natijalari

Ma’naviy – axloqiy mazmundagi ta’lim – tarbiya ishini tashkil qilish har bir ta’lim muassassining eng ustuvor va asosiy maqsadidir. Buni tashkil qilishda muassasa rahbariyati, kasaba uyushmalari a’zolari, ota – onalar, faollar qo‘mitalari, kuzatuv kengashi, o‘quvchilarning o‘zini – o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari va xodimlari ham bir xilda ishtirok etadilar va mas’uldirlar.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda tabiat va jamiyatga ma’naviyatli munosabatda bo‘lishni shakllantirishni yo‘lga qo‘yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga ega: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaklar, haftaliklar, oyliklar, ko‘riklar, konferensiyalar, babs – munozaralar va boshqalar.

O‘quvchilar tabiat va jamiyatga ma’naviyatli munosabatda bo‘lishni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlar umumiyligi tabiyaning ajralmas qismi sifatida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega.

Ma’naviy – ahloqiy mazmundagi tadbirlarni o‘tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko‘zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog‘i kerak.

Yoshlarning tabiat va jamiyatga ma’naviyatli munosabatda bo‘lishni shakllantirish bilimlar negizida shakllanadi. Ma’naviyat so‘zining mag‘zi ma’no bo‘lgani kabi ilmning mag‘zi bilimdir. Inson yoki jamiyatda bilim qancha ko‘p bo‘lsa, ma’naviy yuksalish uchun shunchalik mustahkam poydevor yaratilgan bo‘ladi, ammo poydevor o‘rnatish uyning bitganini bildirmaganday, bilimlar miqdori ham o‘z - o‘idan yuksak ma’naviyatni bildirmaydi. Bilim – ma’naviyatning asosidir.

Yoshlarni istedodini aniqlash, qobiliyat iqtiorini rivojlantirish, intelektual zakovati, ma’naviy aqliy salohiyatini yuksaltirish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bu vazifani hal qilish uchun yoshlarni hayotga, meh-natga tayyorlashning yangi texnologiyasi, metod, usul, vositalaridan foydalanish lozim bo‘ladi. Qolaversa yangilangan ta’lim tizimi, mazmuni uchun eski qolipdagi metod, usullarni qo‘llash, mantiqsiz hisoblash, xuddi odamning barcha kiyimlarini yangilashu, oyog‘idagi poyafzalini yirtiq holda qodirganday bo‘ladi⁸². Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish o‘quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurnini o‘sirish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan keng va samarali foydalanishnigina emas, balki, mzkur jarayonni rejalashtiruvchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy saviyasi, kasbiy tayyorganligini shakllantiish masalasiga chuqurroq yonlashuvni talab etadi.

Shu sababli mustaqillik sharoitida ta’lim – tarbiya, malakali muaxasislar tayyorlash, shuningdek, pedagog mutaxasislar tayyorlash tizimiga qo‘yilayotgan talablarning soni har qachongidan ortib bormoqda. Bugungi pedagog mutaxasislar tayyorlash tizimiga zamonaviy yondashuvni shakllantirish, bo‘lajak mutaxasis shaxsidagi ijodkorlik, tadqiqotchilik, mustaqillik va bilish faolligi ko‘nikmalarini rivojlantirish oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan umumkasbiy fanlarning muhim vazifalaridan sanaladi.

Bugungi kunda ta’lim tarbiya jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida qurish, ta’lim islohotlarining maktab oldiga qo‘yan muhim vazifalardan biridir. Ta’lim tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish uchun, avvalo o‘qituvchi pedagogik texnologiyani tadbiq etish uchun, avvalo o‘qituvchi pedagogik texnologiya tushunchasinining mohiyatini bilishi va uning shakllarini mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

Dars jarayonlarida va darsdan tashqari ma’naviy – tarbiyaviy pedagogik texnologiyalarning samarali usul, metod va vositalarini qo‘llash orqali ham o‘quvchi yoshlarda jamiyat va tabiatga ma’naviyatli munosabatda bo‘lish shakllantirilib boriladi.

⁸² Ш.К.Чориева “Экологик таълим – тарбияда ахборот воситаларининг ўрни” – Т; 2018 й

Ayniqsa bu jarayonda “BBB”, “Atamalar zanjiri”, “Blis so‘rov”, “Aqliy hujum”, “Aql charxi”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Kichik guruqlar bilan ishslash”, “Zakovat o‘yini”, “Klaster”, “Chaynvord” kabi usul va metodlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid tajriba sinov ishlari Yunusobod tumani 150 mакtabning 10 sinf o‘quvchilarida tashkil qilindi. Ularga ekologiya va ma’naviy hayotni bog‘liqligi bo‘yicha so‘rovnoma tuzilip taqdim qilindi. Savolnomalar tarqatilip o‘quvchilarga umumlashtirip olindi.

Tajriba sinov ishlari guruhlari


Maktab	Tajriba guruhi	O‘quvchilar soni	Nazorat guruhi	O‘quvilar soni	O‘quvchilarning umumiy soni
Yunusobot tumani 150 umum’talim mакtabi	9 A sinf	28	9 B sinf	28	56

Tajriba guruh a’zolarining DTS talablari asosida bilim, ko‘nikma va malakalari monitoring natijalari

Tajriba guruhি								
guruqlar	O‘quvchilar soni	100 %	86 – 100 %	71 – 85 %	55 – 70 %	0 – 54 %	O‘rtacha bali	
9 A sinf	30		5	19	6	-	80 %	

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo‘lsak 9 A sinfida 28 ta o‘quvi bo‘lib, 86 – 100 % ko‘rsatkichga ega o‘quvchilar soni 5 tani tashkil etadi. 71 – 85 % ko‘rsatkichga ega o‘quvchilar soni 18 ta, 55 – 70 % ko‘rsatkichli o‘quvchilar soni 5 tani tashkil etadi. Shunda ularning sifat o‘zlashtirishi umumiy o‘rtacha monitoringi 80 % tashkil qildi.

TAJRIBA GURUHI



UCHINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA

Ekologik madaniyat - bu tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning sifat jihatni va harakterini aks ettiradigan umumiy madaniyat asosidir. U ma’naviy qadriyatlardan tizimida, inson faoliyatining tabiatni bilish va uni o‘zgartirish bilan bog‘liq barcha turlari va natijalarida namoyon bo‘ladi. “Tabiat va jamiyat” tizimidagi munosabatlarning tarixiy belgilangan darajasi va harakterini aks ettirib, insoniyatning noosferaga harakati bosqichlarini aniqlashda o‘ta muhim ahamiyatga egadir.

Madaniyatning tabiat hodisalaridan farqini

absolyutlashtirish kerak emas. Rivojlanish jarayonida tabiat va madaniyat o‘zaro singib, bir- birini taqazo etib boradi. Shuning uchun ekologik madaniyatga yunaltirilgan madaniyatga o‘tish, insoniyatning butun tarixi davomida tayyorlab kelingan qonuniy jarayon hisoblanadi. Madaniyat insonning tabiatga moslashish uchun kurashlaridagina emas, uning qo‘ynida erkin yashaganida, atrofidagi tabiat hodisalari va qonuniyatlarini o‘rganishi jarayonida ham shakllangan. Haqiqiy global ong va dunyoviy madaniyatga qandaydir yangi tizimlarni oqilona loyihalash bilan emas, balki odamlar va millatlarni umuminsoniy ahloqiy donishmandlik o‘zaniga birlashtirish orqali erishiladi. Chunki muommalarni hal etish uchun dunyo zo‘rliksiz birlashishi kerak. Agar inson ekologik tanglik holatlarini bartaraf etmoqchi bo‘lsa, tabiatga zo‘ravonlik qilmasligi kerak. Insoniyat XXI asrga qadam qo‘ygan hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biri ham ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘lib turibdi. Chunki birinchi navbatda inson hayoti, salomatligi, farovon yashash, qobiliyat va imkoniyatlarini to‘larok namoyon etish bilan bevosita bog‘liq. Umumiy dunyoqarashning tarkibiy qismi bo‘lib, keng va tor ma’nolarda tushuniladi. Keng ma’noda insoniyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonida atrof - muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlardan majmuasidir. Tor ma’noda esa kishilarning amaliy va nazariy faoliyati, tabiatini muhofaza qilish borasidagi oqilona, samarali harakati deb qarash mumkin. Ekologik madaniyat, eng avvalo insonning o‘z-o‘zini bilishdan boshlanadi. Agar inson o‘z organizmi ichki tuzilishi, a’zolarning o‘zaro aloqadorligi, faoliyat xususiyatlarini yaxshi bilsa, ularning me’yorda ishlashi uchun sharoit yaratса, bu

borada yuksak darajada g‘amxo‘rlik qilib borsa, unda inson bu bilan o‘z salomatligini saqlash yo‘lini ta’minlaydi, kasalikka kamroq chalinadi, doimo tetik, bardam yuradi, o‘z umrini ancha uzaytirishga erishadi. Bu jarayon ekologik madaniyat shakllanishining hal qiluvchi bosqichidir. Bu bosqich inson tarbiyasida muhim omil hisoblanishi lozim. Ushbu masala insonning butun tarbiya tizimi markazida turishi va ekologik tushunchalarning barqarorlashib borishiga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, inson o‘zini tabiatning, bu cheksiz olamning ajralmas bir bo‘lagi deb bilsa va o‘zining yashash tartiblarini yaxshi tasavvur qilsa, undan u tabiatning, koinotning ichki mohiyatini to‘g‘ri tushuna oladi.

XULOSA

Bugungi globallashuv va integratsiya davrida inson va tabiat, tabiat va jamiyat o‘zaro bir – biri bilan mutanosib, uyg‘un ravishda rivojlanmasa, o‘zaro bir – birini to‘ldirip, biri ikkinchisisiz yashay olmasligini tushunib yetmasa insoniyat taqdiri ham, tabiat taqdiri ham ayachli va qo‘rinchli kelajak tomon oldilab boradi.

Inson hamisha tabiat bag‘rida uning ko‘magida o‘sadi, rivojlanadi va kamolga yetadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, insonning tabiatdan olsak estetik zavqi va hordig‘ini boshqa biron – bir ne’mat bera olmaydi. Tabiat ham xuddi shu shaklda inson bilan yonma – yon uning mehridan va kuchidan kuch olgan holda o‘sadi va rivojlanadi. Ona o‘z bolasi parvarishini qanchalik muhim deb qarasa biz ham tabiatga parvarishni, uning ne’matlari parvarishini ham shunday mehrga tenglasak bo‘ladi. Dunyo dinlarining barchasini diniy kitoblarida tabiat ne’matlari insonni ham e’zozlovchi va jazolovchi sifatida keltiriladi. Masalan, shamol mayin essa, unda rahmat belgisi bordir, daraxtlar, gullar va mevalar urug‘lanadi, tabiiy holda bir meva yoki gul urug‘lari boshqa hududlarga uchib borib ko‘payadi, agar to‘fon yoki tornado holida kelsa butun insoniyatni ham uning yaratgan moddiy buyumlarini ham aql bovar qilmas fursatlarda vayronaga aylantiradi. Yoki yomg‘ir insonlarga rizq nasiba va baraka manbai va asosi bo‘lib xizmat qiladi. Agar u jala, sel va do‘l ko‘rinishlarida kelsa esa ayanchli oqibatlarga olib keladi.

Insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi davrlaridan ilmiy til bilan aytganda ibtidoiy odam tug‘ilib yashagan ibtidoiy davrdan, diniy til bilan izohlasak Odam Ato va Momo Havo yashagan eng qadimgi davrdan toki bugungi kungacha inson tabiat bag‘rida o‘zining har bir ehtiyojini undan olgan holda yashab kelmoqda. Qur’oni Karimda odamning yaratilishi haqidagi rivoyatda Olloh Taolonning odamni yaratishdan murodi Baqara surasida “(Ey Muhammad (sollallohu alayhi va sallam), eslang, Parvardigoringiz farishtalarga: “Men yerda xalifa qilmoqchiman” deganida, ular aytdilar: “erda buzg‘unchilik qiladigan, qonlar to‘kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi ? Xolbuki, biz hamdu sano aytish bilan seni ulug‘laymiz va Seni(n)g nomingni mudom) pok tutamiz”. (Alloh) aytdi: “Men sizlar bilmagan narsani bilaman”)”. Ushbu oyati karimadan ko‘rinib turipti –ki, insonni

yaratilishidan murod uning yer yuzida xalifa bo‘lishi. Izohli lug‘atlarda xalifa so‘ziga – bir kishi o‘rniga qoldirilgan va uning uning o‘rnini bosuvchi shaxs deya ta’rif beriladi.

Oolloh Taolo insonni o‘zining yerdagi xalifasi, uning yerdagi o‘rnini bosuvchisi uning bunyodkorlik, yaratuvchilik, rahmdillik, sobitqadamlik, o‘rgatuvchanlik, hojatbarorlik kabi fazilatlarini yerda bajaruvchi sababchisi qilib yaratibdimi biz barchamiz shu asl yaralmish sababimizga, ya’ni maqsadimizga munosib inson bo‘laylik. Tabiatni e’zozlash, muhofaza etish – bu oddiy, o‘tkinchi, vaqtincha masala emas, balki o‘ta jiddiy, o‘ta dolzarb, insoniyat taqdirini hal etadigan umumbashariy muammolar.

Tabiatni muhofaza etish – insoniyatning baxt-saodati, ertangi kuni, kelgusi avlod taqdiri uchun g‘amxo‘rlik qilish demakdir. Bu, dastavval, bizlarga ilhom berayotgan va egnimizni but, qornimizni to‘q qilayotgan Yerga, ona-zaminga ko‘rsatiladigan cheksiz hurmat va ehtiromdir. Bu – yuksak madaniyatlilik, ma’naviyatlilik belgisidir.

Tabiatni e’zozlash, atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi qarashlar va g‘oyalar Turonu Turkistonda – qadimiylar maskanimizda kuni-kecha paydo bo‘lgan emas. Uning bir necha ming yillik tarixi bor.

Necha-necha ming yillardan beri muayyan bir hududda doimiy ravishda yashab, o‘troq hayot kechirib, dehqonchilik qilib kun kechirib kelgan ajdodlarimiz uchun hosildor tuproqli Yer, tabiiy madaniyatga to‘yingan Suv, yetarli Quyosh nuri va mo‘tadil iqlim nihoyatda e’zozlangan.

Yerning, suvning, quyosh nuri va havoning, umuman tabiat olamininrg ulug‘lanishi, muqaddas sanalganligini tasodifiy hodisa deb bo‘lmaydi. Dunyoga kelgan inson ko‘z ochiboq yorug‘ jahonni ko‘radi, tiriklik manbalari bo‘lgan suvdan bahramand bo‘ladi, tabiatning issiq va so‘lim bag‘rida o‘sib ulg‘ayadi, parvarish topadi, hayot kechiradi.

Ona zamin insonlarni yediradi, ichiradi, kiydiradi, ardoqlaydi. Yer inson uchun bamisolli ona quchog‘idir. Shuning uchun ham Yerni esa Ona zamin deymiz. Ana shu sabablarga o‘ra qadimgi Sharqda, Turonzaminu Turkistonda tabiatni,

mislsiz boylik hisoblangan yerni muqaddas deb bilib e'zozlashga oid qanchadan-qancha maqolalar, ertaklar, rivoyatlar, dostonlar dunyoga yelgan. Xalq og'zaki ijodida ona zamin ulug'langan.

Yuqoridagi xulosadan kelib chiqqan holda tavsiya sifatida :

Birinchi : yosh avlodda tabiatga mehr muhabbat, uning ne'matlaridan oqilona foydalanish malakalari shakllantirishda barchamiz birgalikda hamkorlikda ishslash, bunda oila – mahalla – ta'lim muassasasi tizimini yo'lga qo'yish;

Ikkinci : yosh avlodga uyg'unlik masalasini singdirishda ma'naviyat omilini o'rnini yaqqol ko'rsatuvchi farqli jihatlarini aniqlab ko'rsatuvchi adabiyotlar, video roliklar, bukletlar, plakatlar va xujyatli filmlar olinib ular amaliyotga mantiqiy izchillikda, kuzatuvchilar va o'quvchilarning yosh xususiyatlari va kasb faoliyatlaridan kelib chiqqan holda joriy qilib borish;

Uchinchi : ta'lim muassasalarida tabiat va jamiyat o'rtaсидаги уyg'unlikni ta'minlash ma'naviyat omilini faoliyatini maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab oliv ta'lim muassasasigacha izchil davom ettirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. MEYORIY-HUQUQIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019 y.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қуёш энергияси халқаро институтини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори/Халқ сўзи, 2013 йил 2 март.
3. Ўзбекистон Республикаси Ҳаво Кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2014 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 – йил 7 – февралдаги №ПҚ - 4947 – сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Хракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 йил 6 – сон//Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, - Т.: Ўзбекистон, 2013 й.
5. Ўзбекистон Республикаси атроф – муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисида Миллий маъруза// Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш қўмитаси, - Т.:Ўзбекистон, 2013 й.
6. Ўзбекистон Республикаси Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси. Ўзбекистон Республикаси Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисида Миллий ҳисобот. – Т.: Ўзбекистон, 2015 й .

II. RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018
3. Каримов И.А. БМТ Бош ассамблеясининг 48-сессиясидаги Маъруза. –Т.: Ўзбекистон, 1996 йил.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида : хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997 йил.
5. Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. –Т.: Ўзбекистон, 1999 йил.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 йил
7. Каримов И.А. Осиё қуёш энергияси форумининг олтинчи йиғилишидаги нутқи. Қуёш энегияси – келажак энергияси// Халқ сўзи 2013 й
8. Каримов И.А. “Орол денгизи минтақасидаги экологик оғат оқибатларини юмшатиш бўйича ҳамкорликни ривожлантириш мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табриги” – Т; 2014 йил.

III. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. А.Ибрагимов “Рухий маҳзан озиги”, - Т; 2009 й

2. “Фавқулодда вазиятлар : табиат ва жамият уйғунлиги тарихидан (мутаносиблик ва мувофиқлик муаммолари) мавзусидаги Олий ўкув юртлари аро анжуман материаллари - Т, 2014 й”
3. З.Фофуров “Табиатни муҳофаза қилишнинг маънавий ва ҳуқуқий асослари” –Т; 2007 й
4. Э.Холиков, Б.Сиддиков “Қалбан улғайиш даври” – Т; 2011 й
5. Шайх Абдулазиз Мансур “Қуръони Карим” таржима ва шархлар. – Т; 2012 й
6. Шайх Мұхаммад Юсуф Мұхаммад Содик “Тафсири Ҳилол”
7. Шайх Мұхаммад Юсуф Мұхаммад Содик “Оlam ва одам, Дин ва Илм” – Т; 2019 й
8. “Авесто” тарихий – адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т; 2001 й
9. Т.Маҳмудов “Авесто” ҳақида. – Т; 2000 й
10. П.Ғуломов “Инсон ва табиат” – Т; 2009 й
11. Ҳ.Ҳомидий “Авесто файзлари”, -Т, 1992 й
12. О.Файзуллаев, Г.Хошимова “Инсон ва табиат” – Т; 1976 й
13. Ф.Маёр “Келажак хабарномаси” – Т; 1996 й
14. Т.Мирзаев, З.Фофуров “Табиатни эъзозлаш умумбашарий муаммо” – Т; 2001 й
15. Бозоров “Экология ҳуқуқи” – Т; 2018 й
16. Сув ҳуқуқи// Холмўминовнинг умумий таҳрири остида –Т; 2018 й
17. Ж.Холмўминов “Экологик таҳдидларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этишнинг ҳуқуқий муаммоларининг илмий – назарий таҳлили” , -Т, 2016 й
18. А.Норбоев, Ф.Жумабоев “Мувозанат ёки тарози” – Т, 2014 й
19. Ш.Чориева “Экологик таълим тарбияда ахборот воситаларининг ўрни” – Т, 2018 й.
20. Х.Салимов “Экология” (марузалар матни). – Н, 2015 й
21. М.Тўхлиев “Касб ҳунар коллежларида инсониятнинг глобал муаммолари мавзусини янги педагогик технологиялар асосида ўқитиши” – Г, 2016 й.

IV. INTERNET SAYTLARI

1. [ww. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
4. [www. ma'naviyat. uz](http://www.ma'naviyat.uz)
5. www.bilim.uz.